

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
FUQAROLIK JAMIYATI NAZARIYASI KAFEDRASI

O‘ZBEKISTONNING XALQARO XAMJAMIYAT BILAN
ALOQALARI FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY
MAJMUUA

Andijon– 2019

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ A.Mamatyusupov

2019 yil “__” _____

**O‘ZBEKISTONNING XALQARO XAMJAMIYAT BILAN
ALOQALARI**

FANINING ISHCHI O‘QUV DASTURI

Ta‘lim sohasi: - 5610400 –Ijtimoiy-madaniy faoliyat

Umumiy o‘quv soatlari: 76 soat

Ma‘ruza: 18 (1-semestr 18 soat)

Seminar: 18 (1-semestr 18 soat)

Mustaqil ta‘lim: 40 soat

Andijon – 2019

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil “25”avgustdagi “744”-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:

B.M. Tojiboev – AnDU Fuqarolik jamiyati nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

O. Axmadjonov – AnDU Fuqarolik jamiyati nazariyasi kafedrasida dotsent t.f.n.

O‘.Ubaydullaev –AnDU MG‘MAXT kafedrasida mudiri t.f.n. dotsent

“O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (2019 yil “___” _____ dagi “___” –sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

G‘M.Haydarov

“O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua “Tarix” fakulteti ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan hamda nashrga tavsiya etilgan (2019 yil “___” _____ dagi “___” –sonli bayonnoma)

Fakultet dekani

R.Shamsiddinov

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

R.Mullajonov

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

A.Mamatyusupov

Fanning ishchi dasturi AnDU o‘quv-uslubiy Kengashining 2019 “___” ___ “___” –sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Kirish

Mazkur ishchi dastur mustaqil O‘zbekiston Respublikasining hozirgi davrdagi xalqaro munosabatlari tarixi va tarix ilmi bilan shug‘ullanuvchilarga yanada chuqurroq bilim berish bilan xarakterlanadi. Shuningdek “O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fani mustaqillikka erishganimizdan keyingi jaxon mamlakatlari o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro savdo iqtisodiy aloqalar, ilmiy va madaniy muloqotlar, ular o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlikni mustaxkamlash, dunyoda tinchlik o‘rnatish kabi masalalarni qamrab oladi.

O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – mustaqil davlatimizning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan teng huquqli va har tomonlama aloqalarni o‘rganish. Shu bilan talaba talabalarni g‘oyaviy – mafkuraviy saviyasini uzluksiz o‘sib borishini ta‘minlab, ularni jonajon Vatanga sadoqat ruxida tarbiyalash.

Fanning vazifasi – talaba talabalarga “O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fani nazariyasini chuqur o‘rgatish, hamda mamlakatimizning jaxon siyosat maydonidagi o‘rni va mavqeini mustaxkamlanib borishini asoslab berish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tinchlik, barqarorlik va hamkorlik yo‘llarini; O‘zbekistonning Jahon hamjamiyati bilan aloqalarining boshlanishini; O‘zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligini; Respublikamizning Jahon hamjamiyatida faol ishtirokini va xalqaro tashkilotlar bilanhar tomonlama aloqalarni boshlanishini ***bilishi kerak***;
- Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan mustaqil Respublikamizning xalqaro faoliyatida dunyo mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yilishida alohida o‘rin egallashini; O‘zbekistonning Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorliklarini va boshqalarni to‘g‘ri tahlil etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***;
- Fan amaliyot davrida o‘tiladigan darslarning sifat va samaradorligiga erishish yo‘llarini o‘rganish; ijobiy natijalarga erishishning asosiy shakli – dars ekanligini bilish; O‘zbekiston Respublikasining Jahon hamjamiyatidagi

iqtisodiy, madaniy va tashqi siyosiy faoliyatiga tegishli ta'lim – tarbiya dars jarayonlarini eng qulay variantlarini ishlab chiqish va amalga oshirish *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

O'zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari, fani talabalarga 1-semestrda o'rgatiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan O'zbekiston tarixi, Falsafa, Dinshunoslik, Ijtimoiy madaniyo faoliyat tarixi, uslubi uslubiyoti fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Bugungi kunda Respublikamizning Jahon xamjamiyatida faol ishtirok etishi va milliy manfaatlarimizga mos keladigan ko'p tomonlama siyosat yuritish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. Ana shu shartlarni bajarishda “O'zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanining o'rni alohida hisoblanadi. Shuningdek mamlakatimiz Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda ham mazkur fanning yordami katta bo'ladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “O'zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar darslarida mos ravishda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ushbu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning (talaba) boshqaruv sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruhliy.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari, videoproektor.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki

yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanib borib, tarqatma materiallar tayyorlanadi. Test tizimi hamda tayanch soʻz va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar oʻtkaziladi.

“O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanidan o‘tiladigan mavzular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti:

№	Ma’ruzalar mavzulari	Jami	Ma’ruza	Semirar	Mustaqil ish
1	O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.	8	2	2	4
2	O‘zbekiston Respublikasi va Amerika davlatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar	8	2	2	4
3	O‘zbekiston Respublikasining O‘rta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi	8	2	2	4
4	O‘zbekiston Respublikasining Yevropa ittifoqi va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi	8	2	2	4
5	O‘zbekiston Respublikasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorligi	8	2	2	4
6	O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan hamkorligi	8	2	2	4
7.	O‘zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatida faol ishtirokini va xalqaro tashkilotlar bilan xar tomonlama aloqalari	8	2	2	4
8	O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: tinchlik, barqarorlik va xamkorlik yo‘llari	8	2	2	4
9	O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosif faoliyat konsepsiyasi to‘g‘risidagi qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor	8	2	2	4

yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi prezident farmoni				
Ja‘mi	76	18 soat	18 soat	40

Asosiy qism

“O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanining zamonaviy tarixi. Bugungi O‘zbekistonning Jahon hamjamiyatida alohida o‘ringa ega ekanligi. O‘zbekistonning Yevropa, Osiyo va Tinch Okeani mamlakatlari davlatlari bilan hamkorliklari haqidagi ma’lumotlar. XXI asrning dastlabki yillarida O‘zbekistonning Jahon hamjamiyatidagi har tomonlama munosabatlari to‘g‘risida hamda Jahon hamjamiyati bilan keng ko‘lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatlarini qurishdan iborat strategik vazifalarni hal etishi to‘g‘risida talabalarga tushunchalar xosil qilishdan iborat.

O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.

Fanning vazifalari. “O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanining hozirgi bosqichdagi tarraqiyoti hamda ushbu fanga ilmiy bilimlarning mustaqil bir tarmog‘i sifatida qaralishidir.

Mazkur fan orqali talabalarga mamlakatimizning buyukligini, uning iqtisodiy salohiyatini, xarbiy qudratini, madaniyatini ko‘rsatib berish. Shuningdek, ushbu fan orqali ta’lim-tarbiyaning uzviy birligini, dars jarayonida talabalarni g‘oyaviy-mafkuraviy saviyasini uzluksiz o‘shib borishini ta’minlash. “O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan aloqalari” fanini o‘qitish turlari dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan aloqalarini boshlanishi, 1991 yil 1 sentabrdan boshlab jahon xaritasida yangi mustaqil O‘zbekiston davlatining paydo bo‘lishi va xalqaro maydonda mustaqil siyosat yurita boshladi. Yangi davlatning xavfsizlik va barqaror tinchlik uchun doimo qat’iy kurash olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi va Amerika davlatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Shimoliy va Janubiy Amerikaning 21 ta mamlakati, jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Meksika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Braziliya Federativ Respublikasi, Argentina Respublikasi, Chili

Respublikasi, Venesuela Bolivar Respublikasi, Yamayka, Urugvay Sharqiy Respublikasi, Peru Respublikasi, Kosta-Rika Respublikasi, Paragvay Respublikasi, Kuba Respublikasi, Gvatemala Respublikasi, Nikaragua Respublikasi, Gonduras Respublikasi, Dominikan Respublikasi, Ekvador Respublikasi, Kolumbiya Respublikasi, Ko'p millatli Boliviya Davlati va El-Salvador Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi»ga muvofiq, respublika tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlardan biri Amerika mintaqasi bilan hamkorlik hisoblanadi. Joriy O'zbekiston-AQSh munosabatlari o'zining komplekslik, uzoq muddatli va ko'p qirrali jihatlari bilan ajralib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasining O'rta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi

O'zbekiston – bangladesh munosabatlari, O'zbekiston-Birlashgan arab amirliklari munosabatlari, O'zbekiston-Eron munosabatlari, O'zbekiston-Misir aloqalari, O'zbekiston-Isroil munosabatlari, O'zbekiston-Quvayt munosabatlari, O'zbekiston-Pokiston munosabatlari, O'zbekiston-Saudiya Arabistoni munosabatlari, O'zbekiston-O'mon munosabatlari

O'zbekiston Respublikasining Yevropa ittifoqi va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi

YeI to'g'risidagi shartnoma, YeI organlari: Yevropa mashvarati, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi.

Yevropa Ittifoqi Evropaning 27 davlatidan iborat siyosiy va iqtisodiy birlashmadir. Uning tarixi 1957 yilga, 6 Yevropa davlatlari orasida imzolangan Rim bitimi va undan so'ng paydo bo'lgan Evropa Iqtisodiy Hamkorligiga borib taqaladi. Yevropa Ittifoqi 1992 yilda imzolangan Maastrixt shartnomasiga binoan tuzilgan va 15 davlatni o'z ichiga olgan. 2005 yilda Ittifoqning birinchi yirik kengayishi yuz berdi. Unda Ittifoqga 10 ta yangi davlatlar qo'shildi. Ikki yildan so'ng ular soniga Bulg'oriston hamda Ruminiya davlatlari qo'shib, hozirgi davrga qadar Yevropa Ittifoqi 27 davlatlardan iborat.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida YeI bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. O'zbekiston bilan YeI o'rtasida Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim.

O‘zbekiston Respublikasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorligi

O‘zbekistonning Respublikasining Osiyo va Tinch okeani xavzasi mamlakatlari bilan hamkorliklari kabi masalalar hozirgi kunda tarixan muhim masala ekanligi. O‘zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasining rasmiy tashrif bilan Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston, Saudiya Arabiston, Misrda bo‘lib davlatlararo munosabatlarining asoslari to‘g‘risidagi shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari tuzishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 22-25 noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi natijalari bo‘yicha Strategik hamkorlikni mustahkamlama kengaytirish to‘g‘risida qo‘shma bayonoti qabul qilindi, davlatlararo, hukumatlararo va idoralarda darajadagi 20 dan ziyod kelishuvlar imzolandi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqinligi muhim o‘rin egallaydi. Doimiy tarzda ikki davlat rahbarlarining tashriflari va uchrashuvlari o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida 1992-yil-26 yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. «Yaponiya parlamentining O‘zbekiston bilan do‘stlik ligasi» va «Yaponiya demokratik partiyasi - O‘zbekiston» parlamentlararo do‘stlik ligalarining turli forumlar o‘tkazishi orqali parlament aloqalari rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston va Indoneziya Parlamentlararo aloqa turli darajadagi tashriflar almashinuvi orqali izchil tarzda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda Indoneziya kapitali ishirokida 4 ta korxonada faoliyat olib bormoqda. Mamlakat xalqlari o‘rtasida do‘stlik rishtalari, hamkorlik aloqalari, hamda madaniy va ma’rifiy sohada munosabatlarni rivojlantirish maqsadida 2002-yil sentabr oyida “O‘zbekiston-Indoneziya” do‘stlik jamiyati ta’sis etildi.

O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan hamkorligi

O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Qozog‘iston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bilan O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning sezilarli qismi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston-Qirg‘iziston munosabatlari ikki tomonlama hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlarning o‘zaro tenglik va manfaatdorlik tamoyillari asosida izchil amalga oshirilishi bilan izohlanadi. O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro anglashuv va

hurmatga asoslangan barqaror aloqalarga tayanadi. Bu munosabatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasidagi yaqin qo‘shnichilik va do‘stona aloqalar qaror topgan bo‘lib, davlatlararo munosabatlarining barcha jabhalarida hamkorlik darajasi yuksalmoqda.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi konstruktiv va ochiq muloqot mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda hamda mintaqaning barqaror rivojlanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi O‘zbekiston Respublikasini 1992-yil 20-mart kuni tan olgan. Shu kunning o‘zida ikki mamlakat o‘rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlik 2004-yil imzolangan Strategik hamkorlik va 2005-yil imzolangan Ittifoqdoshlik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomalar asosida rivojlanmoqda. Ozarbayjon Respublikasi, Ukraina, Belarus Respublikasi, Armaniston, Moldova, Gruzuya kabi davlatlar xam O‘zbekistonning eng muhim tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatida faol ishtirokini va xalqaro tashkilotlar bilan xar tomonlama aloqalari

O‘zbekiston tomoni jahondagi jadal o‘zgarishlar sharoitida MDHni davlatlararo hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar, oliy darajada siyosiy muloqotlar, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondoshuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko‘plab dolzarb masalalarni hal etishning muhim mexanizmi deb hisoblaydi.

O‘zbekistonning Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi faoliyatidagi ishtiroki. Orol dengizi muammolari. Orol dengizi mintaqa iqtisodining rivoji, sanoati (ishlab chiqarish tarmog‘i), aholining ish bilan bandligi va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki bilan hamkorligi, O‘zbekiston Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) faoliyatidagi ishtiroki, O‘zbekiston va YXHTning o‘zaro hamkorligi

O‘zbekistonning Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki bilan hamkorligi, O‘zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va NATO bilan YeAHK/TYH doirasida hamkorligi.

O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: tinchlik, barqarorlik va xamkorlik yo‘llari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti — yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida

tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945 yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943 yilda, Ustavi esa SanFransisko konferensiyasida 1945 yilda qabul kilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000 yilda esa ular soni 189 ga etdi. Xozirgi kunda 193 davlat a'zo. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi) — NyuYork. BMT Ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqdi bo'lishi va o'z takdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosif faoliyat konsepsiyasi to'g'risidagi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident farmoni

O'zbekiston xukumatining isloxotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf – odatlari, an'analari bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlashi. Bugungi kunda O'zbekistonning tom ma'noda ma'naviy tiklanish va ruxiy poklanish maydoniga aylanganligi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasidagi yosh mustaqil davlatlar bilan xamkorlik, do'stlik, tinchlik va xavfsizlik aloqalarini mustaxkamlashga qaratilishi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida, ayniqsa, tinchligi buzilgan tojik va afg'on xalqiga muntazam insonparvarlik yordamlarini ko'rsatib kelayotganliklari.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar O'zbekiston va jaxon hamjamiyati fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Jaxon xaritasida O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi va mustaqil davlatning dastlabki qadamlari.

2. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi va Amerika davlatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar
4. O‘zbekiston Respublikasining O‘rta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi
5. O‘zbekiston Respublikasining Yevropa ittifoqi va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi
6. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorligi
7. O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan hamkorligi
8. O‘zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatida faol ishtirokini va xalqaro tashkilotlar bilan xar tomonlama aloqalari
9. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: tinchlik, barqarorlik va xamkorlik yo‘llari

Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy hal etish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos ilmiy yechimlar qabul qilish va zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs ishi mavzulari bevosita o‘quv jarayoniga bog‘liq holda belgilanadi. Kurs loyihasining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30% ko‘proq oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Kurs ishlarining taxminiy mavzulari:

1. O‘zbekiston Respublikasining XXI asr arafasidagi tub o‘zgarishlarning mohiyati.
2. O‘zbekistonning tinchlik, hamkorlik va barqarorlik yo‘llari.
3. O‘zbekistonning geografik-siyosiy strategik imkoniyatlari.

4. O‘zbekistonning ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligi nimalarda o‘z aksini topmoqda.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning O‘zbekiston bilan tinchlik, barqarorlik va hamkorlik sohasida olib borayotgan ishlari.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabani o‘quv ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta‘lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida faoliyat ko‘rsata boshlagan xorijiy korxonalar faoliyati.
2. O‘zbekistonning ulkan imkoniyatlari mamlakati ekanligi nimalarda o‘z aksini topmoqda.
3. Mamlakatimizda madaniyat, manaviyat, sport sohalarida erishilgan yutuqlar.
4. Mustaqil O‘zbekistonning BMT ga qabul qilinishi va uning xalqaro ahamiyati.
5. O‘zbekiston va Germaniya davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy – madaniy va ta‘lim tizimidagi hamkorliklar.
6. O‘zbekiston – Angliya tarixida yangi yo‘nalishlarning boshlanishi va ikkala davlat ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar.
7. O‘zbekiston – Fransiya mamlakatlarining teng tomonli hamkorliklari va uning natijalari.
8. O‘zbekiston – Turkiya davlatlari iqtisodiy – madaniy aloqalari.
9. O‘zbekiston – Pokiston davlatlari qadimgi aloqalarning davomiyligi.
10. O‘zbekiston – Hindiston davlatlari o‘rtasidagi fan, madaniyat, ta‘lim tizimidagi yangi hamkorliklar.
11. O‘zbekiston – Xitoy: madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi.

12. O‘zbekiston – Janubiy Koreya: o‘zbek mashinasozligiga asos solinishi hamda ikkala mamlakat o‘rtasidagi yangi ilmiy madaniy va milliy an’analar.
13. O‘zbekiston – Yaponiya iqtisodiy hamkorligi, yapon firmalarining O‘zbekistondagi faoliyati.
14. O‘zbekiston va Yaponiya davlatlari o‘rtasidagi ilm – fan, madaniyat va san’at hamda sport sohasidagi samarali ishlar.
15. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar bilan hamkorlik, do‘stlik va xavfsizlik aloqalarining mustahkamlanishi.
16. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda Markaziy Osiyodagi imkoniyati keng mamlakat ekanligi.
17. Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro siyosiy anjumanlar va ularning tarixiy ahamiyati.
18. O‘zbekistonning mintqa osoyishtaligini ta’minlashdagi MDH davlatlari bilan o‘zaro aloqalari.
19. O‘zbekiston Respublikasining MO ni yadro qurolidan holi hudud va xalqaro terrorizmga hamda giyohvandlikka qarshi kurash hududi deb e’lon qilinishi kabi tashabbuslari.
20. O‘zbekiston – YuNESKO; hamkorlikning yangi bosqichlari.

Dasturning informatsion – uslubiy ta’minoti

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natijalar beradi. Ularni amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Bumerang”, “FSMU texnologiyasi”, “Aqliy xujum” metodlari orqali hamda slaydlar, multimediya namoyishlari bilan o‘rganilishi nazarda tutiladi

1-Mavzu: O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Tashqi siyosatimizning prinsiplial pozitsiyasi hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obektlarini O‘zbekiston hududida joylashishiga yo‘l qo‘ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqaridagi tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etmasligi, barcha ziddiyat va mojarolarni faqat siyosiy yo‘l bilan hal qilishga sodiq qolish bilan izohlanadi. O‘zbekiston hech qanday bloklarga a‘zo bo‘lmasdan turib muloqot uchun ochiq va barcha sheriklari bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo‘lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;
- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirish;
- O‘zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko‘maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishda faol ko‘mak berish;

- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaqa davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH malakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrdagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi

deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirish ikki mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 4-5-aprelida Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va 2013-yil 9-sentyabrdagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyasiga asoslangan. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 11-13-may kunlari Pekinga davlat tashrifi, shuningdek, 2017-yil 14-15-may oyida «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forum'da ishtirok etish asnosida erishilgan qarorlar va kelishuvlarni amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O'zbekiston va AQSh o'rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi deklaratsiyasi asnosida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston AQSh bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitiaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlari Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko'maklashishdan iboratdir.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdo-sotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

Respublikamiz ko'p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlariga ega bo'lgan Turkiya davlati bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi.

Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarda rivojlantiradi.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. O'zbekiston ushbu davlatlar bilan investitsiya, savdo-sotiq, yuqori texnologiyalar, madaniy-gumanitar sohasidagi keng qamrovli hamkorlikni davom ettiradi.

O'zbekiston Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar – Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vetnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarda har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

O'zbekiston musulmon dunyosi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik sohasida, shu jumladan Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor.

O'zbekiston BMT ishida faol ishtirok etishni davom ettiradi, hamda uni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, tezkor globallashuv jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishida ko'maklashishga mas'ul bo'lgan yagona universal tashkilot sifatida ko'radi.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 45 ta chet el elchixonalari, 8 ta faxriy konsullar, 19 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 18 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli

xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.

2-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi va Amerika davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Shimoliy va Janubiy Amerikaning 21 ta mamlakati, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Braziliya Federativ Respublikasi, Argentina Respublikasi, Chili Respublikasi, Venesuela Bolivar Respublikasi, Yamayka, Urugvay Sharqiy Respublikasi, Peru Respublikasi, Kosta-Rika Respublikasi, Paragvay Respublikasi, Kuba Respublikasi, Gvatemala Respublikasi, Nikaragua Respublikasi, Gonduras Respublikasi, Dominikan Respublikasi, Ekvador Respublikasi, Kolumbiya Respublikasi, Ko'pmillatli Boliviya Davlati va El-Salvador Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi»ga muvofiq, respublika tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlik hisoblanadi. Joriy O'zbekiston-AQSh munosabatlari o'zining komplekslik, uzoq muddatli va ko'p qirrali jihatlari bilan ajralib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan.

Tomonlar bir qator xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha mushtarak pozitsiyaga ega bo'lib xavfsizlik tahdidlari, ya'ni giyohvand moddalarining noqonuniy aylanishi, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdek, Markaziy Osiyo va Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarida o'zaro faol hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston-AQSh munosabatlari doirasidagi barcha yo'nalishlarda sifat jihatidan yangi va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishni belgilab bergan asosiy hujjat bu ikki mamlakat o'rtasida 2002-yil martda imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi Deklaratsiya hisoblanadi.

Ikki tomonlama hamkorlikni muntazamlashtirish hamda qayd etilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida AQSh bilan o'zaro manfaatli va barcha sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli «Yo'l xaritasi» amalga oshirilmoqda.

2017-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev va AQSh Prezidenti D.Trump o'rtasida bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotida o'zaro hurmat, ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga sodiqligi ta'kidlandi.

Ikki tomonlama siyosiy muloqotlar o‘zaro tashriflarning yuqori muntazamligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbekistonga AQSh ma‘muriyatining asosiy idora vakillari va turli darajadagi delegatsiyalari muntazam ravishda tashrif buyuradi va O‘zbekiston - AQSh munosabatlarining dolzarb masalalari bo‘yicha fikr almashish mexanizmi - yillik siyosiy maslahatlashuvlar tashkil etiladi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasi AQShga va Vakillar palatasi a‘zosi T. Kelli boshchiligidagi bir guruh kongress a‘zolari O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Mamlakatlar o‘rtasidagi ishbilarmonlik aloqalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda AQSh-O‘zbekiston savdo palatasi muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida imzolangan TIFA savdo va investitsiyalar to‘g‘risidagi bitimning amalga oshirilishi Amerika bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekistonda AQShning dunyoda taniqli bir qator yirik kompaniyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xususan, «General Motors» korporatsiyasi ishtirokida yengil avtomobillar uchun dvigatellar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan «General Motors Powertrain Uzbekistan» zavodi faoliyat ko‘rsatmoqda.

«Boeing» kompaniyasi «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar, xususan «Boeing-787-8 Dreamliner» rusumidagi yangi avlod samolyotlari bilan ta‘minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.

«General Electric» korporatsiyasi O‘zbekistonning neft-gaz va aviatsiya sektorlarida, shuningdek, salomatlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi muhim hamkori hisoblanadi.

AQShning O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyalari ichida «Exxon Mobil», «CNH Industrial», «Coca-Cola», «Hyatt», «Hilton», «John Deere», «Honeyvell», «Caterpillar» va boshqalar ham mavjud.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar muntazam ravishda rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda ilm-fan va ta‘lim sohalarida hamda yangi aloqalar o‘rnatish va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, eng avvalo madaniy - gumanitar va ilmiy-ma‘rifiy hamkorlikni yanada mustahkamlash borasida amaliy ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonga AQShning ixtisoslashtirilgan muassasalari va tashkilotlari ekspertlari muntazam ravishda muzokaralar va amaliy tadbirlar o‘tkazish maqsadida tashrif buyuradi hamda o‘zbek mutaxassislari AQShning turli-xil ilmiy va ta‘lim dasturlarida ishtirok etadilar. AQShning bir nechta universitetlari, jumladan Texas A&M va Missisipi universitetlari bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Universitetlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish doirasida O'zbekistonning bir qator oliy ta'lim muassasalari hamda AQShning Ogayo va Michigan universitetlari, Boston yuridik kolleji, Amerika va Jorjtaun universitetlari kabi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarni kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkentda Vebster universiteti filialini ochish to'g'risida kelishuvga erishildi. AQSh tibbiyot muassasalari va O'zbekiston ixtisoslashgan klinika va shifoxonalari o'rtasida, jumladan jarrohlik, kardioxirurgiya, urologiya, akusherlik va ginekologiya ko'z mikroxirurgiyasi yo'nalishlarida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi.

O'zbekiston Kanada bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratmoqda va siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalardagi o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yilning 7-aprelida o'rnatilgan. Ikki tomonlama aloqalar O'zbekiston Respublikasining qarorgohi Vashington shahrida bo'lgan Kanadadagi Elchixonasi hamda Kanadaning qarorgohi Moskva shahrida bo'lgan O'zbekistondagi Elchixonasi darajalarida olib borilmoqda. 1997 yildan buyon Toshkentda Kanadaning Fahriy Konsulligi faoliyat yuritib kelmoqda.

Ikkitomonlama munosabatlarda tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida olib borilayotgan muntazam siyosiy maslahatlashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ikkitomonlama hamkorlikni mustahkamlash uchun "Yo'l xaritasi"ni birgalikda amalga oshirish o'zaro muloqotlarga tizimli tus berilmoqda. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro tashriflar muntazam ravishda tashkil etilmoqda.

Tomonlar o'rtasida, xususan, Kanadaning Rossiya va Yevroosiyodagi ishbilarmonlar assotsiatsiyasi (CERBA) orqali o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik bosqichma-bosqich rivojlanishda davom etmoqda. Jumladan, Kanada delegatsiyasi Toshkent shahrida o'tkazilgan «UzMining Expo-2017» Xalqaro ko'rgazmasida eng faol ishtirokchilaridan bo'ldi, diplomatik munosabatlarning 25 yilligi arafasida esa, Toshkentga tog'-konsanoati sohasida faoliyat olib boruvchi Kanada biznes-jamiyati vakillaridan iborat ikki davlat hamkorligi tarixidagi eng ulkan biznes-delegatsiyaning tashrifi amalga oshirildi.

O'zbekiston Lotin Amerikasi davlatlari bilan faol aloqalarni qo'lab-quvvatlashga intilmoqda. Braziliya, Kuba, Chili va Argentina mamlakatlari bilan munosabatlarda muntazamlik kuzatilmoqda.

Ishchi muloqot muntazam ravishda xabar almashish va delegatsiyalarning o'zaro tashriflari ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yil fevralida O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarining Braziliyaga soya ishlab

chiqarish va qayta ishlash sohasida amaliyotlarni o'rganish bo'yicha tashrifi tashkil etildi.

O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirish hamda turizm va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalarini muhokama qilish doirasida O'zbekistonga tashrif buyurayotgan Lotin Amerikasi mamlakatlari delegatsiyalarining vakillari bilan muntazam ravishda ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

3-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining O'rta, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari bilan hamkorligi

O'ZBEKISTON – BANGLADESH MUNOSABATLARI

Bangladesh Xalq Respublikasi 1991-yilning 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi. 1992-yilning 15-oktabrida Toshkent shahrida tomonlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqida protocol imzolandi. Bangladeshning O'zbekistondagi elchihonasi 1996-yil mart oyida ochildi.

1998-yilning fevralida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Komilovning Bangladeshga birinchi rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. 2000-yilning iyulida Bangladeshning sobiq Tashqi ishlar vaziri Abdus Samad Azad O'zbekistonga tashrif buyurdi. 2018-yil 8-12-aprelda Bangladesh Davlat tashqi ishlar vaziri Shaxriyar Alam O'zbekistonga tashrif buyurdi.

2018-yilda O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 53,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Bugungi kunda respublikada Bangladesh kapitali ishtirokida 6ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning bittasi – 100% xorijiy kapital asosida.

2012-yil 5-7-mayda Toshkent shahrida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Bangladesh hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

2014-yil 24-25-aprelda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri E.G'aniev boshchiligidagi delegatsiyaning Dakkaga tashrifi bo'lib o'tdi. O'zbekiston-Bangladesh hukumatlararo komissiyaning ikkinchi yig'ilishi shu tashrif doirasida o'tkazildi.

2018-yil 23-28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirining birinchi o'rinbosari M.Mirzaev boshchiligidagi delegatsiyaning Bangladeshga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif chog'ida Bangladeshning to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribasi o'rganildi.

O‘ZBEKISTON-BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI MUNOSABATLARI

O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilning 25-oktabrda o‘rnatilgan.

1992-yilning noyabr oyida O‘zbekistonning Dubaydagi Bosh konsulxonasi faoliyat ko‘rsata boshladi. 2007-yildan boshlab Abu Dabi shahrida O‘zbekiston Respublikasining elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

2004-yilning iyunida Toshkentda Amirliklar hukumatining Bosh konsulxonasi ochildi. 2010-yilda BAAning Toshkentdagi Bosh konsulxonasiga elchixona maqomi berildi.

2008-yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Birlashgan Arab Amirliklarida bo‘ldi. Tashrif davomida ikki mamlakat o‘rtasida hozirgi aloqalarning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytiruvchi 28 ta hukumatlararo va idoralararo hujjat imzolandi.

2018-yil 5-dekabr kuni Abu-Dabi shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 1-davrasi o‘tkazildi.

Ikkitomonlama munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosini davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo doirasida imzolangan 20 ta ekstratsiya, jinoit ishlarda yordam, havo qatnovi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, ikkitomonlama daromad solig‘idan qichish, fan va texnika va boshqa sohalardagi hamkorlikni qamrab oluvchi hujjat tashkil etadi.

2018-yilning 11 oyi davomida ikki tomonlama tovar aylanmasi hajmi \$123,8 mln. dollarga yetdi. Bunda eksport - \$52,2 mln. doll., import \$71,6 mln. dollarni tashkil qildi.

Eksportning asosini paxta tolasi, xizmatlar, ipak, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil etadi. Import –mexanik va elektrik jihozlar, mebel, oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari, kiyim-kechak va sport jihozlari.

Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida Amirliklar sarmoyalari ishtirokida 92 ta korxonalar tuzilgan bo‘lib, ulardan 36 tasi 100% Amirliklar kapitali asosida tashkil qilingan.

2018-yilning yanvar va oktabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari boshchiligidagi delegasiyaning BAAga tashrifi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston-Amirliklar muzokaralarida savdo-iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

BAA Savdo-sanoat palatasi rahbari o‘rinbosari I.al-Mahmud boshchiligidagi delegasiyaning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida, 2018-yil 3-oktabrda Toshkentda O‘zbekiston-Amirliklar ishbilarmonlari ishtirokida biznes forum o‘tkazildi.

O‘ZBEKISTON-ERON MUNOSABATLARI

Eron Islom Respublikasi 1991-yilning 25-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi.

1992-yil 10-mayda O‘zbekiston va Eron o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

Eronning Toshkentdagi elchixonasi 1992-yil noyabr oyida va O‘zbekistonning Tehrondagi elchixonasi 1995-yil may oyida ochilgan.

O‘tgan muddat davomida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning Eronga to‘rt bor tashrifi amalga oshirildi. (1992 va 2003-yillarda rasmiy, 1996 va 2004-yillarda EKO sammiti doirasida).

O‘z navbatida Eron prezidentlari A.Rafsanjoni (1993-yil oktabr) va S.Hotamiylarning (2002-yil aprel) O‘zbekistonga rasmiy tashriflari bo‘lib o‘tgan.

Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) 2017-yil sentabrda Ostonada o‘tkazilgan fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning Eron Islom Respublikasi Prezidenti H.Ruhoniy bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Tashqi ishlar vazirining orinbosari darajasida muntazam ravishda O‘zbekiston-Eron siyosiy maslahatlashuvlari o‘tkaziladi. Siyosiy maslahatlashuvlarning 5-davrasi 2017-yilning 13-martida Toshkentda o‘tkazildi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston va Eron munosabatlarining shartnomaviy-huquqiy asosini siyosiy, iqtisodiy madaniy sohalarda imzolangan 55 ta hujjat tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o‘rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo qo‘shma komissiya tashkil etilgan. 2018-yilning aprel oyida Tehron shahrida O‘zbekiston-Eron qo‘shma komissiyasining 12-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

2018-yil natijalariga ko‘ra, o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari \$306,5 mln, shu jumladan O‘zbekiston eksporti – \$172,5 mln., import esa \$133,9 mln. hajmida qayd etildi.

O‘zbekistonda Eron sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 116 dan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shulardan 19 tasi to‘liq Eron sarmoyasi asosida ish olib bormoqda.

O‘zbekistonning Eronga eksporti paxta, paxta tolasi, qora va rangli metallar, mineral o‘g‘itlar, elektomehanik jihozlar, mevalar, quruq mevalar va plastmassa mahsulotlaridan iborat bo‘lmoqda.

2011-yilning 25-aprelida Ashxabodda tashqi ishlar vazirlarining to‘rt tomonlama yig‘ilishida O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-O‘mon temir yo‘l koridorini shakllantirish bo‘yicha hujjat imzolandi.

O‘ZBEKISTON-MISR ALOQALARI

Misr Arab Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda tan olgan. 2017-yilda O‘zbekiston va Misr o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganiga 25 yil to‘ldi (1992-yil 23-yanvar).

Misrning Toshkentdagi elchixonasi 1993-yil may oyidan, O‘zbekiston diplomatik vakolatxonasi esa 1994-yil dekabrda Qohirada o‘z faoliyatlarini boshladilar.

Ikkimonlama aloqalar rivojiga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil dekabr va 2007-yil aprel oylarida Misrga amalga oshirgan rasmiy tashriflari sezilarli turtki bo‘ldi.

2018-yil 4-5-sentabr kunlari Misr Prezidenti A.as-Sisining O‘zbekistonga tashrifi bo‘lib o‘tdi. Tashrif davomida O‘zbekiston-Misr hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar muhokama etilib, 12 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O‘zbek-misr munosabatlari halqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususan, Birlashgan millatlar tashkiloti va Islom hamkorlik tashkiloti doirasida olib borilmoqda.

Hozirda, ikki mamlakat shartnoma-huquq bazasini 62 ta davlatlar, hukumatlar va idoralararo hujjatlar tashkil etadi.

Hozirga qadar O‘zbekiston va Misr savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyasining oltita yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi Misr Arab Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Hamkorlikni rivojlantirish agentligi bilan yaqindan ishlab kelmoqda. 1993-yildan bugungi kunga qadar mazkur muassasa tomonidan tashkil etilgan diplomatik, sayyohlik, arab tilini o‘rganish va boshqa o‘quv kurslarida mingdan ziyod mamlakatimiz vakillari ishtirok etdilar.

Ijtimoiy-madaniy sohada ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1997-yilda “O‘zbekiston-Misr”, 2000-yilda esa “Misr-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyatlariga asos solingan va hozirda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar.

2018-yilning 10-13-oktabr kunlari Misr Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi shayxi Ahmad at-Tayyibning O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi.

O‘ZBEKISTON-ISROIL MUNOSABATLARI

Isroil Davlati O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 25-dekabrda tan oldi. 1992-yil 21-fevralda ikki tomonlama diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

1998-yil 14-16-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Isroilga davlat tashrifini amalga oshirdi.

1994-yil iyulda Isroil Tashqi ishlar vaziri Sh.Peres O‘zbekistonga tashrif buyurdi, 1997-yil aprelda esa O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri A.Komilovning Isroilga javob tashrifi amalga oshirildi.

Tomonlar muntazam ravishda ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarni o‘tkazib boradi. Hozirgi kunga qadar ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 4 ta davrasi o‘tkazilgan. Siyosiy maslahatlashuvlarning oxirgi to‘rtinchi davrasi 2016-yil 30-mart kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan.

O‘zbekiston-Isroil munosabatlarining huquqiy bazasi 19 ta hujjatlardan iborat (14 tasi davlatlararo va hukumatlararo, 5 tasi idoralararo hujjatlar).

Ikki davlat o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarida eng qulay rejim o‘rnatilgan. 2018-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha umumiy savdo aylanmasi \$51.4 mln. (eksport - \$16.1 mln., import - \$35.2 mln.) tashkil etdi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida Isroil sarmoyasi ishtirokida 37 korxonalar va shulardan 7 tasi 100% xorijiy sarmoyasi bilan mavjud. Ushbu korxonalar xorijiy kapital, turizm, ulgurji savdo, oziq-ovqat ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv masalalari bo‘yicha maslahat xizmatlari yo‘nalishida faoliyat yuritib kelmoqda.

2018-yil 10-fevraldan Isroil fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejimi qo‘llanishi munosabati bilan O‘zbekistonga ushbu davlatdan keladigan turistlar soni ikki baravariga oshdi va 10 mingdan ortiqni tashkil etdi.

O‘ZBEKISTON-KUVAYT MUNOSABATLARI

Kuvayt Davlati O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan. Davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1994-yil iyul oyida o‘rnatilgan.

2001-yilda Kuvayt Davlati Toshkent shahrida o‘z elchixonasini ochdi. O‘zbekiston Respublikasining Kuvayt Davlatidagi elchixonasi 2004-yilning noyabr oyidan boshlab faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2004-yilning 19-20-yanvarida Kuvayt Davlatiga uyushtirgan rasmiy tashrifi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga turtki berdi va tashrif chog‘ida yaratilgan huquqiy baza ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga asos soldi.

2008-yilning iyul oyida Kuvayt amiri shayx Sabah al-Ahmad al Jaber as-Sabah O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif amalga oshirdi. Tashrif chog‘ida o‘zbek-kuvayt munosabatlarini mustahkamlashga, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni faollashtirishga qaratilgan bir qator hujjatlar imzolandi.

2017-yil iyun oyida O‘zbekistonda Kuvait Milliy assambleyasi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh tashkil etildi.

2018-yil 4-dekabr kuni al-Kuvayt shahrida O‘zbekiston va Kuvayt Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 2-davrasi o‘tkazildi.

2018-yilning 6-10-sentabr kunlari Shahrisabz shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro maqom san’ati anjumanida Kuvayt madaniyat, san’at va adabiyot milliy kengashi Bosh kotibining o‘rinbosari Badr ad-Duveysh boshchiligidagi hay’at ishtirok etdi.

2018-yilning 25-26-oktabr kunlari Al-Kuvayt shahrida O‘zbekiston yoshlar simfonik orkestrining konsertlari hamda milliy hunarmandchilik ko‘rgazmasi tashkil etildi.

O‘ZBEKISTON-POKISTON MUNOSABATLARI

Pokiston Islom Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 20 dekabrda tan oldi. Ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 10-mayda o‘rnatilgan. Pokistonning Toshkentdagi Elchixonasi 1992-yilning iyun oyida ochildi. O‘zbekistonning Islomoboddagi Elchixonasi 1994-yil iyul oyidan boshlab faoliyat ko‘rsatmoqda.

1992-yil martidan 2001-yil oktabriga qadar Karachi shahrida O‘zbekistonning Bosh konsulxonasi faoliyat yuritdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Pokistonga 1992-yilning avgusti va 2006-yilning may oylarida tashrif buyurdi.

Hozirgi vaqtga qadar ushbu tashriflar bo‘lib o‘tdi; bosh vazir N.Sharif (1992-yil iyun), bosh vazir B.Bhutto (1995-yil may va noyabr), president F.Legari (1996-yil oktabr), president P.Musharraf (2005 yil mart), bosh vazir Sh.Aziz (2007-yil mart), bosh vazir Y.Giloniy (2011-yil mart), bosh vazir N.Sharif (2015-yil noyabr).

2010-yil iyun oyida Pokiston Prezidenti A.Zardari Toshkentda bo‘lib o‘tgan ShHT sammitida ishtirok etdi. 2016-yil iyun oyida Pokiston Prezidenti M.Husayn Toshkentda o‘tkazilgan ShHT sammitida qatnashdi.

2017-yil 8-iyunda Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan ShHT sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Pokiston Bosh vaziri N.Sharif bilan uchrashdi.

2017-yil 17-sentabrda Ostonada o‘tkazilgan islom hamkorlik tashkilotining (IHT) Fan va texnologiyalar bo‘yicha sammitida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Pokiston Prezidenti M.Husayn bilan uchrashuv o‘tkazdi.

2018-yil iyun oyida ShHTning Sindao sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev va Pokiston Prezidenti M.Husaynning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning shartnoma-huquqiy asosini 42 davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar tashkil etib, ular ekstradisiya, jinoiy ishlarda o‘zaro yordam, terrorizmga qarshi kurash, havo qatnovi, yuklarni transit tashish, savdo-iqtisodiy hamkorlik, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-

quvvatlash, ikkiyoqlama soliqqa tortishdan voz kechish, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash va boshqa sohalarni qamrab oladi.

O'zbekiston va Pokiston hukumatlararo savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyasi 1993-yilda tuzilgan bo'lib, uning so'nggi 5-yig'ilishi 2011-yil mart oyida Islomobadda bo'lib o'tgan.

Imzolangan Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro savdoda imtiyozlar berish joriy etilgan.

2018-yil yanvar-noyabr oylarida o'zaro savdo ko'rsankichi 92,4 mln.ga etdi, eksport 28,7 mln., import 63,7 mln.

2017-yil 5 apreldan boshlab "Toshkent-Lahor-Toshkent" yo'nalishi bo'yicha haftasiga ikki parvoz qayta tiklandi.

O'zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokida tuzilgan 81 korxonada ishlab turibdi. Ularning 4 tasi 100 foiz Pokiston sarmoyasi asosida faoliyat yuritmoqda. 23 qo'shma korxonada 2018-yilda tashkil etilgan. Ular asosan savdo, to'qimachilik, qog'oz, charm, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, transport va sayyohlik xizmatlari kabi sohalarda ishlaydi.

O'ZBEKISTON-SAUDIYA ARABISTONI MUNOSABATLARI

Saudiya Arabistoni Podshohligi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan oldi. 1992-yil fevralda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1992-yil aprel oyida Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi.

1992-yil noyabrda Jiddada O'zbekistonning Bosh konsulxonasi, 1995-yil mayda O'zbekistonning Riyozdagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. 1997-yil martdan Toshkentda Saudiya Arabistonining elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2012-yil aprel oyida Saudiya Arabistoni Sho'ro kengashi (parlament) raisi Abdulla Ol ash-Sheyx boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi.

2017-yil 21-may O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol-Saudning taklifiga binoan Saudiya Arabistonida bo'lib, arab-musulmon va Qo'shma Shtatlar sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti bir necha davlat rahbarlari, jumladan, Saudiya Arabistoni Podshohi bilan uchrashdi.

2018-yil 27-mart Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vazirining o'rinbosari A.Mirdad boshchiligidagi delegatsiya Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlik sohasidagi hamkorlik" deb nomlangan Toshkent konferentsiyasida ishtirok etdi.

2018-yil 3-dekabr kuni Riyoz shahrida O'zbekiston va Saudiya Arabistoni Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 3-davrasi o'tkazildi.

2011-yil iyun oyida Toshkent shahrida ikki davlat o'rtasidagi Hukumatlararo qo'shma komissiyaning 3-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish natijalari asosida tegishli protokol hamda investisiyalarni rag'batlantirish to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi.

2018-yil 11-16-dekabr kunlari Saudiya Arabistoni Savdo-sanoat palatalari kengashi rahbari Somi al-Ubaydiy boshchiligidagi delegasiyaning O'zbekistonga tashrifi bo'lib o'tdi.

2019-yil 20-26-yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi J.Akramov boshchiligidagi hay'at Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida Saudiya Arabistoni Podshohligi Haj va Umra ishlari vaziri Salih Bintayn bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'ZBEKISTON-O'MON MUNOSABATLARI

O'mon Sultonligi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1991-yil dekabrda tan olgan. 1992-yil 22-aprelda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

2009-yil oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov davlat tashrifi bilan O'mon Sultonligida bo'ldi. Tashrif chog'ida 19 ta hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi.

2010-yil aprel oyidan Toshkentda O'mon Sultonligining elchixonasi faoliyat yurita boshladi. 2018-yil iyul oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasining Masqat shahridagi elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2014-yilning 6-avgustida Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-O'mon transport yolagini yaratish bo'yicha to'rt tomonlama vazirlar uchrashuvida qatnashdi (Masqat, O'mon). Uchrashuv doirasida Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov O'mon Tashqi ishlarga mas'ul vaziri Yusuf bin Alaviy bilan uchrashdi.

2018-yil 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov va Ummon meros va madaniyat vaziri Haisam ibn Tariq al-Said Ummon tomonining moliyaviy yordami bilan qurilgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yangi binosining ochilish marosimida ishtirok etdi.

4-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining Yevropa ittifoqi va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi














Yevropa ittifoqi (YI) — o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma. Dastlab Yevropa hamjamiyati ("Umumiy bozor") nomi bilan atalgan. YeI to'g'risidagi shartnoma 1992 yil Maastrixt sh.da (Niderlandiya) Yevropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat va hukumat boshliklari imzo chekkan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va

valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to‘g‘risidagi bu shartnoma 1993 yil 1 noyabrdan kuchga kirgan. YeIning maqsadlari: Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo‘lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish; iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyuta yaratish (bu maqsadga 2002 yil yanvarda asosan erishildi); birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo‘li bilan xalqaro sohada o‘ziga xos bir xillikni qaror toptirish; adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish; umumiy boylukni saqlab qolish va ko‘paytirish. YeI organlari: Yevropa mashvarati, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi. Tashkilotga 15 mamlakat (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Olmoniya, Yunoniston, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya) a‘zo (2002 yil yanvar). Qarorgohi Strasbur sh.da (Fransiya). O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida YeI bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Tashkilot TASHIS dasturi doirasida O‘zbekistonga texnikaviy yordam ko‘rsatadi. 1999 yil 1 iyulda O‘zbekiston bilan YeI o‘rtasida Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ratifikatsiya qilindi. Bu bitim siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy aloqalar rivoji uchun imkoniyat tug‘dirdi. Jumladan, tomonlar o‘zaro savdoda bir-birlariga eng qulay sharoit yaratadilar, bir-birlariga tegishli tovarlarni o‘z hududlari orqali erkin tranzit qilishni ta’minlaydilar.^[1]

Yevropa Ittifoqi — [Evropaning 27 davlatidan](#) iborat siyosiy va iqtisodiy birlashmadir. Uning tarixi [1957](#) yilga, 6 Yevropa davlatlari orasida imzolangan [Rim bitimi](#) va undan so‘ng paydo bo‘lgan [Evropa Iqtisodiy Hamkorligiga](#) borib taqaladi. Yevropa Ittifoqi 1992 yilda imzolangan Maastrixt shartnomasiga binoan tuzilgan va 15 davlatni o‘z ichiga olgan. 2005 yilda Ittifoqning birinchi yirik kengayishi yuz berdi. Unda Ittifoqga 10 ta yangi davlatlar qo‘shildi. Ikki yildan so‘ng ular soniga Bulg‘oriston hamda Ruminiya davlatlari qo‘shilib, hozirgi davrga qadar Yevropa Ittifoqi 27 davlatlardan iborat.

A‘zo mamlakatlar

- 1957-yil:  [Belgiya](#),  [Olmoniya](#),  [Fransiya](#),  [Italiya](#),  [Luksemburg](#),  [Niderlandiya](#) — 6 ta
- 1973-yil:  [Daniya](#),  [Irlandiya](#),  [Buyuk Britaniya](#) — 9 ta
- 1981-yil:  [Yunoniston](#) — 10 ta
- 1986-yil:  [Portugaliya](#),  [Ispaniya](#) — 12 ta
- 1995-yil:  [Avstriya](#),  [Finlandiya](#),  [Shvetsiya](#) — 15 ta

- 2004-yil:  [Qibris](#),  [Chexiya](#),  [Estoniya](#),  [Mojariston](#),  [Latviya](#),  [Litva](#),  [Malta](#),  [Polsha](#),  [Slovakiya](#),  [Sloveniya](#) — 25 ta
- 2007-yil:  [Bulg'oriston](#),  [Ruminiya](#) — 27 ta.
- 2013-yil:  [Xorvatiya](#) — 28 ta.

Izoh: Yevropa mintaqasida joylashmagan quyidagi hududlar ham Yevropa Hamjamiyati hududi hisoblanadi: Azor orollari, Gvadelupa (Avliyo Martin va Sen-Bertelmi orollarining shimoliy qismi), Kanar orollari, Madeyra, Martinika, Melilya, Reyunyon, Seuta, Fransuz Gvianasi.

Solnoma

1946-yil 19-sentabr kuni Buyuk Britaniyaning sobiq tashqi ishlar vaziri [Vinston Churchill](#) Syurix universitetida soʻzlagan nutqida AQShga oʻxshagan „Evropa Qoʻshma Shtatlari“ tuzishni taklif etadi.

1949-yilda Yevropa Kengashi tashkil etiladi. Hozirga kelib, bu tashkilotning 46 ta aʼzosi bor.

1957-yil: Yevropa koʻmir va poʻlat birlashmasi (YKPB) ga aʼzo mamlakatlar Yevropa iqtisodiy hamjamiyati yoki „Umumiy bozor“ga asos soluvchi Rim protokollari deb ataluvchi hujjatlarni imzoladilar. Bu hujjatlar 12 yil mobaynida bojxona toʻsiqlarini tugatish, umumiy soliqlarni oʻrnatish va keyinchalik umuman yoʻq qilish, ishchi kuchining erkin harakat qilishini taʼminlash, bir xil ijtimoiy kafolatlar oʻrnatish va yagona ish haqi toʻgʻrisida edi.

1959-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati aʼzolari tomonidan Yevropa parlamenti tashkil etildi.

1967-yilda uchta Yevropa hamjamiyati — Yevropa koʻmir va poʻlat birlashmasi, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energiyasi boʻyicha Yevropa hamjamiyati Yevropa Hamjamiyati boʻlib birlashadi.

1968-yil: Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari oʻrtasida barcha bojxona soliqlari bartaraf etildi.

1979-yilda Yevropa parlamentiga ilk bora toʻgʻridan-toʻgʻri saylovlar boʻlib oʻtdi.

1985-yili Grenlandiya oʻz-oʻzini mustaqil boshqarish huquqini qoʻlga kiritdi va referendum natijasida Yevropa Ittifoqidan ajralib chiqdi.

1986-yilning fevralida Lyuksemburgda yagona Yevropa toʻgʻrisidagi qonun (Single European Act) imzolandi. 1990-yil: Olmoniya Demokratik Respublikasi GFR bilan birlashganligi bois uning hududi ham Ittifoq hududiga kirdi.

1991-yil: Yevropa Hamjamiyatining Maastrixt shahrida (Niderlandiya) yagona Yevropani yaratishni koʻzda tutuvchi Maastrixt bitimlarini imzoladilar. Bu bitimlarda uch guruh shartnomalar — yagona Yevropa valyutasini joriy etish, Yevropa siyosiy Ittifoqini shakllantirish va Yevropa komissiyasini tasdiqlash koʻzda tutildi.

1999-yil dekabr: [Helsinki](#) (Finlyandiya) 15 ta a'zo mamlakatlar rahbarlari inqirozli va tahlikali joylarda tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun o'z Yevropa qurolli kuchlarini yaratish haqida qaror qabul qildi.

2002-yil 1-yanvar: Yagona Yevropa pul birligi — yevro muomalaga kiritildi. Buyuk Britaniya va Daniyadan tashqari qolgan barcha a'zolar o'zlarining milliy valyutalaridan voz kehdilar.

Qiziqarli ma'lumotlar

- Yevroittifoq hech qanday xalqaro tashkilot emas, u xalqaro ommaviy huquqning subekti hisoblanmaydi, lekin xalqaro uchrashuvlarda ishtirok etish vakolatiga ega.
- Yevropa Ittifoqi hududini G'arbiy [Rim imperiyasi](#), Franklar davlati, Muqaddas Rim Imperiyasi kabi qadimgi mamlakatlar hududi bilan solishtirish mumkin.
- [Norvegiya](#) aholisi Yevroittifoqqa qo'shilish bo'yicha ikki marta o'tkazilgan referendumda (1972 va 1994-yillar) ham qarshi bo'lib ovoz berganlar.
- [Daniya](#) mamlakati o'zining milliy valyutasini hamon ishlatadi. Maastrixt bitimini imzolash chog'ida Daniya hukumati bu borada Ittifoqni ogohlantirib qo'ygan edi.
- 265 sahifaga jo bo'lgan 450 moddali va 60000 ta so'zli Yevropa Konstitutsiyasi Kaliforniya Respublikasi Konstitutsiyasidan so'ng ko'p so'zlilik bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi.
- Mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiq Shveysariya neytral mamlakat hisoblanadi va hech qanday bloklarga qo'shilmaydi. Shu bois u Yevropa Hamjamiyatiga a'zo emas.
- Yevropa mintaqasiga kirmaydigan Marokash va Tunis mamlakatlari bir necha karra Yevroittifoqqa kirishga harakat qilganlar. Hatto 2005-yilda [Portugaliya](#) tomonining ko'magi bilan Kabo-Verde o'z arizasini qabul qilinishiga erishgan.
- A'zolik masalasi hanuz hal qilinmagan mamlakatlar: [Turkiya](#), [Ukraina](#), [Gurjiston](#), [Moldaviya](#).
- Yevropa Ittifoqi a'zosi emas: [Islandiya](#), [Shveysariya](#), [Andorra](#), [Vatikan](#), [Lixtenshteyn](#), [Monako](#), [San Marino](#).
- Daniya suvereniteti ostiga kiruvchi [Grenlandiya](#) va Farer orollari, Finlandiyaning Aland orollari muxtoriyati, Buyuk Britaniyaning [Gibraltar](#), Men, Gernsi va Jersi hududlari ham Yevropa Ittifoqi hududiga kirmaydi.
- Berlemon — Yevropa hamjamiyati timsoli.
- 1960-yilda [Bryusselning](#) markazida Berlemon ayollar monastiriga tegishli yer sotib olinadi va bu yerda yetti yil davomida Yevropa hamjamiyatining yangi timsoli quriladi. Loyiha muallifi me'mor [De Veste](#) edi. Bu loyiha o'z

davrining original va takrorlanmas loyihalaridan biri edi. Uni qurishda [asbest](#) moddasi mavjud qurilish materiallari ishlatiladi^{[2][3][4]}. [1991-yili Evrokomissiya](#) bu binoni tark etgach, u 14 yil davomida asbestdan tozalanadi va rekonstruksiya [qilinadi](#)[Andoza:-1](#). Yevrokomissiya bu yerga [2004-yilning](#) oktabrida qaytadi. Bu inshootning umumiy maydoni 240 ming km.kv.dan ortiq bo‘lib, 14 ta qavatdan iborat. U 3 ga hududni egallaydi. Bu yerda ofislardan tashqari majlislar zali, konferens-[zallar](#)[Andoza:-1](#), 760 kishiga mo‘ljallangan restoran, 418 o‘rinli kafe, telestudiya, kinozal, 1223 avtomobil uchun mo‘ljallangan yerosti garajlari borref>[Consilium: Agriculture and Fisheries](#). [Consilium](#). Europa portal. [Asl nusxa](#)dan arxivlandi (2011-08-22

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi

O‘zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O‘zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a‘zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston-Buyuk Britaniya munosabatlarining asosi 1993-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ushbu mamlakatga amalga oshirilgan tashrif chog‘ida yaratilgan.

Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Mamlakatlar o‘rtasida muntazam ravishda turli darajadagi tashriflar amalga oshirilmoqda. Oxirgi bir necha yil davomida O‘zbekistonga Britaniyaning 50 dan ziyod delegatsiyalari tashrif buyurgan. Tomonlar tashqi siyosiy idoralar o‘rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg‘oniston bo‘yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov rahbarligidagi delegasiyaning 2013-yil 20-22-noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan tashrifi davlatlararo aloqalarni faollashtirishdagi muhim voqea bo‘ldi.

Parlamentlararo hamkorlik o‘zaro aloqalarning istiqbolli yo‘nalishlaridan sanaladi. Ikki davlat parlamentlarida o‘zaro hamkorlik bo‘yich guruhlar mavjud bo‘lib, 2010-yil 22-sentabrda imzolangan Oliy Majlis guruhi bilan “Britaniya-O‘zbekiston” Umumpartiya parlament guruhi o‘rtasida imzolangan Anglashuv memorandumi ular faoliyatining huquqiy asosini yaratib bergan.

O‘zbekiston-Britaniya Savdo va sanoat kengashi savdo-iqtisodiy munosabatlarning samarali mexanizmi bo‘lib, uning 23-majlisi Toshkentda 2016-yil 16-18-noyabr kunlari bo‘lib o‘tdi.

2016-yilning oktabrida, 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida Oliy Majlis Senati raisining Birinchi o‘rinbosari S.Safoev London shahriga tashrif buyurdi. Tashriflar doirasida, jumladan rivojlanishga va respublikaning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan brifinglar, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, TIV, Buyuk-Britaniya Parlamenti va Britaniyaning bir qator yirik kompaniyalari hamda ilmiy doiralari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

2017-yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston bilan Buyuk Britaniya o‘rtasidagi savdo aylanmasi 115,9 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan eksport 33,5 million AQSh dollari, import 82,4 million dollarga teng bo‘ldi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda, jumladan ta‘lim sohasida. Toshkentda 2002-yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

Germaniya bilan ikki tomonlama aloqalar an‘anaviy keng ko‘lamli xarakterga ega bo‘lib, turli jabhalarini qamrab olgan. Hamkorlikning salmoqli shartnoma-huquqiy bazasi yaratilgan.

Ikki mamlakat o‘rtasida turli, jumladan oliy darajadagi siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy tashriflari (1993-, 1995- va 2001-yillar), Germaniya Prezidenti R.Gerzogning O‘zbekistonga davlat tashrifi (1995yil) va Kantsleri G.Shryoderning rasmiy tashrifi (2002-yil) amalga oshirilgan. Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 14 ta doirasi o‘tkazilgan. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohalarida hamda mudofaa vazirliklari yo‘nalishida hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Germaniya O‘zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2017-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zbek-german savdo aylanmasi hajmi 613,2 million AQSh dollari, 2018-yil yanvar-noyabr davrida 712,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi moliyaviy va texnikaviy hamkorlikning umumiy hajmi 329,9 million yevrodan oshgan.

O‘zbekistonda nemis madaniyati va tilini o‘rganishga katta qiziqish mavjud. Nemis tili respublikada eng ko‘p tarqalgan chet tillari orasida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi paytda oliy ta‘lim sohasida Germaniyaning 30 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari bilan sheriklik aloqalari o‘rnatilgan bo‘lib, talabalar, mutaxassislar va pedagog kadrlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Ikki tomonlama madaniy-gumanitar munosabatlarni rivojlantirishda Toshkent va Berlin, Samarqand va Bremen, Buxoro va Bonn shaharlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning Yevropadagi va umuman xalqaro miqyosdagi istiqbolli hamda umidli sheriklaridan biri hisoblangan **Ispaniya** bilan munosabatlari jadal

rivojlanmoqda. 2003-yil yanvar va 2009-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Ispaniyaga tashriflari bo‘lib o‘tdi.

Ispaniya Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio taklifiga ko‘ra, 2013-yilning 4-7-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi delegatsiya Ispaniyaga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Tashqi ishlar vazirliklari siyosiy maslahatlashuvlari o‘tkazildi. Ispaniyaning Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio 2014-yil 20-22-aprelda O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2017-yil 12-15 noyabrda Ispaniyaga O‘R Tashqi ishlar vazirining javob tashrifi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti qoshida ispan tili fakulteti faoliyat yuritmoqda. Mazkur universitetning Madrid, Granada, Alcala de Enares va Malagi universitetlari bilan hamkorlik aloqalari jadal rivojlanmoqda.

O‘zbekiston **Italiyani** Yevropadagi uzoq muddatli va istiqbolli hamkori sifatida ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1996-yil iyun va 2000-yil noyabr oylarida Italiyaga bo‘lgan rasmiy tashriflari o‘zbek-italiya aloqalariga zamin yaratdi. 1997-yil may oyida Italiya Prezidenti O.Skalfaronining O‘zbekistonga javob tashrifi uyushtirildi.

Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida doimiy muloqot olib borilmoqda. 2015-yil noyabr oyida Toshkentda Tashqi ishlar vazirlari darajasida siyosiy maslahatlashuvlarning to‘rtinchi doirasi bo‘lib o‘tdi.

2011-yildan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida “O‘zbekiston-Italiya” parlamentlararo hamkorlik guruhi, Italiya parlamentining Deputatlar palatasida esa “Italiya-O‘zbekiston” do‘stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

2012-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Italiya parlamentining Deputatlar palatasi o‘rtasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

2009-yildan boshlab Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti faoliyat yuritib kelmoqda.

2013-yil yanvar oyida Samarqand shahri hokimiyati va Florensiya provinsiyasi ma‘muriyati o‘trasida Do‘stlik va hamkorlik shartnomasi imzolangan.

Fransiya O‘zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiyaga davlat va rasmiy tashriflari (1993 va 1996-yillar) hamda Fransiya Respublikasi Prezidenti F.Mitteranning O‘zbekistonga davlat tashrifi (1994-yil) bo‘lib o‘tgan. 1996-yil iyun oyida Florensiya shahrida o‘tkazilgan Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari sammiti va 2002-yil noyabr oyida Praga shahrida bo‘lib o‘tgan

NATO/EAHK sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya Prezidenti J.Shirak bilan uchrashuvlari ham o‘tkazilgan.

Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda Fransiya Tashqi ishlar vazirlari L.Fabiusning 2013-yil mart oyida va J.-M.Eroning 2017-yil aprel oyida O‘zbekistonga amalga oshirilgan tashriflari hamda 2012-yil oktabr, 2014-yil noyabr va 2017-yil mart oylarida o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilovning Fransiya tashriflari muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi 10 ta siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tgan. Oxirgisi 2017-yilning aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazildi.

2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida parlamentlararo hamkorlik guruhi tuzildi, 2010-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasida «O‘zbekiston – Fransiya» do‘stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

Fransiya Senatida «Fransiya – Markaziy Osiyo» parlamentlararo guruhi, Milliy assambleyasida «Fransiya – Markaziy Osiyo» do‘stlik guruhlari faoliyat yuritmoqda.

2008-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) hamda Fransiyaning inson huquqlari himoyachisi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi.

Fransiya O‘zbekistonning Yevropadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2017-yil yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 251,6 mln. AQSh doll. tashkil etdi.

Fransiyada Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish Assosiasiyasi hamda «Avisenna – Fransiya» Assosiasiyasi faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekistonning bir qancha yetakchi universitetlari hamda Fransiyaning oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida hamkorlik bitimlari va protokollari imzolangan.

Turkiya O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 16 dekabrda tan olgan. Diplomatik aloqalar 1992 yil 4 martda o‘rnatilib, shu yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan Anqarada O‘zbekiston elchixonasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 4 marotaba Turkiyaga tashrif buyurgan (1991, 1994, 1997 va 1998 yy.).

2017 yil 25-26 oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Turkiya Respublikasiga davlat tashrifi amalga oshirildi.

Turkiya prezidentlari T.Ozal (1993y.), S.Demirel (1996y., 1996y., 1999y.), N.Sezer (2000y.) R.Erdog‘an (2016y.), bosh vazirlari S.Demirel (1992y.), T.Chiller (1995y.), M.Yilmaz (1998y.) va R.Erdog‘an (2003y.) O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan.

O‘zbekistonga Turkiya Tashqi ishlar vazirlari X.Chetin (1994y.), I.Jem (2000-2001yy.), A.Davutoglu (2014y.), M.Chavushog‘lu (2017 va 2018yy.),

Turkiyaga O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri (2003y.) tashrif buyurgan. 2014 yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Komilov Anqara shahrida o‘tkazilgan Turkiya Prezidenti R.T.Erdog‘anning inauguratsiya marosimida ishtirok etdi.

O‘zbekiston va Turkiya tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 9 ta raundi o‘tkazilgan (oxirgisi 2018 yil 20 martda Anqara shahrida).

2017 yil 14 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhi tuzildi. Uning rahbari Oliy Majlis Senati raisining birinchi o‘rinbosari S.Safiev hisoblanadi.

Turkiya O‘zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi (Rossiya, Xitoy va Qozog‘istondan keyin 4-o‘rinda).2017-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zbek-turk savdo aylanmasi hajmi 1,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

5-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorligi

O‘ZBEKISTON — JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARI

Koreya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan, 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatdi.

Ushbu davr mobaynida Respublika rahbariyati tomonidan o‘n to‘rt marotaba (1992, 1994, 1995, 1999, 2005, 2006, 2 marta 2008-yilda, 2009, 2010, 2011, 2012, 2014, 2015 va 2017-yillarda) Koreya Respublikasi rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

2006-yilda Strategik sheriklik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyasi imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 22-25 noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi natijalari bo‘yicha Strategik hamkorlikni hartomonlama kengaytirish to‘g‘risida qo‘shma bayonoti qabul qilindi, davlatlararo, hukumatlararo va idoralalararo darajadagi 20 dan ziyod kelishuvlar hamda qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo‘lgan savdo-iqtisodiy, moliyaviy-texnikaviy va boshqa sohalarida jami 64 hujjatlar imzolandi. Ulardan 4 milliard dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri koreys investitsiyalari.

Ikki davlat ortasida parlamentlararo almashuv muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. 1995-yilda KR Milliy Assambleyasida “Koreya-O‘zbekiston” do‘stlik Assotsiatsiyasi tuzildi. 2005-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Koreya bilan hamkorlik bo‘yicha maxsus guruh ta’sis etildi.

2017-yilning sentabrida Koreya Respublikasining Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyunning O‘zbekistonga 2018-yilning fevralida esa O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri N.Ismoilovning Koreya Respublikasiga tashriflari amalga oshirildi.

1995-yildan buyon davlatlar tashqi ishlar mahkamalari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslaxatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda va ularning o'n ikkinchi doirasi 2016-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

1992-yildagi Savdo bitimiga asosan eng yuqori osonlashtirilgan savdo tartibi joriy etilgan. Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi savdo sheriklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi.

O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, 2017-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 1 360,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, ulardan eksport 119,8 mln. AQSh doll., import – 1 240,3 mln. AQSh doll. tashkil qildi.

Janubiy Koreya tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 7 mlrd. AQSh doll.dan oshgan.

1994-yildan buyon savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'shma Hukumatlararo qo'mita faoliyat yuritadi. Hukumatlararo qo'mitaning sakkizinchi yig'ilishi 2016-yil Seul shahrida bo'lib o'tdi.

Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonasi tashkil etilishi Janubiy Koreya ishbilarmon doiralarining faol ishtirokida amalga oshirildi.

1992-yildan beri Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat olib bormoqda va tanlov asosida Koreyada til o'rganish bo'yicha amaliyotlarni, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari uchun malaka oshirish kurslarini o'tkazib kelmoqda.

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Samarqand Davlat jahon tillari institutida koreys tili va madaniyati hamda kompyuter markazlari ish olib bormoqda.

Respublika bo'yicha jami 13 oliy o'quv yurtida, 28 maktab, litsey va kollejlarda koreys tili o'rgatiladi.

1999 yildan "O'zbekiston-Koreya" do'stlik jamiyati ish olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi almanishuvni faollashtirish, qo'shma ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston oily o'quv yurtlari Janubiy Koreyaning 30 dan ortiq universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

2014-yil 1 oktabrda Toshkent shahrida kompyuter, dasturiy injiniring va logistika sohalarida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan Janubiy Koreyaning "Inha" universiteti filiali ochildi.

Munisipal darajada yaqin aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ushbu doirada Toshkent va Seul, Farg'ona va Yongin, Namangan va Songnam, Samarqand va Kyongju, Toshkent viloyati va Kyonsan-Pukto hamkorlik kelishuvlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan Janubiy Koreyaning O'zbekistondagi sobiq elchilari Choy Yong Ha (1999), Mun Hayong (2007) va

Chon De Van (2013), “Korea-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati raisi Kim Yun Sik (2005) Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi sobiq spikeri Li Man Sop (2006), “Korea post” jurnali prezidenti-noshiri Li Kyong Sik (2009), Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi deputati Kim Yong Gu, “Korean Air” kompaniyasi raisi Cho Yang Ho va Koreya savdo-sanoat palatasi raisi Song Kyung Shik (2011) “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

O‘ZBEKISTON-XITOIY MUNOSABATLARI

Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, do‘stona va o‘zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan o‘zaro ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqinligi muhim o‘rin egallaydi.

Doimiy tarzda ikki davlat rahbarlarining tashriflari va uchrashuvlari o‘tkazilib kelinmoqda. 1992-, 1994-, 1999-, 2005-, 2011-, 2012- va 2014-yillari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoyga tashrif qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2001- va 2006-yillarda Shanxay shahriga hamda 2012-yil Pekin shahriga ShHT sammitlarida ishtirok etish uchun, shuningdek 2008-yil Pekin shaharlariga 29-yozgi Olimpiya o‘yinlari ochilish marosimida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan.

Javob tashriflari sifatida Xitoy Xalq Respublikasi raislaridan Szyan Szemin (1996-yil), Xu Szintao (2004-yil, 2010-yil), Si Szinpin (2013-yil, 2016-yil) O‘zbekistonga tashrif buyurishgan.

2017-yil 11-13-may kunlari Xitoyga amalga oshirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning uchrashuv va muzokaralarga boy rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarda muhim tarixiy bosqich bo‘lib xizmat qildi. Tashrif chog‘ida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin, XXR Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Kesyan, Butunxitoy xalq vakillari kengashining Doimiy qo‘mitasi raisi – Chjan Deszyan va Xitoyning yuksak texnologiyalar sohasida etakchi korxonalar rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazildi.

2004-2017-yillar oralig‘ida Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning 15 ta davrasi va ShHT doirasida hamkorlik bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazildi.

O‘zbekiston Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, keng savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni

kengaytirishni o‘zaro manfaatdorlik va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘radi.

1992-yil imzolangan Savdo-iqtisodiy bitimga ko‘ra ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko‘p qulaylik yaratish tartibi o‘rnatilgan. Xitoy O‘zbekistonning savdo sheriklari orasida eng yuqori o‘rinlardan birini egallaydi.

2017-yil yakunlariga bo‘yicha ikki tomonlama tovar ayirboshlash \$5 mlrd. yetgan bo‘lsa, shundan \$2,2 mlrd. eksportni va \$2,8 mlrd.ni import tashkil etgan.

Ikki tomonlama sarmoyaviy sheriklik 2010-yil imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va XXR Hukumatlari o‘rtasida noxomashyo va yuqori texnologiyalar sohasidagi hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Bugun O‘zbekiston va Xitoy turli loyihalar, avvalambor, yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni hayotga tatbiq etish borasidagi hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Shu jumladan O‘zbekiston 2011-yilda XXR rahbariyati tomonidan ilgari surilgan Xitoy kompaniyalari ishtirokidagi O‘zbekiston – Xitoy yuqori texnologiyalar sanoat parkini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusini qo‘llab-quvvatladi.

Bir qator Xitoy kompaniyalari respublikamiz hududida uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston «O‘zbekiston-Xitoy» gaz quvuri va «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temir yo‘li qurilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Respublikamizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 786 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning 95 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Mamlakatimizda Xitoyning 73 kompaniyasi vakolatxonalari ishlab turibdi.

Ta‘lim sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda, idoralararo aloqalar doirasida talaba va amaliyotchilar almashinuvi keng yo‘lga qo‘yilgan.

2005-yil may oyidan Toshkentda xitoy tili va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha Konfutsiy instituti faoliyat yuritib kelmoqda va hozirgi kunga kelib dargohda 350 dan ziyod tinglovchilar, talabalar, savdogarlar va ilmiy ishchilar tahsil olishmoqda. Institut tashkil qilinganidan beri 2,5 mingdan ortiq kishi o‘quv kurslaridan o‘tdi.

2013-yil sentabr oyidagi XXR raisi Si Szinpinning O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida Samarqand shahrida yana bitta Konfutsiy institutini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim imzolandi.

Ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va ShHT doirasida XXR hukumati 2014-2015-o‘quv yilida o‘zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o‘zbekistonlik 50 yaqin talaba tahsil olmoqda.

2012-2013-o‘quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o‘zbek tili o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi.

2013-yil 15-may kuni Shanxay shahrida Xitoyda birinchi marta Shanxay universiteti huzuridagi ShHT xalq diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida “O‘zbekiston tadqiqotlari va ta’lim almashuvlari markazi” ochildi.

2013-yil noyabr oyida tomonlar o‘rtasida 2014-2017-yillarga mo‘ljallangan madaniy hamkorlikka oid dastur qabul qilindi.

Ikki tomonlama madaniy munosabatlarni mustahkamlashda 1998-yil tashkil qilingan “O‘zbekiston – Xitoy” va 2007-yil o‘z faoliyatini boshlagan “Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari” do‘stlik jamiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

13 mart 2017-yil Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 25-yilligini nishonlash arafasida Shanxay universitetida Alisher Navoiy haykalining ochilishi boldi.

Ikki davlat o‘rtasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida Toshkent –Shanxay , Navoi – Chjuchjou (Xunan provinsiyasi), Samarqand-Sian (Shensi provinsiyasi) Buxoro – Loyan (Henan provinsiyasi) shaharlari, Toshkent – Xunan, Samarqand va Shensi viloyatlari o‘rtasida birodarlik munosabatlari o‘rnatilgan.

O‘ZBEKISTON – YaPONIYA MUNOSABATLARI

Siyosiy soha. 1991-yil 28-dekabrda Yaponiya O‘zbekistonning mustaqilligini tan oldi. 1992-yil-26 yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 3 marotaba – 1994, 2002 va 2011 yillarda Yaponiyaga tashrif buyurdi. O‘zbekistonga javob tashriflari 2006 yilning avgust oyida Yaponiya bosh vaziri J.Koidzumi va 2015-yil oktabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abe tomonidan amalga oshirildi. 2010 va 2014-yillarning mayida Yaponiya bosh vaziri o‘rinbosarlari, moliya vazirlari N.Kan va T.Aso O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

1994 yil 17 mayda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasidagi qo‘shma bayonot, 2002 yil 29 iyulda O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasida do‘stlik, strategik sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot va 2015-yil 25 oktabrda O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida strategik sherikchilikni chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot o‘zaro hamkorlikning huquqiy asosini ta’minlovchi hujjatlar bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yil 8-10 fevralda Yaponiyaga rasmiy tashrifi davomida 22 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

2015-yil 24-26 oktabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abening O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi doirasida qo‘shma bayonot, tashqi siyosiy muassasalar o‘rtasida hamkorlik dasturi, shu bilan birgalikda, 8,5 milliard dollardan ortiq qiymatdagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, va moliyaviy sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha 21 ta hujjat imzolandi.

«Yaponiya parlamentining O‘zbekiston bilan do‘stlik ligasi» va «Yaponiya demokratik partiyasi - O‘zbekiston» parlamentlararo do‘stlik ligalarining turli forumlar o‘tkazishi orqali parlament aloqalari rivojlanib bormoqda.

2002 yildan boshlab ikki davlatning tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazib kelinmoqda. 2017-yil martda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi uchrashuvi Tokio shahrida o‘tkazildi.

Mintaqa bilan hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida 2004 yilda Tokio tashabbusi bilan tashkil etilgan «Markaziy Osiyo+Yaponiya» Dialogi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. 2010 yil 7 avgustda Toshkentda Dialog doirasida tashqi ishlar vazirlarining 3-kengashi o‘tkazildi. Unda Yaponiya tashqi ishlar vaziri K.Okada ishtirok etdi. 2017-yil 1 mayda Ashxobot shahrida Dialog doirasida bo‘lib o‘tgan tashqi ishlar vazirlarining 6-kengashida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi.

1994 yilda tashkil qilingan O‘zbek-Yapon va Yapon-O‘zbek iqtisodiy hamkorlik qo‘mitalari savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. Ushbu qo‘mitalarning 12-qo‘shma yig‘ilishi 2017-yil aprelda Toshkent shahrida o‘tkazildi.

2008 yil avgustda «Investitsiyalarni erkinlashtirish, himoya qilish va rag‘batlantirish» to‘g‘risida Hukumatlararo shartnoma imzolanib 2009 yil 24 sentabrda kuchga kirdi.

O‘zbekistonda 10 ta qo‘shma korxonalar mavjud bo‘lib, shundan bittasi 100 foiz yapon sarmoyasi ishtirokida tuzilgan. 13 ta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tgan.

2017-yil yanvar-oktabr oralig‘ida o‘zaro tovar aylanmasi 138,5 million dollarni tashkil qildi.

Yaponiyaning O‘zbekistonga ko‘rsatgan moliya-texnikaviy yordami 4,1 milliard dollardan oshdi. Ushbu yordam tufayli O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, maorif, energetika, transport, telekommunikatsiya va boshqa sohalarda qator ijtimoiy ahamiyatli va infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

1999 yildan boshlab O‘zbekistonda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) ning mintaqaviy vakolatxonalari, hamda O‘zbek-Yapon markazi faoliyat olib bormoqda.

“O‘zavtosanoat” AK va Yaponiyaning “Isuzu” kompaniyasi o‘rtasidagi hamkorlikni samarali namuna sifatida keltirish mumkin. “Isuzu” agregatlari asosida 10 mingga yaqin avtobuslar va 11 mingdan ortiq yuk mashinalari ishlab chiqarildi. Tabiiy gazda ishlaydigan yuk mashinalarining yangi modellarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

Ushbu sohadagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. O‘zbekistonning janubiy hududida ilk buddizm yodgorliklarini o‘rganishda taniqli yapon olimi, arxeolog

K.Kato katta hissa qo'shdi. O'zaro aloqalarni yanada rivojlantirishga qo'shgan hissalarini uchun K.Kato O'zbekiston Bank-moliyaviy akademiyasi sobiq birinchi prorektori T.Kitamura va Vaseda universitetining rektori T.Okushima «Do'stlik» ordenlari bilan taqdirlandilar.

2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovga Vaseda va Soka universitetlarining «Faxriy doktori» unvoni berildi. 2004 yilda Tokiodagi Soka universiteti hududida buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatildi.

2000 yildan buyon Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi (JICE) ning Toshkentdagi ofisi bilan hamkorlikda inson resurslarini rivojlantirish loyihasi asosida 300 dan ziyod odam Yaponida ta'lim oldi.

O'zbekistonning 2000 dan ziyod mutaxassisi JICA yo'nalishi orqali Yaponiyada amaliyot o'tadi. O'zbek-Yapon markazi kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shmoqda. Ushbu markazga 700 mingdan ortiq kishi tashrif buyurdi.

1999 yilda «O'zbekiston-Yaponiya» do'stlik jamiyatiga asos solindi. Uning asosiy hamkorlari «Yaponiya-O'zbekiston» do'stlik jamiyati va «Fukushima-O'zbekiston» madaniy-iqtisodiy hamkorlik uyushmasi hisoblanadi. 2002 yili «Ikko Xirayama madaniyat karvonsaroyi» nomli o'zbek-yapon ilmiy-ijodiy markazi ochildi.

2017-yil 2-5 avgustda Yaponiya Bosh Vaziri rafiqasi Akie Abe boshchiligida madaniyat va san'at namoyondalaridan iborat delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. Tashrif doirasida Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrida «Dram TAO» ijodiy jamoasi konserti o'tkazildi.

O'ZBEKISTON-AVSTRALIYA MUNOSABATLARI

O'zbekiston Respublikasi va Avstraliya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1991-yil 26-dekabrda o'rnatilgan.

Birinchi rasmiy aloqalar 1991-yil 17-18- noyabrda Avstraliya Tashqi ishlar va savdo vaziri G.Evansning O'zbekistonga tashrifidan boshlangan.

2017-yil 2-martida Avstraliyaning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi (qarorgohi Moskva shahrida) P.Martin Tesh O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vaziri A.Kamilovga ishonch yorlig'i nusxasini topshirdi.

Tomonlarning o'zaro munosabatlarni jadallashtirishida ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta turtki bo'lmoqda. Ularning so'nggisi, 2012-yilning aprelida Toshkentda o'tkazildi. (2009-yil 30-mart, Kanberra).

2016-yilda Tomonlar Diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilganligi 25 yilligi munosabati bilan tabrik xatlari almashishdi.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$1620,2 mingni tashkil qilgan.

O‘zbekistonda Avstraliyalik investorlar ishtirokida 6ta korxonalar faoliyat ko‘rsatayapti. Shulardan 3 qo‘shma korxonalar va 3 tasi 100% xorijiy sarmoya ishtirokida faoliyat yuritmoqda.

O‘ZBEKISTON-VETNAM MUNOSABATLARI

Vetnam Sotsialistik Respublikasi (VSR) O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan oldi, 1992-yil 17-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1993-yil Toshkentda Vetnam elchixonasi ochildi, 2009-yildan buyon Xanoyda O‘zbekiston Respublikasining faxriy konsulxonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

1996-yil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Vetnamda bo‘ldi. Tashrif davomida davlatlararo munosabatlar asoslari, hamkorlik to‘g‘risida Kelishuv va hukumatlararo bitimlar imzolandi.

2010-yilda O‘zbekistonning Indoneziyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi O‘zbekiston Respublikasining VSRdagi elchisi etib tayinlangan (qarorgohi Jakarta shahrida).

2011-yil oktabr oyida Vetnam Bosh vaziri Nguen Tang Zungning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi.

Vetnam bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonga VSR Xalq yig‘ini raisi o‘rinbosari Uong Tu Liuning (2008-yil iyul), VSR Bosh vaziri o‘rinbosari Xoang Chung Xayning (2010-yil aprel), Jamoat xavfsizligi vaziri Le Xong Anning (2010-yil sentabr), Xanoy shahri Xalq kengashi raisi Ngo Txi Zoan Txanning (2012-yil avgust), Bosh prokuror o‘rinbosari Chan Kong Fanning (2012-yil dekabr), Adliya vaziri o‘rinbosari Din Chung Tungning (2013-yil iyun), Oliy xalq sudi raisi Chiong Xoa Binning (2014-yil iyun) tashriflari tashkillashtirildi.

2013-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi delegatsiyasining Vetnamga tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2014-yilning mart oyida Xanoy shahrida O‘zbekiston va Vetnam Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlarning to‘rtinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston va Vetnam o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaning 6ta yig‘ilishi o‘tkazilgan. Shularning eng oxirgisi 2013-yil dekabr oyida Xanoy shahrida bo‘lib o‘tdi.

2017-yil fevralida bosh vazir o‘rinbosari – qishloq xo‘jaligi va suv ho‘jaligi vaziri boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi hukumat delegatsiyasi Vetnamga tashrif buyurdi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$33,8 mln.ni tashkil qilgan. O‘zbekistonda hozirgi kunda Vetnam sarmoyasi ishtirokida 19 ta korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardan 3 tasi 100 foiz Vetnam sarmoyasi asosida tashkil etilgan.

Madaniy va gumanitar sohadagi hamkorlik doirasida imzolangan kelishuvlar amaliyoti yuzasidan 1995-yilning dekabridan boshlab “O‘zbekiston – Vetnam” va “Vetnam – O‘zbekiston” Do‘stlik jamiyatlari faoliyat olib borishmoqda.

2012- yil sentabrda O‘zbekistonda Vetnam madaniyati kunlari o‘tkazildi.

2012-yil dekabrda Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida Vetnam tili va madaniyati markazi ochildi.

O‘ZBEKISTON-INDONEZIYA MUNOSABATLARI

Indoneziya 1991-yil 28-dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi, va 1992-yil 23-iyunda diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

Indoneziya o‘zining Toshkentdagi elchixonasini 1994-yil may oyida ochdi. 1996-yilning dekabr oyidan e‘tiboran Jakarta shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

1992-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Indoneziyaga davlat tashrifi amalga oshirildi, 1995-yil aprel oyida Indoneziya Respublikasi Prezidenti X.M.Suxarto O‘zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi.

2005-yil dekabr oyida Toshkentda “O‘zbekiston va Indoneziya Tashqi ishlari vazirliklari o‘rtasida ikki tomonlama maslahatlashuv bo‘yicha qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida o‘zaro Anglashuv Memorandumi” imzolandi hamda siyosiy maslahatlashuvning birinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kunga qadar uning 6 davra uchrashuvlari o‘tkazilgan. (oxirgisi 2014-yil martda Jakartada bo‘lib o‘tdi.)

Parlamentlararo aloqa turli darajadagi tashriflar almashinuvi orqali izchil tarzda rivojlanib bormoqda. Shu jumladan 2007-yilda Indoneziya Xalq Vakillari palatasi Spikeri Agung Laksono O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2008-yilda esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri muovini Indoneziyaga safar uyushtirdi.

2013-yilda Indoneziya Xalq Vakillari palatasi Parlamentlararo hamkorlik qo‘mitasi Raisi S.Hidoyat O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2015-yil aprel va may oylarida Indoneziya Respublikasi Milliy Konsultativ kongresi raisining o‘rinbosari Mahyudin hamda Indoneziya Respublikasi Mintaqalar vakillari kengashi Parlament yuqori palatasi raisi Irman Gusmanning O‘zbekistonga tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2017-yil 20-25 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Z.T.Mirzaev boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Indoneziyaga tashrifni amalga oshirdi. Muzokaralar davomida ikki davlat o‘rtasida baliqchilik,

acchiq qalampir etishtirish va uning eksporti masalalarida kelishuvlarga erishilindi. Jumladan, tashrif davomida Indonesia Respublikasi Prezidenti J.Vidodo bilan uchrashev tashkil etildi.

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$35,6 mln.ni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda Indoneziya kapitali ishirokida 4 ta korxonona faoliyat olib bormoqda.

Mamlakat xalqlari o‘rtasida do‘stlik rishtalari, hamkorlik aloqalari, hamda madaniy va ma’rifiy sohadagi munosabatlarni rivojlantirish maqsadida 2002-yil sentabr oyida “O‘zbekiston-Indoneziya” do‘stlik jamiyati ta’sis etildi.

1997-yil sentabr oyida Samarqand va Banda-Achex shaharlari o‘rtasida birodarlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadida bayonnoma imzolandi.

2001-yildan e’tiboran Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshida indoneziya tilini o‘rgatish bo‘yicha markaz faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu markazda har yili 20 dan ortiq talabalar tahsil oladi. Samarqand Davlat chet tillar institutida indoneziya tili va madaniyati sinfi tashkil etilib, unda indoneziya tili dars sifatida o‘tilmoqda.

2013-yilda Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutida qoshida Indoneziya tili markazi ochildi.

O‘ZBEKISTON-MALAYZIYA MUNOSABATLARI

Malayziya O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yil 1-yanvar kuni tan olgan. Ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 21-fevralda o‘rnatilgan.

Ikki tomonlama do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishda tamal toshi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yilgi va Malayziya Bosh vaziri Moxatxir Moxammadning 1993-yilgi rasmiy tashriflari chogida qo‘yildi. 2003-yil esa O‘zbekistonga Malayziya qiroli Tuanku Sayyod Sirajuddin Jamalullayl tashrif buyurdi.

Ikki tomonlama munosabatlardagi so‘nggi muhim yangiliklar sifatida O‘zbekiston davlat Rahbarining 2005-yil oktabr oyidagi Malayziyaga va unga javoban 2008-yil noyabrda ushbu davlat Bosh vaziri Ahmad Badavining O‘zbekistonga davlat tashriflari qayd etildi va bu tadbirlar chog‘ida o‘zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarida bir necha hukumatlararo shartnomalar imzolangan.

2010-yilning aprelida esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri D.Tashmuhamedovanning Malayziyaga javob safari uyushtirildi.

Tomonlarning o‘zaro munosabatlarni jadallashtirishda ikki davlat tashqi siyosiy faoliyat idoralari o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta

turtki bo‘lmoqda. Ularning so‘nggisi 2012-yilning noyabrida Toshkentda o‘tkazilgan.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma‘lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$64,8 mln.ni tashkil qilgan (eksport-\$4,2 mln., import-\$60,6 mln.).

Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda 2005-yilda tashkil qilingan o‘zbek-malayziya savdo qo‘mitasi katta rol o‘ynamoqda. Qo‘mitaning ikkinchi yig‘ilishi 2009-yilning 20-oktabrida Toshkentda o‘tkazildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda Malayziya investitsiyasi ishtirokida 14 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ulardan beshtasi iqtisod, neft-gaz sohasi, to‘qimachilik, mebel, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish, moliya xizmatlarini taqdim etish va boshqa yo‘nalishlarda 100% Malayziya kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Malayziya texnik hamkorlik dasturi (MTHD) doirasida tashkil etilayotgan qisqa muddatli o‘quv kurslarida respublika vazirlik va tashkilotlari vakillari doimiy tarzda ishtirok etib kelishmoqda. 2016-yilning mart oyiga qadar bo‘lgan davr oralig‘ida 557 nafar o‘zbek mutaxassislari MTHD seminarlarda ta‘lim olishdi.

Ikki davlat ilm-fan va madaniyat jamoatchiligi o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida 1998-yil Toshkentda “O‘zbekiston-Malayziya” Do‘stlik jamiyati tashkil etildi.

2015-yil 23-27-aprel kunlari, madaniyat va turizm sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish doirasida Malayziya Madaniyat va turizm vaziri Dato Seri Mohammed Nazri bin Abdul Aziz O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

O‘ZBEKISTON-SINGAPUR MUNOSABATLARI

Singapur Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yilda tan olgan va 1997-yil 8-aprelda diplomatik aloqa o‘rnatgan.

2007-yildan Singapurda O‘zbekiston Respublikasi Elchixonasi faoliyat olib bormoqda. 2011-yildan boshlab Singapurning O‘zbekistondagi elchisi Zulkifli bin Baharuddin hisoblanadi.

Ikki tomonlama do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda tamal toshi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 24-26-yanvar kunlari Singapurga qilgan davlat tashrifi chog‘ida qo‘yildi.

Tomonlarning o‘zaro munosabatlarni jadallashtirishda ikki davlat tashqi siyosiy faoliyat idoralari o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta turtki bo‘lmoqda. Ularning so‘nggisi, 2012-yilning aprelida Singapur Tashqi ishlar Davlat vaziri Masagos Zulkiflining O‘zbekistonga tashrifi davomida o‘tkazildi.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotga ko‘ra, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$66,4 mln.ni tashkil qilgan (eksport – \$56,1 mln., import – \$10,3 mln.).

O‘zbekistonda 32 ta Singapur sarmoyasi ishtirokida qo‘shma korxonalar elektrotexnika, tekstil, oziq-ovqat, ta’lim, savdo hamda mashinasozlik sohalarida faoliyat olib borishmoqda. Ulardan 8 tasi 100% xorij sarmoyasi ishtirokida faoliyat yuritmoqda.

2007-yildan boshlab, har yili O‘zbekiston va Singapurda, Singapur Biznes Federatsiyasi bilan hamkorlikda qo‘shma biznes forumlar o‘tkazib kelinmoqda.

2008-yildan boshlab Toshkentda Singapur Menejmentni rivojlanish Instituti (MDIS) faoliyat yuritib kelmoqda. MDIS Singapur Menejmentni rivojlanish Instituti va O‘zbekiston banklari assosiyatsiyasi tomonidan tashkillashtirilgan oliy o‘quv muassasi bo‘lib, unda «Bank ishi», «Biznes boshqaruvi», «Turizm» va «Biznesda zamonaviy ITlar» yo‘nalishlari bo‘yicha darslar o‘tilmoqda.

Singapur texnik hamkorlik dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari turli qisqa muddatli kurslarda qatnashib kelishmoqda.

6-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining MDH davlatlari va Gruziya bilan hamkorigi

O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Qozog‘iston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bilan O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning sezilarli qismi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 2 032,5 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Shunga qaramasdan, ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ishga solinmagan ko‘pgina imkoniyatlar mavjud.

Qozog‘iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta’minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qozog‘istonga 10 marotaba tashrifi amalga oshirilgan va Qozog‘iston Prezidenti O‘zbekistonga 11 marotaba tashrif buyurgan.

O‘zbekiston-Qirg‘iziston munosabatlari ikki tomonlama hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlarning o‘zaro tenglik va manfaatdorlik tamoyillari asosida izchil amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro anglashuv va hurmatga asoslangan barqaror aloqalarga tayanadi. Bu munosabatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg‘izistonga 2 marotaba (1994-yil 16-yanvar va 2000-yil 26-27 – sentabr), Qirg‘iziston Prezidenti esa O‘zbekistonga 4 marotaba (1992-yil sentabr, 1996-yil dekabr, 1998-yil noyabr va 2006-yil oktabr) tashrif buyurgan.

1996-yildan buyon Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston-Qirg‘iziston hukumatlararo komissiyasi faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunga qadar ushbu komissiyaning 7 ta majlisi bo‘lib o‘tgan. Oxirgi yettinchi qo‘shma majlis 2009-yil 28-dekabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 169,3 million AQSh dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasidagi yaqin qo‘shnichilik va do‘stona aloqalar qaror topgan bo‘lib, davlatlararo munosabatlarning barcha jabhalarida hamkorlik darajasi yuksalmoqda.

O‘zbekiston-Turkmaniston munosabatlari yuqori darajadagi ikkitomonlama hamkorlik bilan izohlanadi. Oliy darajada qabul qilingan bitimlar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar hamkorlikka oid hujjatlar turli sohalarda ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

1991-yildan hozirgi paytga qadar ikki mamlakat rahbarlarining **21** marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O‘zbekiston Prezidenti **10** marotaba Turkmanistonga tashrif buyurgan bo‘lsa, Turkmaniston Prezidenti O‘zbekistonga **11** marta kelgan.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi izchil o‘sib bormoqda va 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb **213** million AQSh dollarini tashkil etdi.

Ikki mamlakatning neft va gaz sohasida yaqindan hamkorlik qilishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Muhim strategik xomashyoni eksport qilish yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish imkonini bergan «Turkmaniston-O‘zbekiston-Qozog‘iston-Xitoy» transmilliy gaz quvurining qurilishi bo‘yicha yirik loyihaning amalga oshirilishi ikki mamlakatning ushbu sohadagi samarali hamkorligiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Transport kommunikatsiyalari iqtisodiy hamkorlik borasidagi yana bir muhim yo‘nalishdir. «O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon» yangi xalqaro transport-kommunikatsiya yo‘lagini tashkil etish bo‘yicha imzolangan ko‘p tomonlama shartnomaning hayotga tadbiiq etilishi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi, tranzit yuklar oqimini ko‘paytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim omilidir. O‘zbekiston va Turkmanistonning madaniyat va

san'at namoyandalari ikki mamlakatda tashkil etiladigan festival, ko'rgazma va forumlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi konstruktiv va ochiq muloqot mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda hamda mintaqaning barqaror rivojlanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Tojikiston bilan savdo-iqtisodiy, gumanitar sohalarda, mintaqa barqarorligini ta'minlashda hamda mintaqa xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar bilan birgalikda kurashishda keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordir.

2000-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Tojikistonga davlat tashrifi amalga oshirildi.

1998-yil yanvarda va 2001-yil dekabr oyida esa Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif uyushtirdi.

Ikki mamlakat o'rtasida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya tashkil qilingan. Shu kungacha qo'shma komissiyaning to'rtta majlisi bo'lib o'tgan. Majlislar Dushanbe shahrida 2002-yil 22-avgust kuni hamda 2009-yil 18-fevralda tashkil etilgan, Toshkent shahrida 2015-yil 23-iyun kuni hamda 2016-yil 28-dekabrda tashkil etilgan.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha 196,8 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasini 1992-yil 20-mart kuni tan olgan. Shu kunning o'zida ikki mamlakat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlik 2004-yil imzolangan Strategik hamkorlik va 2005-yil imzolangan Ittifoqdoshlik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar asosida rivojlanmoqda.

2013-yilning 14-15-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida 2013-2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo Dastur qabul qilindi.

2010-yil 12-13-noyabr kunlari O'zbekistonga Rossiyaning Federatsiya Kengashi Raisi V.Matvienko tashrif buyurdi. Tashrif doirasida V.Matvienko O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi I.Sobirov va Qonunchilik palatasi spikeri D.Toshmuhamedovalar bilan muzokaralar o'tkazdi.

2014-yilning 10-dekabrda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi.

Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar ja'dal sur'at bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya Federatsiyasi birinchi o'rinda turadi.

2016-yil yakunlariga ko‘ra ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 4,2 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi.

Ozərbayjon Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ozarbayjonga 3 marotaba va Ozarbayjon Prezidenti O‘zbekistonga 3 marotaba tashrif buyurgan.

Mazkur tashriflar chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini sifat jihatdan yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladigan muhim kelishuvlarga erishildi. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, informatsion va kommunikatsion texnologiyalar, temir yo‘l transporti, soliq, maxfiy ma‘lumotlar daxlsizligini ta‘minlash sohalarida hamkorlikka oid, shuningdek, gumanitar, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha 21,2 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Ukraina ham O‘zbekiston Respublikasining yetakchi tashqi iqtisodiy sheriklaridan sanaladi. O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar mustahkam huquqiy asosga ega bo‘lib, turli sohaldagi hamkorlikni tartibga soluvchi 142 shartnoma, bitim va boshqa hujjatlardan iborat.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ukrainaga 6 marotaba tashrif buyurgan va Ukraina Prezidenti O‘zbekistonga 4 marotaba tashrif buyurgan.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 254,1 million AQSh dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi **Belarus Respublikasi** bilan har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratadi. Mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to‘ldiradi. So‘nggi ikki yilda Toshkent va Minskda Hukumatlararo komissiyaning (HK) ikkita yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o‘rtasida 2008-2017-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma va uning ijrosi yuzasidan Dastur imzolangan. O‘zbekiston va Belarus hukumatlari o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari o‘rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlar imzolangan.

1994-yil dekabrda Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

2015-yil 11-12-mart kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi hamda Belarus Respublikasi o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo qo‘shma komissiya uchinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

MDH mamlakatlari boshliqlari majlisi doirasida Minsk shahrida 2014-yil oktabrida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenko uchrashishdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning asosiy masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 113,4 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Armaniston, Moldova bilan MDH hamda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

1995-yil 30-31-martda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Moldovaga davlat tashrifi va 1998-yil 17-18-dekabrda Moldova Prezidenti P.Luchinskiyning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

Gruziya O‘zbekistonning eng muhim tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat – 1995-yilning 4-sentabrida O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasida imzolangan do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv hisoblanadi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha o‘zbek-gruzin Qo‘shma komisiyasi tartibga soladi. 2014-yilning 20- oktabrida Toshkent shahrida mazkur komisiyaning navbatdagi yetinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

2016-yil yakunlari bo‘yicha ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tovar aylanmasi hajmi 90,8 million AQSh dollarini tashkil etdi.

7-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatida faol ishtirokini va xalqaro tashkilotlar bilan xar tomonlama aloqalari

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi ishtiroki

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrda MDH tuzish to‘g‘risida bitim va 1991-yil 21-dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

MDH Ijroiya Qo‘mitasi Hamdo‘stlikning ijro etuvchi, ma‘muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda va bo‘linmasi Moskvada joylashgan.

O‘tgan yillar mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xavfsizlikni ta‘minlash hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash

kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oluvchi qator hayotiy muhim yo‘nalishlar bo‘yicha keng ko‘lamli huquqiy asos yaratildi va hamkorlikning vosita va mexanizmlari ishlab chiqildi.

Hamdo‘stlik ishtirokchi davlatlarning barqaror rivojlanishi va xavfsizligiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday tahdid va xavf-xatarlarga o‘z vaqtida munosib javob qaytarish borasida o‘zaro maqbul yondoshuvlar va kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muammo va kelishmovchiliklarni hal qilish, MDH hududidagi fuqarolarning o‘zaro muloqot yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratdi.

O‘zbekistonda MDHga ko‘p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralarni tashkil qilish, jumladan MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish maydoni, shuningdek, ko‘p tomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo‘lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida qarashadi.

O‘zbekiston Respublikasi MDHning asosiy nizomiy va tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etadi. O‘zbekiston Hamdo‘stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo‘jalik aloqalarini jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirgan.

O‘zbekiston MDH doirasida amaldagi o‘zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to‘laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston tomoni jahondagi jadal o‘zgarishlar sharoitida MDHni davlatlararo hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar, oliy darajada siyosiy muloqotlar, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondoshuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko‘plab dolzarb masalalarni hal etishning muhim mexanizmi deb hisoblaydi.

Hamdo‘stlik ko‘p rejali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi va barcha ishtirokchi davlatlarning maksimal ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishishlari maqsadida xo‘jalik jarayonlarini tartibga soluvchi rolini o‘ynaydi va uning faoliyati shunga yo‘naltirilgan.

O‘zbekistonning Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi faoliyatidagi ishtiroki. Orol dengizi muammolari

Markaziy Osiyo mamalakatlari va uning 60 millionlik xalqining tashvishlantirib kelayotgan hozirgi zamonning eng yirik global ahamiyatga ega ekologik fojealaridan biri - Orol dengizi muammosining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari mintaqaning barqaror rivoji, genofondi va kelajak avlodiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid manbai bo‘lib kelmoqda. Orolbo‘yi muammosi bevosita

Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekiston hamda bilvosita Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarini qamrab oladi.

Orolbo‘yi hududi o‘zining xilma-xil hayvonot va o‘simlik dunyosiga ega bo‘lib, ushbu havzada 38 turdagi baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo‘lgan. Jayronlar 1 million boshgacha yetib, flora 638 turdagi kamyob osimliklarni tashkil etgan.

Orol dengizi 1960-yilgacha eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo‘lib, hududi 68,9 ming kv. km., suv miqdori 1083 kub. km., uzunligi 426 km., kengligi 284 km. va eng chuqur joyi 68 metrni tashkil qilgan.

Orol dengizi mintaqa iqtisodining rivoji, sanoati (ishlab chiqarish tarmog‘i), aholining ish bilan bandligi va barqror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Avval ushbu dengiz baliq yetishtirish bo‘yicha dunyodagi ilg‘or maskanlaridan biri hisoblangan bo‘lib, Orolbo‘yi havzasidagi yillik baliq obvlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Orol dengizi qirg‘oqlarida yashovchi aholining 80 foizdan ko‘prog‘i baliq va baliq mahsulotlarini ovlash mahsulot tayyorlash va yetkazish bilan band bo‘lgan. Amudaryo va Sirdaryo deltalarining unumdor yerlari hamda mahsuldor yaylovlari 100 mingdan ziyod odamlarning chorvachilik, parrandachilik bilan mashg‘ul bo‘lishini hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishini ta‘minlagan.

Shuningdek, Orol dengizining iqlimini tartibga soluvchi havza hamda butun mintaqada ob-havoning keskin o‘zgarishini kamaytirishdagi vazifasi aholi turmushi sharoitlariga, qishloq xo‘jaligi va ekologik holatga ijobiy ta‘sir korsatardi. Orol dengizi akvatoriyasi ustida qish vaqtida mintaqaga kirib keladigan ulkan havo oqimi iliqlashgan, yozgi vaqtda esa sovuqlashgan.

Orol dengizi muammosi XX asrning 60-yillarida mintaqadagi ikki yirik transchegaraviy daryolar Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan oqibatini o‘ylamasdan foydalanish natijasida paydo bo‘ldi va ulkan tahdid manbaiga aylandi. Ushbu ikki daryodan Orol dengiziga har yili 56 kub. km. suv quyilgan. Aholining sezilarli tarzda ko‘payishi, urbanizatsiya, yerlarning shiddat bilan o‘zlashtirilishi, ekologik oqibatlarni o‘ylamasdan Orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng xushmanzara havzalardan birining qurishiga olib keldi. Bir avlod ko‘z o‘ngida butun bir dengiz qurib, Orolbo‘yini jonsiz sahroga aylantirgan ekologik degradatsiya jarayoni davom etmoqda.

1990-yillardan boshlab Orol fojeasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat-e‘tiborini Orol muammosiga, uning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. 1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh

Assambleyasiningning 48-sessiyasida va 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari vakillari jahon hamjamiyatini Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdilar hamda ushbu muammoni xalqaro moliyaviy tuzilmalar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz va BMTning shafeligisiz amalga oshirish mumkin emasligiga BMTning e'tiborini qaratishdi.

Ushbu muammolarni hal etish bo'yicha mintaqaviy hamda milliy miqyosda amaliy sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (OQXJ) bunga yorqin misol bo'ladi.

Orolbo'yining biofondini saqlash, ekologik muammoning atrof muhitga va eng asosiysi mintaqada yashayotgan insonlarning hayotiga halokatli ta'sirini qisqartirish kabilar Tashkilotning muhim vazifasi qilib belgilab olindi.

OQXJ faoliyatining hozirgi vaqtdagi asosiy natijasi Orol dengizi havzasi mamlakatlari uchun uchta ko'mak Dasturining qabul qilinishi bo'ldi (ODHD – 1, ODHD – 2, ODHD – 3).

O'zbekiston OQXJning asosiy ta'sischi davlati bo'lib, tashkilot faoliyatining har tomonlama mustahkamlanishida muhim hissa qo'shmoqda. 1997-1999-yillardagi OQXJda raisligi davrida O'zbekiston Respublikasi tashkilotning huquqiy asosini (bazasini) takomillashtirishga va Orol dengizi havzasining barqaror rivojlanishi ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan aloqa hamda o'zaro hamkorlikni ornatishda faol harakat qildi.

1997-yilning oktabrida Toshkent shahrida donorlarning texnik masalalar bo'yicha xalqaro uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuv natijasida "Orol dengizi havzasida atrof muhit va suv resurslarini boshqarish" xalqaro loyihasini amalga oshirish boshlandi.

2008-yilda O'zbekiston Respublikasining tashabbusi bilan Toshkentda Orol muammosi bo'yicha xalqaro konferensiyaning tashkil etilishi ushbu muammoning xalqaro doirada keng muhokama etilishida muhim turtki bo'ldi. Konferensiya ishida 60 dan ziyod xalqaro tashkilotlar, Yaponiya, Germaniya, XXR va arab davlatlarining yirik moliyaviy institutlari vakillari hamda yetakchi tadqiqot markazlar mutaxassislarining ishtirok etishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Konferensiya yakuni bo'yicha umumiy qiymati 1,5 mlrd.AQSh dollarini tashkil etadigan Orol fojeasining og'ir oqibatlarini yumshatishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Toshkent Deklaratsiyasi va Ish rejasi qabul qilindi.

Milliy miqyosda O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashda keng chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. 1990-yillardan boshlab yuzlab dastur va loyihalar amalga oshirildi.

2013-yil Orolbo'yida Amudaryo deltasida kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya

o‘rmonlarini tashkil etish va Janubiy Orolboyi havzasi ornitologik monitoringi kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga umumiy qiymati 1,3 mlrd. AQSh dollari ekvivalentidagi reja tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining OQXJga raisligi

2013-yilning avgust oyidan OQXJga raislik qilish O‘zbekiston Respublikasiga o‘tdi. 2013-yilning 16-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi va OQXJning amaldagi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati tariqasida “Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo‘yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi” tarqatildi.

Ushbu Dastur BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvatlandi. “Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo‘yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi” Orol muammosi oqibatlariga barham berish bo‘yicha quyidagi muhim tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

I. Orolbo‘yida yashash, aholi genofondini qayta tiklash va saqlash uchun sharoit yaratish;

II. Suv resurslari boshqaruv tizimini takomillashtirish va undan tejamkorlik bilan foydalanish. Orol dengizi akvatoriyasida tabiiy havzalar tizimi saqlash;

III. Qurib borayotgan Orol dengizi o‘rnida daraxtzorlar tashkil etish va ushbu mintaqani sahroga aylanishini oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamda tadbirlarni amalga oshirish;

IV. Bio xilma-xillikni saqlash, biologik resurslarni qayta tiklash, hayvonot va o‘simlik dunyosini saqlash;

V. Kelgusida OQXJning institutsional asoslarini takomillashtirish va ushbu tashkilot doirasida mintaqa mamlakatlari hamkorligini mustahkamlash, shuningdek Orol fojeasi bilan bogliq muammolarni hal etishga jahon hamjamiyatining etiborini qaratish;

Shu bilan birgalikda, Orol dengizi qurishining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlarining keskinlashuvini hamda Orolbo‘yida yashovchi aholi turmush sharoiti inqirozinining kuchayayotganligini hisobga olib, BMT va jahon hamjamiyatining jiddiy ko‘magisiz ushbu global muammoni hal etish mumkin emasligi tobora aniq bo‘lib bormoqda.

Orol dengizi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi jahon hamjamiyatning sa‘y-harakatlarini safarbar qilish hamda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni takomillashtirish va ekologik falokatning ta‘sirini kamaytirish maqsadida 2014-yilning 28-29-oktabr kunlari Urganch shahrida “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro konferensiya yakunigalariga binoan milliy va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida umumiy miqdori 3 mlrd. AQSh doll.ni tashkil qilgan kelishuv va shartnomalar imzolangan. Mazkur mablag‘ning 200 mln. AQSh doll. teng miqdorini grant mablag‘lar tashkil qilmoqda.

2015-yil 24-martda Toshkentda Jamg‘armaning mintaqavaiv organlari ishtirokida "Orol dengizi mintaqasida ekologik falokatlarni kamaytirish" mavzusida "davra suhbat", shuningdek, 2015-yilning 12-17-aprel kunlari Koreya Respublikasining Degu va Gyongbuk shaharlarida o‘tkazilgan 7-Butunjahon suv forumi doirasida Orol dengizi muammolariga bag‘ishlangan maxsus sessiya bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining OQXJga raisligi davrida Fondning boshqa ta‘sischi davlatlari va xalqaro donor tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda yuqoridagi Dasturda qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

O‘zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorligi

Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi rivojlanish loyihalarini uzoq muddatli kreditlash bo‘yicha yirik mamlakatlararo moliya institutlaridan biridir. Bank 1965-yilda tashkil etilgan, shtab-kvartirasi Manilada (Filippin) joylashgan.

OTBning asosiy maqsadi – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko‘maklashishdir.

OTB prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. 2013-yil yanvardan Bank prezidenti T.Nakao (Yaponiya) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil avgust oyida OTBning a‘zosi bo‘lgan. 1997-yilda Toshkentda OTB vakolatxonasi ochildi. Vakolatxona rahbari – T.Konishi. Respublika OTBning mintaqaviy a‘zolari orasida 15-eng yirik aksioner va 14-eng yirik benefetsiar deb sanaladi.

O‘zbekistonda OTB bilan birgalikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 asosiy tarmoqlarni o‘zida birlashtirgan : qishloq xo‘jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, transport va bojxona tranziti sohasida mintaqaviy hamkorlik, bolalar himoyasi va boshlang‘ich ta‘limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

2010-yilning 1-4-may kunlari Toshkent shahrida OTB Boshqaruvchilar kengashining 43-majlisi o‘tkazildi, unda 2,3 ming kishi atrofida ishtirok etib, ularning 1,3 mingdan ortig‘i xorijiy vakillar bo‘ldi. Ushbu tadbir OTB ning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida o‘tkazgan birinchi yig‘ilishi bo‘ldi.

2012-yil sentabrda, OTB O‘zbekiston Respublikasi bilan 2012-2016-yillarga mo‘ljallangan mamlakat bilan hamkorlik strategiyasini (MHS) qabul qildi. Yuqoridagi strategiya O‘zbekistonda infratuzilma rivoji va sanoatni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun qaratilgan 2013-2015-yillarda O‘zbekiston

Respublikasi aholisining farovonligini oshirish strategiyasi bilan muvofiqlashtirildi. MHSda asosiy e'tibor shahar infratuzilmasi va uy-joy xizmatlari, kommunikatsiya, energetika, suv tarmoqlari va transport rivojini qo'llab-quvvatlashga va moliyaviy xizmatlar imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston va OTB o'rtasidagi hamkorlikning muhim yangi yo'nalishi muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2013-yil 20-23-noyabrda Toshkent shahrida OTB bilan birgalikda Osiyo quyosh energiyasi forumining 6-yig'ilishi o'tkazildi. Tadbirda 300 dan ortiq xorijiy mehmonlar ishtirok etdilar.

2014-yilda OTB O'zbekistonda energiyaga nisbatan o'sib borayotgan talabni qondirish, samarali energiya quvvatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 300 mln. AQSh dollar miqdorida zaym ajratdi. Osiyo taraqqiyot fondi va boshqa maxsus fondlar, oddiy kapital resurslaridan moliyalashtiriladigan O'zbekistondagi grant loyihalari va zayomlar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'larning umumiy yig'indisi 2,01 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi.

O'tgan muddat ichida, OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSh dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSh dollarini o'z ichiga olgan umumiy miqdori 4,1 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 54 zayomni ajratdi.

O'zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligi

1992-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. 1992-yil 2-iyulda «O'zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi, Rekonstruksiyalash va rivojlanish xalqaro banki, Rivojlanish xalqaro assosiativasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Ko'p tomonlama sarmoya ajratishni kafolatlovchi agentlikka a'zoli to'g'risida»gi Qonuni kuchga kirdi. O'zbekiston Jahon Bankining Shveysariya a'zo-mamlakatlari guruhiga kiradi. 1992-yil sentabrda Toshkentda Jahon Bankining vakolatxonasi ochildi. Ayni paytda missiyaga yangi rahbari tayinlash kutilmoqda.

Jahon banki bilan joriy hamkorlik Bankning O'zbekiston Respublikasi bilan 2016-2020-yillar oralig'idagi hamkorlik strategiyasiga asoslangan bo'lib, qiymati 4 milliard dollar bo'lgan (3,0 milliard dollari - Jahon banki qarzi) jami 27 investitsiya loyihalarini o'z ichiga olgan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining imtiyozli kreditlari va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kreditlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) faoliyatidagi ishtiroki

2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston va O'zbekiston davlatlari rahbarlari tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzilishi haqida Deklaratsiya imzolandi.

Afg'oniston, Belarus, Eron va Mug'uliston Tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka davlatlari

ShHTda “muloqot yo‘lida hamkorlik” maqomiga ega. 2010-yil aprel oyida Toshkent shahrida ShHT va BMT kotibiyatlari hamkorligi to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, BMTning Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi, Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Mustaqil Davlatlari Hamdo‘stligi kabi tashkilotlar bilan rasmiy aloqalar o‘rnatilgan.

Tashkilot ikkita doimiy amaldagi organga, ya‘ni Pekin shahrida ShHT Kotibiyati va Toshkent shahrida ShHT ning Mintaqaviy Aksilterror tuzilmalariga ega.

ShHT Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishda, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ko‘p tomonlama hamkorlikning mexanizmi, ochiq va konstruktiv muloqot uchun maydon, shuningdek, turli yo‘nalishlarda sherikchilikni rivojlantirish instrumenti hisoblanadi. ShHT faoliyati davrida, tashkilotni mustahkamlash borasida katta siyosiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi, uning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘p qirrali amaliy qadamlar qo‘yildi.

ShHT Xartiyasiga muvofiq, a‘zo davlatlar hamkorlik qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilishadi:

- davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligini va davlatlar chegaralarining dahlsizligini o‘zaro hurmat qilish, bostirib kirmaslik, ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik yoki xalqaro munosabatlarda kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaradosh hududlarda bir tomonlama harbiy ustunlik qilishdan voz kechish;

- a‘zo davlatlar teng huquqliligi, o‘zaro tushunishga asoslangan holda qarashlar kesishuvchi nuqtalarni izlash, har bir a‘zo davlatning fikrlarini hurmat qilish;

- umumiy manfaatlar mavjud yo‘nalishlarda birgalikdagi harakatni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- a‘zo davlatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni tinchlik yo‘li bilan bartaraf etish;

- ShHTni boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qo‘ymaslik;

- ShHTning manfaatlariga qarshi qaratilgan har qanday noqonuniy harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

- ShHT Xartiyasidan, tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni vijdonan bajarish.

ShHTda qarorlar qabul qiluvchi Oliy organ – a‘zo davlatlar rahbarlarinig Kengashi (DRK) bo‘lib, tashkilotning strategiyasini, ko‘p qirrali hamkorlik va tashkilot faoliyatining istiqbollari hamda ustuvor yo‘nalishini ko‘rib chiqadi va

belgilaydi. DRK bir yilda bir marta yig‘iladi, yig‘ilishga tashkilotchi davlat rahbari raislik qiladi.

Ahamiyati jihatidan ikkinchi organ – ShHTga a‘zo davlatlar hukumat rahbarlari Kengashi (HRK) bo‘lib, tashkilot doirasida ko‘p tomonlama hamkorlik strategiyasini, uning ustivor yo‘nalishiga oid masalalarni muhokama qilish, iqtisodiy hamkorlikning o‘ta muhim va dolzarb vazifalarini hal qilish uchun bir yilda bir marotaba yig‘iladi. Shuningdek Tashkilotning yillik budjetini tasdiqlaydi.

DRK va HRK yig‘ilishlaridan tashqari, xavfsizlik kengashi kotiblari, tashqi ishlar, mudofaa, favqulodda vaziyatlar, iqtisodiyot, transport, madaniyat, maorif, sog‘liqni saqlash vazirlari, oliy sud, bosh prokurorlar, huquq-tartibot idoralari rahbarlari darajasida uchrashuvlar mexanizmi ham mavjud.

DRK, HRK, tashqi ishlar vazirlari va boshqa organlarni yig‘ilishlarini tayyorlash bo‘yicha zaruriy ish olib boruvchi milliy koordinatorlar Kengashi ShHTning joriy faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga rahbarlik qiladi. Iqtisodiy yo‘nalishda Ishbilarmonlik Kengashi va ShHTning Banklararo uyushmasi mexanizmlari faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston ShHTning ta‘sischi davlatlaridan biri hisoblanadi va boshqa a‘zo davlatlar qatorida tashkilot doirasida kelajakdagi hamkorlik strategiyasini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi tashkilot doirasida mintaqaviy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlik, a‘zo mamlakatlar muqarrar iqtisodiy o‘sishi va aholi yashash darajasini oshirish kabi yo‘nalishlarga e‘tibor kuchaytirilishini zarur deb hisoblaydi.

O‘zbekistonning tashkilotga raisligi doirasida 2004-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitda «ShHTda kuzatuvchi maqomi to‘g‘risidagi Nizom» hamda «ShHTning kuzatuvchilar bilan o‘zaro munosabatlari Tartibi to‘g‘risida» hujjatlar imzolandi. Kuzatuvchi davlat institutini joriy etilishi, ShHTning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu, shuningdek, ShHTning kelajagini mustahkamlash, tashkilot salohiyatini kengaytirish hamda jahon hamjamiyatida uning roli va obro‘sini sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

2010-yil iyun oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitda ShHTga yangi a‘zolarni qabul qilish Nizomi hamda ShHTning prosteduralar Qoidasi tasdiqlandi. Shuningdek, ShHTga a‘zo-davlatlar hukumatlari o‘rtasida qishloq xo‘jaligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar imzolandi.

2013-yil noyabr oyida Toshkentda ShHTga a‘zo davlatlar hukumat rahbarlarining (bosh vazirlar) bo‘lib o‘tgan 12-yig‘ilishida tomonlar jahon va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga oid keng qamrovli masalalar bo‘yicha fikr

almashdilar hamda ShHT doirasida savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qildilar.

ShHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlarining kelajakda transport sohasida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi Qo'shma Bayonoti imzolandi hamda ShHTning Taraqqiyot Banki va Taraqqiyot Fondini tashkil qilish bo'yicha kelgusida qilinadigan ishlar bo'yicha qaror qabul qilindi.

2015-yil 9-10-iyulda Ufa shahrida ShHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi, mazkur sammit davomida mintaqaviy muammolar va xalqaro xavfsizlikka doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, tashkilot faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlar va ShHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlik rivojining istiqbollari muhokama qilindi.

ShHT sammiti yakunida davlat rahbarlari tomonidan Ufa deklaratsiyasi imzolandi, 2025-yilgacha ShHT rivojlanish strategiyasi, 2016-2018-yillarga mo'ljallangan ShHTga a'zo davlatlarining terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik Dasturi tasdiqlandi, Hindiston va Pokistonning ShHT a'ziligiga qabul qilinishi jarayonining boshlanganligi haqida qaror qabul qilindi.

Davlat rahbarlari tomonidan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 70 yilligi munosabati va narkotik tahdidlar muammosi yuzasidan bayonot qabul qilindi, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlarning chegara masalalari bo'yicha hamkorligi haqida Bitimi imzolandi. ShHTning Ufa sammiti yakunlanishi bilan 2015-2016-yillarda Tashkilotga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tdi.

O'zbekiston raislik qiluvchi davlat sifatida ShHTga a'zo davlatlarning manfaatlarini aks ettiruvchi o'zaro manfaatli rivojlanish, ShHTning xalqaro maydonda obro'yini ortib borishini ta'minlash kabi tamoyillarga rioya qilish niyatida.

Xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ShHT a'zolari bo'lgan barcha davlatlar gumanitar rivojlanishiga bo'lgan zamonaviy tahdidlarga munosib javob tayyorlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashishni kuchaytirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mintaqada ShHTning taraqqiyot va barqarorlikning ishonchli kafolatchisi sifatidagi rolini mustahkamlash maqsadida a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish tadbirlariga, shuningdek BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va manfaatdor davlatlar bilan munosabatlarning keyingi rivojiga katta ahamiyat beriladi.

O'zbekiston va YXHTning o'zaro hamkorligi

O'zbekiston 1992 yilning 26 fevral kundan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) ishtirokchisi hisoblanadi. O'zbekiston

Respublikasini YXHT va uning institutlari bilan o‘zaro hamkorligi turli darajalarda boradi va o‘z ichiga keng qamrovli muammo va masalalarni oladi.

O‘zbekiston Respublikasining YXHT huzuridagi doimiy vakolatxonasi 1994 yilda Vena shahrida o‘z ishini boshlagan.

1995 yilda O‘zbekiston tomonining tashabbusligida Toshkent shahrida YXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqa Byurosi ochildi.

1999 yilda Tashkilotning O‘rta Osiyo davlatlarida va Qozog‘istonda alohida vakolathonalarining ochilishi munosabati bilan Byuro YXHTning Toshkentdagi Markaziga aylantirildi.

2006 yil iyun oyida O‘zbekiston taklifiga ko‘ra Tashkilot Doimiy kengashining O‘zbekistonda YXHT loyihalari muvofiqlashtiruvchisi ofisi tashkil etilishi to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Shu yil iyul oyida O‘zbekistonda YXHT loyihalari muvofiqlashtiruvchisi lavozimi tashkil etilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YXHT kotibiyati o‘rtasida Memorandum imzolandi. Hamkorlikning ushbu ko‘rinishi O‘zbekiston tomoni uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalar va O‘zbekistonda va Tashkilotning o‘zaro ta‘sirini kuchaytirishdagi YXHT faoliyatini bir joyga jamlash imkonini berdi.

Imzolangan Memorandum doirasida 2007 yilda respublikaning vazirliklari va idoralari hamkorligida YXHTning barcha uch yonalishida 18 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lsa, 2008 yilda - 15 ta, 2009 yilda - 14 ta, 2010 yilda - 12 ta, 2011 yilda – 12 ta, 2012 yilda – 11 ta, 2013 yilda – 11 ta loyiha amalga oshirildi. 2014 yilda amalga oshirish uchun 14 ta loyiha tasdiqlangan. Hozirgi vaqtda respublikada 20 dan ortiq YXHT loyihasi amalga oshirilmoqda.

Hamkorlikning asosiy urg‘usi O‘zbekistonning milliy manfaatlari va halqaro kun tartibidagi masalalarni, xavfsizlikning yangi tahdid va da‘vatlarini hisobga olgan holda barcha uch yonalish bo‘icha Tashkilot doirasida qabul qilingan majburiyat va tamouillarni respublikada amalga oshirishga yonaltirilgan.

Loyihalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining institutlari, shuningdek inson huquqlarini himoya qilish hukumat idoralari - Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘icha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari Milliy markazi hamda O‘zNNTMA va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari faol jalb etilgan.

O‘zbekistonni doimo ravishda YXHTning amaldagi raislari tashrif buyurishadi: 1998 yilda - B.Geremek (Pol’sha), 1999 yilda - K.Vollebek (Norvegiya), 2000 yilda - B.Ferrero-Valdner (Avstriya), 2001 yilda – M.Djeoane (Ruminiya), 2002 yilda - A.Martinsh da Krush (Portugaliya), 2003 yilda – Ya.-H. de Sxeffe (Gollandiya), 2004 yilda - S.Pass (Bolgariya), 2005 yilda - D.Rupel (Sloveniya), 2006 yilda - K. de Gyuxt (Belgiya), 2007 yilda - M.Moratinos (Ispaniya), 2008 yilda - A.Stubb (Finlyandiya), 2011 yilda - A.Adjubalis (Litva), 2013 yilda - L.Kojara (Ukraina).

2013 yilda O'zbekistonga YXHTning Bosh kotibi L.Zannier tashrif buyurdi. 2008-2013 yillarda O'zbekistonga shuningdek Tashkilotning rasmiy vakillari bir necha bor tashrif buyurishdi: OAV erkinligi bo'icha vakil M.Harashti (2008 va 2009 yillarda), Nizolarni oldini olish Markazi direktori G.Zalber (2009 va 2011 yillarda), Kam millatlar masalalari bo'icha Oliy komissar K.Vollebek (2009, 2010, 2011 va 2012 yillarda), Demokratik institutlar va inson huquqlari Byurosi direktori Ya.Lenarchich (2009 yilda), OAV erkinligi bo'icha vakili D.Miyatovich (2011 yilda), Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'icha YXHT maxsus vakili va muvofiqlashtiruvchisi M.-G.Djiammarinaro (2013 yilda). O'zbekistonning YXHT bilan xamkorlik va havfsizlik masalalari bo'icha tashabbuslari tashkilotning qator hujjatlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari YXHTning barcha uch yonalishlari bo'icha o'tkaziladigan anjuman, forum, seminar va treninglarda qatnashib keladilar.

O'zbekiston delegatsiyasi YXHTga a'zo mamlakatlarni tashqi ishlar vazirlari yillik uchrashuvlarida qatnashib keladi. 2013 yil 5-6 dekabr kunlari Ukrainaning poytaxti Kievda bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlarining navbatdagi uchrashuvida O'zbekiston delegatsiyasi tashqi ishlar vaziri o'rinbosari darajasida ishtirok etdi.

O'zbekistonning Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki bilan hamkorligi

O'zbekiston 1992-yil 30-aprelda YTTB a'zosiga aylandi. 1993-yilning may oyida Toshkent shaxrida uning vakolatxonasi ochildi. Respublikada bank faoliyatini o'rta osiyo bo'yicha YTTB direktori M.Honma muvofiqlashtiradi.

Uning asosiy vazifasi bank xususiy tadbirkorlik sohasida bozor islohotlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mamlakatda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdan iborat.

Bank o'zining so'nggi strategiyasini amalga oshirish uchun (2005-yildan buyon) 105 million evro miqdorida 21 ta loyihani imzoladi hamda 2,6 mln evro miqdorida 17 ta loyihaga texnik yordam ko'rsatdi.

2017-yil mart oyida O'zbekiston va YTTB o'rtasida bank Anglashuv memorandumi imzolandi. Bu hujjat Bank mablag'larini jalb etish hissobiga mamlakatda loyihalarni amalga oshirish uchun hadli hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Kelajakda o'rta muddatda O'zbekiston uchun YTTBning yangi strategiyasi qabul qilinishi kutilmoqda.

O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi XVFGa 1992-yil 21-sentabrda a'zo bo'ldi. 1993-yilda Toshkentda XVF vakolatxonasi ochildi.

Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik asosan moliyaviy sektorni rivojlantirish va makroiqtisodiy islohotlarning targ'ibiga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi va XVF o‘rtasidagi kelishuvning IV bandiga binoan, XVF vakillari doimiy ravishda O‘zbekistonga tashrif buyurib, hukumat va Markaziy bank bilan maslahatlar olib borishadi.

Missiya faoliyati maqsadi iqtisodiyot sohasidagi ishlar ahvolini o‘rganish, moliyaviy sektor va statistika, shuningdek iqtisodiy islohotlarning maydonlarni aniqlash. So‘nggi yillarda, XVF turli sohalarda texnik ko‘mak taqdim etdi. Ulardan biri bank sektorida korporativ boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha Markaziy bankni undashdir.

2014-yilda korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun XVF texnik yordami taqdim etildi. Yordam doirasida Fond mutaxassislari O‘zbekistonga tashrif buyurdi., mamlakatimiz Markaziy banki vakillari va yetakchi banklari bilan hamkorlikda bu missiyaning uchrashuvlari tashkil etildi, respublika tijorat banklarida korporativ boshqarishni takomillashtirish uchun tavsiyalarni tayyorlash hisobga olib o‘z fikr va takliflarini qabul qildi. Natijada, korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizom so‘nggi xalqaro standartlar, shuningdek korporativ boshqaruv bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tamoyillari (2010-oktabr) va "tavakkallarni boshqarish tematik sharhi "Moliyaviy Barqarorlik Kengashi (2013-yil fevral) tavsiyalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqildi. 2016-yil aprel oyida ish stress-test tijorat banklari metodologiyasini takomillashtirish, texnik yordam doirasida boshlandi.

O‘zbekistonning NATO bilan YeAHK/TYH doirasida hamkorligi

O‘zbekistonning NATO bilan aloqalari 1991- yil 21- dekabrda o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov NATO/EAHKning Vashingtonda (1999-yil), Pragada (2002-yil) va Buxarestda (2008-yil) bo‘lib o‘gan sammitlarida ishtirok etgan.

Mamlakatimiz bilan NATO o‘rtasidagi hamkorlik rivojida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2011-yil 24-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan Bryusselga tashrifi va uning doirasida NATO Bosh kotibi A.Rasmussen bilan uchrashuvi muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri rahbarligidagi delegatsiya NATOning 2012 may oyida Chikago shahrida bo‘lib o‘tgan Sammitida ishtirok etdi.

NATO bosh kotibining Kavkaz va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili J.Appaturay 2013-yil mart va 2014-yil may oylarida mamlakatimizga tashrif buyurdi.

2013-yil avgust oyida Toshkentda NATOning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqa va hamkorlik bo‘yicha xodimi Byurosi hamda 2014-yil may oyida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti huzurida NATOning Depozitar kutubxonasi ochilishi O‘zbekiston bilan Shimoliy Atlantika alyansi o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ijobiy ahamiyat kasb etdi.

1994-yil iyul oyidan buyon O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturida ishtirok etmoqda. 1996 - yildan boshlab esa hamkorlik har yil ishlab chiqariladigan Sheriklik va hamkorlik bo‘yicha individual dasturlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekistonda Qurolli Kuchlarning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» Tayyorlov markazi faoliyat yuritib, uni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash o‘zaro aloqalarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

1993-yildan buyon O‘zbekiston NATOnin ilmiy anjuman va loyihalarida ishtirok etib kelmoqda. Ayni paytda Ittifoq bilan hamkorlikda 4 ta ilmiy loyiha amalgam oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) o‘rtasidagi hamkorlik

1995-yil oktabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) a‘zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlarining navbatdan tashqari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilindi. 1996-yil 2-oktabrda O‘zbekiston Tashkilotining to‘la qonli a‘zosi bo‘ldi.

O‘zbekiston 2003-yildan IHTning ixtisoslashtirilgan tuzilmasi – Islom taraqqiyot bankining a‘zosi hisoblanadi. Respublika IHTning yangi Nizomini 2015-yilning 14-dekabrda imzoladi. 2016-yilning aprel oyida ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ratifikatsiya qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi rasmiy delegatsiya (2005-yil dekabr) Makka shahrida o‘tkazilgan IHTning navbatdan tashqari 3-sammitida ishtirok etdi. Ushbu forumni o‘tkazishni yuzaga kelayotgan global geosiyosiy vaziyat sharoitida islom mamlakatlarini hamjihatlikka chorlovchi tashkilotning yangi strategiyasini ishlab chiqish hamda IHTni zamonaviy xavf-hatar va tahdidlarga qarshi kurasha oladigan samarali institutga aylantirish zaruriyati taqazo etdi.

Tadbir davomida O‘zbekiston tomoni xalqaro tashkilotlar doirasida IHTga a‘zo davlatlarning yagona pozitsiyasini ishlab chiqish taklifini kiritdi va bu taklif musulmon dunyosi davlatlarining aksariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, keyinchalik Tashkilotning 10 yillik dasturi matnining tegishli qismiga alohida kengaytirilgan band sifatida kiritildi.

Ushbu hujjat bilan bir qatorda forum yakunlariga ko‘ra Makka deklaratsiyasi va yakuniy Kommyunikelar qabul qilinib, ularda islom davlatlarining birdamlikni mustahkamlashga, yangi xavf-hatar va tahdidlarga qarshi umumiy pozitsiya ishlab chiqishga intilishlari, shuningdek bag‘rikeng va ma‘rifiy Islom g‘oyalarini targ‘ib etish zarurati o‘z aksini topgan.

2014-yil 18-19-iyun kunlari Jidda shahrida bo‘lib o‘tgan IHT Tashqi ishlar vazirlari kengashining 41-sessiyasida ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari boshchiligidagi delegatsiya 2016-yil

Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyor ekanligini e‘lon qildi.

2015-yil 27-28-may kunlari Al-Kuvaytda bo‘lib o‘tgan IHT TIVKning 42-sessiyasida mazkur organning navbatdagi sessiyasini 2016-yil O‘zbekistonda o‘kazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

IHT TIVKning 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov boshchiligidagi delegatsiya 2016-yilning 23-28-iyul kunlari Jidda shahrida tashkilotga a‘zo dalatlarning Yuqori mansabdor shaxslari hamda Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Islom komissiyasi majlislarida ishtirok etdi. O‘zbekiston delegatsiyasi raislik qilgan mazkur tadbirlar chog‘ida Toshkentdagi TIVK sessiyasida tasdiqlash uchun kiritiladigan IHTning asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha rezolyutsiya loyihalari ko‘rib chiqildi va ma‘qullandi.

2016-yil 18-19-oktabr kunlari «Ta‘lim va ma‘rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» shiori ostida Toshkent shahrida IHT TIVKning 43- sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Shu vaqtdan boshlab O‘zbekiston IHT TIVKga raislik vazifasini rasman qabul qildi.

Toshkentda o‘tgan sessiyada IHTning 52 a‘zo-davlat delegatsiyasi (26 – vazir darajasida), 4 ta kuzatuvchi mamlakati, 22 ta maxsus organlari, bo‘linmalari va qo‘shimcha tashkilotlari, 4 ta xalqaro va mintaqaviy tashkiloti vakillari, xorijiy mamlakatlarning IHTdagi maxsus elchilarining 5 nafari hamda taklif qilingan mehmonlar ishtirok etishdi.

Anjuman ishtirokchilari tomonidan sessiya kun tartibidan o‘rin olgan masalalar yuzasidan 118 ta rezolyutsiya qabul qilindi.

Shu bilan birga, IHT TIVK 43- sessiyasining muhim xujjati sanaluvchi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilinib, unda IHT kun tartibidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamda O‘zbekistonning ushbu tizimda 2016-2017 yillar davomida raislik qilishining ustivor yonalishlari asosiy masalalar ijobiy suratda o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonning raisligi davrida IHTning 23 ta tadbirini o‘tkazildi, bu esa kun tartibini va Tashkilot faoliyatini sezilarli darajada boyitdi.

2018 yilning 10-11 iyul kunlari Abidjan shahrida bo‘lib o‘tgan IHT TIVK 44-sessiyasi davomida O‘zbekiston raislikni rasman Kot-d’Ivuarga topshirdi. Yig‘ilishda so‘zga chiqqanlarning barchasi O‘zbekistonning raisligiga yuksak baho berib, islomiy hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini ta‘kidlab o‘tishdi.

IHTning vakillari O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan parlament (2009- va 2014-yillari) hamda prezident saylovlarida (2007, 2015 va 2016-yillar) xalqaro kuzatuvchi sifatida qatnashdilar. 2007- va 2015-yillari IHT Bosh kotiblari Ekmeleddin Ihsanog‘lu hamda Iyad bin Amin Madanilarning O‘zbekistonga rasmiy tashriflari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi

O‘zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O‘zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a‘zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega. U 5 asosiy qo‘shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: Hamkorlik kengashi (13 ta yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan), Hamkorlik qo‘mitasi (14 ta yig‘ilishi), Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar bo‘yicha quyi qo‘mita (12 ta yig‘ilishi), Parlament hamkorligi qo‘mitasi (13 ta yig‘ilishi) hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo‘yicha quyi qo‘mita (14 ta yig‘ilishi).

2011-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Bryusselga tashrifi bo‘lib o‘tdi. Tashrif doirasida Yevropa Komissiyasi prezidenti Joze Manuel Barrozu va Yevropa Ittifoqining energetika masalalari bo‘yicha komissari Gyunter Ettinger bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Shuningdek O‘zbekistonda YeI diplomatik vakolatxonasini (Delegatsiyasini) tasis etish to‘g‘risidagi Kelishuv, O‘zbekiston Respublikasi va YeI o‘rtasida energetika sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi Bayonnoma hamda 2011-2013 -yillarda Yevropa Ittifoqi Komissiyasi texnik ko‘magi Indikativ dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Bayonnoma imzolandi.

Bryussel shahriga oliy darajadagi tashrif Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston Respublikasi bilan turli sohalardagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni teng huquqlilik va o‘zaro sheriklik asosida kengaytirishga bo‘lgan qiziqishini namoyon etdi.

2011- yilning 31-may kuni Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tkazildi. Hozirgi kunda YeIning O‘zbekistondagi elchisi sifatida Eduards Stiprays faoliyat yuritmoqda.

2017-yilning 16-19-iyul kunlari Tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi Bryussel shahriga O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi Hamkorlik kengashining yig‘ilishida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi.

2017-yilning 9-10-noyabr kunlari Yevropa Ittifoqining tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari bo‘yicha Oliy vakili Federika Mogerini O‘zbekistonga “Evropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” vazirlar uchrashuvida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi. Ushbu tashrif doirasida u Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilindi.

8-Mavzu: O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: tinchlik, barqarorlik va xamkorlik yo‘llari

Birlashgan millatlar tashkiloti

(BMT) — yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945 yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943 yilda, Ustavi esa SanFransisko konferensiyasida 1945 yilda qabul kilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000 yilda esa ular soni 189 ga etdi. Xozirgi kunda 193 davlat a’zo. BMTning doimiy ish o‘rni (shtab kvartirasi) — NyuYork. BMT Ustavida ko‘rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huqukdiki bo‘lishi va o‘z takdirini o‘zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iktisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o‘rtasida hamkorlik bo‘lishini ta’minlashni ko‘zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg‘unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

2000 yil 6—8 sentabrda BMTning 55-sessiyasi doirasida "Ming yillik sammiti" bo‘lib o‘tdi. Unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdi. Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiyiktisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doyr muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan kabul qilgan deklaratsiyada 2015 yilgacha ta’minlashda, Bosh Assambleya va BMT boshqa organlari qarorlari amalda bajarilishida yordam beradi. Kotibiyat quyidagi departamentlar va boshqarmalarga bo‘linadi: Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari departamenti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Vasiylik va o‘z-o‘zini boshqarmaydigan hududlar departamenti, Nazorat boshqarmasi, Xodimlar boshqarmasi, Bosh kotibning ma’muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi, Konferensiyalarga xizmat qilish boshqarmasi, Umumiy xizmat boshqarmasi, BMTning Jeneva bo‘limi. BMT sessiyasi yidda bir marta chaqiriladi. Xavfsizlik Kengashining yoki BMT a’zolari ko‘pchiligining talabi bilan har qanday masala yuzasidan maxsus sessiyalar chaqirilishi mumkin. BMTning rasmiy tillari — ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari bo‘lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan keyin ko‘p o‘tmay—1992 yil 2 martda BMTga a’zo bo‘ddi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O‘zRning Davlat bayrog‘i ko‘tarildi. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi (1993.24.8). BMTda O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti — YuNESKOga ham a’zo bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z ovozi va mavqeiga ega bo‘lgan a’zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo‘yyapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida (1993 yil sentabr), BMT tashkil etilganining 50 yilligiga bag‘ishlangan sessiyada (1995 yil okt.), BMT Bosh Assambleyasining "Ming yillik sammiti" (2000 yil sentabr) da so‘zlagan nutqlari dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otdi. Xususan, ushbu xalqaro tashkilotning 20-asr so‘nggidagi eng yirik anjumanida O‘zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog‘liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a’zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat’iy amal qilmoqda^[1].

o. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti qanday faoliyat ko‘rsatadi?**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti [1945-yil](#) 24-oktabrda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yalpi xavfsizlikni mustahkamlash tufayli tinchlikni barqaror etish jur’ati bilan to‘lib-toshgan 51 mamlakat tomonidan tashkil etildi. Bugungi kunda 193 mamlakat, ya’ni dunyoning qariyb barcha mamlakatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zolaridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zosi bo‘lgan davlat xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan, xalqqaro shartnomalardan iborat bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida bayon etilgan majburiyatlarni qabul etadi. Nizomga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti to‘rtta asosiy maqsadga amal qiladi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga ko‘maklashish, millatlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirish, xalqaro muammolarni hal etishda va inson huquqlarini hurmatlashni rag‘batlantirishda, xalqaro hamkorlikni barqaror etish hamda ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar sa’y-harakatlari, kelishuvlari uchun markaziy rolni o‘ynash.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zolari — mustaqil davlatlardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti butunjahon hukumati emas va u qonunlar qabul qilmaydi. Biroq xalqaro mojarolarni bartaraf etishga va bizning barchamizga daxldor bo‘lgan masalalarni hal etish siyosatini ishlab chiqishga yordam bera oladigan mablag‘larga ega bo‘ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga barcha katta-kichik, boy va kambag‘al, turli siyosiy qarashlar va ijtimoiy tizimdagi davlatlar a’zo bo‘lib, ular ovoz berish va ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita bosh organ mavjud. Ulardan beshtasi — Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi va Kotibiyat — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-

Yorkdagi Markaziy qarorgohida, oltinchi organ — Xalqaro Sud esa Niderlandiyaning Gaaga shahrida faoliyat ko‘rsatadi.

Xavfsizlik Kengashi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barqaror etish borasida Xavfsizlik Kengashi bosh javobgarlikni zimmasiga oladi va u tinchlik xavf ostida qolgan kecha yoki kunduzning har qanday daqiqasida chaqirilishi mumkin.

Kengash 15 a‘zodan tashkil topgan. Ularning beshtasi - Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Qirollik, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Fransiya - doimiy a‘zolar hisoblanadi. Kengashning qolgan o‘n a‘zosi Bosh Assambleya tomonidan ikki yil muddatga saylanadilar. Keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida Kengashning a‘zolar tarkibini o‘zgartirish, bu tadbir zamonaviy va iqtisodiy voqelikni yanada yorqinroq aks ettirishi masalasi muhokama qilinayapti. Kengashning qarorlari, uning uchun to‘qqiz a‘zo ovoz bergan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Kun tartibidagi masalaga Kengashning doimiy a‘zolaridan birortasi qarshi ovoz bersa, shuningdek, veto huquqidan foydalansa qaror qabul qilinmaydi. Xalqaro tinchlikka xavf solinganligi haqida kengashga xabar berilganda bu mojaro avvalo tinchlik yo‘li bilan bartaraf etish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Kengash, balki bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqadi yoki hakam vazifasini o‘taydi. Harbiy harakatlar boshlanib ketgan taqdirda Kengash o‘t ochishni to‘xtatish choralari ko‘radi. Shuningdek, u tomonlarni yarashtirish yoki bir-birlari bilan janjallashayotganlarni ajratishga yordam beradigan, tinchlikni barqaror etuvchi missiya yuborishi mumkin.

Kengash o‘zi qabul etgan qarorlarning bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar qabul qilishi mumkin. U iqtisodiy jazo choralari qo‘llashi yoki qurollarni yetkazib berishga embargo qo‘yishi mumkin. Juda kamdan-kam hollarda Kengash o‘zi qabul qilgan qarorni bajarish uchun a‘zo-mamlakatga birgalikdagi harbiy harakatlarga qadar bo‘lgan "barcha zarur vositalarni" qo‘llashga vakolat beradi. Shuningdek, Kengash Bosh kotib lavozimiga muayyan nomzodni va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a‘zolarini tavsiya etadi.

Bosh Assambleya

Bosh Assambleya - o‘ziga xos butunjahon parlamentining insoniyatning eng dolzarb muammolari ko‘rib chiqilayotgan majlislarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a‘zosi bo‘lgan barcha mamlakatlar vakillari qatnashadi. Har bir a‘zo-mamlakat bir ovozga ega. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni muayyan darajada saqlab qolish tavsiyalari yangi a‘zolarini qabul qilish yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti budjetini tasdiqlash, shu jumladan, tinchlikni saqlash operatsiyalariga mablag‘ ajratish singari muhim masalalar ko‘pchilik, aniqrog‘i, uchdan ikki qism ovoz bilan qabul etiladi.

Boshqa masalalar bo'yicha qarorlar, odatdagidek, ko'pchilik ovoz bilan qabul etilaveradi. Keyingi yillarda Assambleya qarorlari rasmiy ovoz berish yo'li bilan emas, balki, konsensus asosida qabul etilishi uchun maxsus sa'y-harakatlar olib borilmoqda. 1999/2000 yilgi sessiyalarda yadroviy qurolsizlanish, taraqqiyot, atrof muhitni muhofaza etish va yangicha demokratiyani mustahkamlash singari kun tartibidagi turli-tuman 173 masala ko'rib chiqilishi kerak edi. O'z qarorlari g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lsa ham, ular jahon jamoatchiligi fikrlarini ifodalasa va xalqaro jamoatchilikning axloqiy talabi hisoblansa ham Assambleya o'z qarorlarini majburan qabul qildirmaydi.

Assambleyaning har yilgi navbatdagi sessiyasi sentabrdan dekabrga qadar bo'lgan muddat davomida o'tkaziladi. Assambleya zarurat tug'ilganda o'z ishini qayta chaqirilgan sessiyada davom ettirishi yoki jiddiy tashvish tug'dirgan masalalar bo'yicha maxsus yoki favqulodda sessiyalar o'tkazishi mumkin. Assambleyalar orasidagi muddat davomida uning ishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita bosh qo'mitalarida, boshqa organlarida va Kotibiyatda davom etadi.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash Bosh Assambleyaning umumiy rahbarligi ostida harakat qilib Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tizimidagi muassasalar faoliyatini ijtimoiy va iqtisodiy sohada muvofiqlashtirib turadi. Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama etish va shu sohadagi siyosat borasida tavsiyalar ishlab chiqish uchun bosh anjuman hisoblangan Kengash taraqqiyot maqsadlarida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Kengash ish faoliyatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Fuqarolar jamiyati o'rtasidagi o'sha muhim hayotiy muloqotni qo'llab-quvvatlagan holda tegishli nohukumat tashkilotlari bilan maslahatlashadi.

Kengash tarkibiga Bosh Assambleya tomonidan uch yilga saylanadigan 54 nafar a'zo kiradi. Kengash har yili - Nyu-York va Jenevada, galma-galdan - o'zining bir oy muddatga cho'ziladigan sessiyasini o'tkazadi. Sessiya davomida muhim iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni muhokama etish uchun ministrlar darajasida majlis, 1998 yildan esa sessiya doirasida insonparvarlik masalalarini ko'rib chiqish bosqichi o'tkazilmoqda.

Kengashning ishlari yil mobaynida o'z yig'ilishlarini muntazam o'tkazib turadigan va Kengashga hisobot beradigan yordamchi tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Masalan, inson huquqlari komissiyasi dunyoning barcha mamlakatlarida inson huquqlariga qanday rioya etilayotganligini nazorat qiladi. Boshqa tashkilotlar ijtimoiy taraqqiyot, xotin-qizlarning ahvoli, jinoyatchilikdan ogoh etish, giyohvandlikka qarshi kurash va atrof muhitni muhofaza etish masalalari bilan shug'ullanadilar. Beshta hududiy komissiya iqtisodiy taraqqiyot va o'z hududlarida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Vasiylik Kengashi

Vasiylik Kengashi 7 a'zo-mamlakat qo'l ostidagi 11 vasiylik hududida xalqaro nazoratni ta'minlash, shuningdek, ularning hukumatlari bu hududlarda o'z-o'zini boshqarish yoki mustaqillikning zarur chora-tadbirlarini ko'rishlari uchun xalqaro nazoratni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. 1994 yilga kelib vasiylik hududlarining barchasi o'zlarini boshqara boshladilar yoki alohida davlatga aylanib mustaqillikka erishdilar, yoxud mustaqil qo'shni davlatlar bilan qo'shilishdi. Eng oxiri bo'lib bunday tadbirni Qo'shma Shtatlari qo'l ostida bo'lgan Tinch okean orollari (Palau) vasiylik hududi amalga oshirdi va 185-a'zo davlat bo'lib qoldi.

Hozirgi paytda, tarkibiga Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a'zosi kirgani sababli Vasiylik Kengashi ishlari, asosan, tugallandi, uning ish tartibi qoidalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, ya'ni u o'zining yig'ilishlarini faqat shart-sharoit taqozo etgan hollardagina o'tkazadigan bo'ldi.

Xalqaro Sud

Xalqaro Sud - Butunjahon sudi sifatida hammaga ma'lum bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh sud organidir. Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan saylangan 15 sudyadan tashkil topgan Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi mojarolarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Davlatlarning - sud muhokamasida qatnashishlari ixtiyoriydir, biroq davlatlar shunga rozi bG'lsalar, ular Sud qaroriga bo'ysunishlari shart. Shuningdek, Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi iltimoslari bilan Sud konsultativ xulosalar chiqarish ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Kotibiyat

Kotibiyat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik Kengashi va boshqa tashkilotlari ko'rsatmalariga muvofiq tezkor va ma'muriy ishlarni amalga oshiradi. Uni umumiy ma'muriy rahbarlikni olib boradigan Bosh kotib boshqaradi. Hozirgi vaqtda Kotibiyat qariyb dunyoning 160 mamlakatidan bo'lgan 8900 kishi ishlaydigan yetti deportament va turli boshqarmalardan tashkil topgan. Bundan tashqari Nyu-York, Jeneva, Vena va Nayrobida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan millatlar tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamkorligi

O'zbekiston 2011-yil 2-oktabrda FAO a'zosi bo'ldi.

Institutsional hamkorlik FAO bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mas'ul organ - Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilot vakillari texnik loyihalarni amalga oshirish doirasida bir necha marta O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurganlar.

FAO bilan munosabatlarni rivojlantirish masalalari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga yuklatilgan. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi vakillari FAO tomonidan

qishloq xo'jaligidagi hosildorlikni oshirish, turli transchegaraviy hayvon kasalliklarini tarqalishiga to'sqinlik qilish, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha salohiyatni oshirish maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok etishmoqda.

FAOning O'zbekistonga ko'rsatayotgan texnik ko'magi quyidagilardan iborat:

- sabzovot urug'larini ishlab chiqarish dasturini rivojlantirish;
- o'rmon xo'jaligining yog'och bo'lmagan mahsulotlar sektorini qo'llab-quvvatlash milliy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- kam suv sarflaydigan texnologiyalarni Podshoota daryosining sayoz joylariga joriy qilish;
- baliq ovlash va yem-xashak tayyorlash jarayonini tashkillashtirishga ko'mak ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi innovatsion tizimlarini tahlil qilish va takomillashtirish salohiyatini rivojlantirish;
- sug'oriladigan maydonlarda kam resurs sarflaydigan texnologiyalarni joriy etish;
- baliqchilik va suv xo'jaligi madaniyatlarini rivojlantirish;
- pestitsidlarni nazorat qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish;
- chigirtkalar bosqiniga qarshi kurashish;
- yuqori-patogen qush gripini nazorat qilish va uni yo'q qilish;
- transchegaraviy hayvon kasalliklarini nazorat qilish.

FAO bilan hamkorlik doirasida O'zbekistonda 1,5 million AQSh dollari miqdorida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston tashkilotning mintaqaviy loyihalari bilan ishlashda faol ishtirok etmoqda (ularning umumiy summasi taxminan 6,9 million AQSh dollarini tashkil etadi).

2014-yilning 4-6-iyun kunlari FAO Bosh direktori Joze Gratsiano da Silva O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Toshkent shahrida Tashkilotning vakolatxonasi ochilishi haqida Shartnoma imzolandi. 2014-yil 28-avgustda FAOning «O'zbekiston uchun FAO Doiraviy hamkorlik dasturi» imzolandi.

2015-yil 15-19-mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirining o'rinbosari Ya.Hidirov boshchiligidagi respublika delegatsiyasi Anqaradagi Markaziy Osiyo bo'yicha FAOning submintaqaviy idorasiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida bir qator loyihaviy shartnomalar imzolandi.

2015-yil 4-8-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vaziri Sh.Teshaev boshchiligidagi delegatsiya Rim shahrida FAOning 39-majlisida ishtirok etdi.

Tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi FAO Bosh direktori lavozimiga J.G.da Silva nomzodini qo‘llab-quvvatladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) o‘rtasidagi hamkorlik

BMTTD O‘zbekistonda o‘z faoliyatini 1993-yildan buyon “O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi o‘rtasidagi kelishuv” (1993-yil 10-iyunda imzolangan va 2000-yil 25-aprelda qo‘shimchalar kiritilgan) asosida amalga oshirib kelmoqda.

BMTTDning doimiy vakili bir vaqtning o‘zida O‘zbekistondagi barcha BMT vakolatxonalarining operativ faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Hozirgi vaqtda Toshkentdagi BMT va BMTTDning doimiy vakili Stefan Prisner hisoblanadi.

1999-yildan buyon loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish BMTTDning Davlat hamkorlik dasturi (DHD) asosida olib borilmoqda va bu dastur avvaliga uch yillik (2005-yilgacha), keyin besh yillik hamkorlik dasturi va hozirda olti yillik dastur amalga oshirilmoqda.

DHDning asosiy maqsadi – Respublika Hukumatiga qisqa va o‘rta muddatli muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirish uchun texnik va konsultativ ko‘mak ko‘rsatish.

O‘zbekiston Respublikasi va BMTTD o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari BMTning 2010-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish maqsadida yordam ko‘rsatish doirasidagi dasturi, BMTTDning 2010-2015-yillar uchun DHDsi va 2010-2015-yillar uchun DHDni amalga oshirish rejalarida ko‘rsatilgan.

2011-yil 22-25-may va 2014-yil 15-20-oktabr kunlari BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, BMTTD rahbari H.Klark O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

Tashriflar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov, Bosh vazirning birinchi o‘rinbosari, moliya vaziri R.Azimov, Tashqi ishlar, Iqtisodiyot va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirlari bilan uchrashdi. Shu bilan birga, H.Klark Toshkent, Buxoro va Xorazm viloyatlariga bordi.

1993-yildan 2014-yilgacha BMTTD O‘zbekistonda umumiy miqdori 191,6 mln. AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan 227 ta loyihani amalga oshirdi. 2015-yilda BMTTD 15,7 mln. AQSh dollari miqdorida 29 loyiha amalga oshiryapti. BMTTD milliy davlat tashkilotlariga quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘mak berib kelmoqda:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida boshqaruv va kam ta‘minlanganlikka qarshi kurashish (qishloq joylarini rivojlantirish, xususiy sektor va mikro kreditlash, siyosiy maslahatlarni ishlab chiqish va taqdim etish mavqeyini oshirish, hamda OIV/OITSGa qarshi kurash, IKTni rivojlantirish);

- yer resurslarini va energiya ta'minotini boshqarish (bioxilma-xillikni saqlab qolish, yerdan samarali foydalanish, chiqindilarni yo'q qilish va ifloslanishga qarshi kurashish, energiyadan ratsional foydalanish);

- demokratiyalashtirish sohasidagi jarayonlarni muvofiqlashtirish (milliy mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik institutlarni rivojlantirish).

O'zbekiston Respublikasining Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VHO) bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi ixtisoslashgan muassasa hisoblanib, 1948-yil 7-aprelda tashkil topgan. (Ushbu sana jahon sog'lig'i kuni sifatida nishonlanadi).

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining asosiy maqsadi - barcha insonlarning maksimal darajada sog'ligini ta'minlash, davlatlarga har tomonlama texnik yordam ko'rsatish va bu borada eng yangi ma'lumotlarni yetkazib berish hamda har bir mamlakatda sog'liqni saqlash tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda ko'maklashishdan iboratdir.

JSST sog'lomlik holatini kasalliklarning yo'qligida emas, insonning to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy saodati sifatida ko'radi. Yani JSST nafaqat sog'liqni saqlash tizimi bilan ish olib boradi, balki sog'liqqa ta'sir etuvchi bir qator boshqa sohalar bilan hamkorlikni olib boradi.

JSSTga 193 davlat a'zodir. Tashkilotning asosiy organi Butunjahon sog'liqni saqlash assambleyasi (BSSA) hisoblanib, uning asosiy vazifasi JSSTning dasturi hamda byudjetini kelayotgan ikki yilga tasdiqlash va shu bilan bog'liq masalalar yechimini topishdan iboratdir.

Kundalik ishlar bosh direktor rahbarligidagi Kotibiyat tomonidan amalga oshiriladi.

JSST ning ijro etuvchi qo'mitasi sog'liqni saqlash sohasida malakli 34 a'zodan iborat. Qo'mitaning asosiy vazifasi Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining qarorlarni hayotga tadbiq etish, konsultativ yordam ko'rsatish hamda assambleyaning ishlariga ko'maklashishdan iborat.

JSST ning bosh direktori 5 yilga ikki marttadan ortiq bo'lmagan muddatga saylanadi. 2017 yilning iyul oyidan boshlab, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Teedros Adhan Gebrees.

1992-yil 25-may kuni O'zbekiston Respublikasi JSSTga a'zo bo'ldi. 1993 yilda respublikada JSSTning aloqalarni muvofiqlashtiruvchi Byurosi tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi va JSST o'rtasidagi hamkorlik aloqalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda JSSTning Evropa mintaqaviy byurosi o'rtasida ikki yil muddatga tuziladigan bitim asosida amalga oshiriladi.

JSST Yevropa mintaqaviy qo‘mitasining 2015-yil 14-17-sentabr Vilnyus shahrida o‘tkazilgan 65-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va JSSTning Yevropa mintaqaviy byurosi o‘rtasida 2016-2017-yillar uchun hamkorkik bitimi tuzildi. Mazkur bitim doirasidagi JSSTning O‘zbekiston uchun ajratadigan mablag‘i 3 mln. dollarni tashkil etadi.

Ayni paytda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Lian Kuppens (Niderlandiya) hisoblanadi.

JSSTning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda mamlakatimizda quyidagi loyihalarni amalga oshirib kelmoqda:

- infeksiyon kasalliklarga qarshi kurashish (OITS, sil, poliomelit, bezgak, qizamiq va boshqalar);

- onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasidagi dasturlar (immunizatsiya dasturlarini kengaytirish, o‘tkir respirator virusli infeksiyalarga qarshi kurashish);

- favqulotda holatlarga tayyorgarlikni oshirish va ularning ta’sirini kamaytirish dasturlari (Afg‘onistonga chegaradosh hududlarda)

- atrof-muhit va salomatlikni ta’minlash dasturlari (oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, xalqaro sanitar qoidalar va b.);

- tamaki, alkohol mahsulotlariga qarshi kurashish, narkotik moddalarga qaramlikni oldini olish dasturlari;

- dori-darmon va farmatsevtika;

- “barcha uchun salomatlik” dasturlari va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (VIPO) bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti hukumatlararo tashkilot hisoblanib, uning bosh qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. 1883-1886-yillar davomida Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi va Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi qabul qilingandan so‘ng Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga asos solindi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti 1974-yildan buyon BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasa hisoblanadi. Ushbu tashkilotga bugungi kunda dunyoning 79 mamlakati a’zodir.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti a’zo-davlatlarning milliy patent tizimini rivojlantirishda metodik va texnik yordam ko‘rsatib, O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi (IMA) mutaxassislarining bu boradagi salohiyatini oshirishda, turli seminarlarni tashkillashtirish va olib borishda IMA ga texnik yordam ko‘rsatishga ko‘maklashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikning asosiy maqsadlari bu - sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida milliy qonunchilik hamda mazkur yo‘nalishdagi normativ-huquqiy normalarni

mukammallashtirish, shu sohadagi bir qator shartnoma va kelishuvlarga qo‘shilish hamda O‘zbekiston Respublikasi IMAI va BIMT bilan yuridik va texnik aloqalarni doimiy ravishda olib borishdan iboratdir.

Toshkent shahrida BIMT hamkorligida intellektual huquq va an’anaviy bilim himoyasi masalalari bo‘yicha turli xalqaro seminar va konferensiyalar olib borilmoqda.

Intellektual mulk masalalari bo‘yicha habardorlikni oshirishdagi hamkorlik ham rivojlanmoqda. Respublikamiz vakillari Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasida o‘tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etib, o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi vakillari Butunjahon intellektual mulk tashkilotining quyidagi tadbirlarida faol ishtirok etadilar:

- Jahon intellektual mulk tashkilotining Tovar belgilari, sanoat namunalari va geografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha doimiy qo‘mitasi yig‘ilishlari;
- Tashkilotning intellektual mulk, genetik resurslar, an’anaviy bilimlar va folklor bo‘yicha davlatlararo qo‘mitasining sessiyalari;
- BIMT assambleyasi yig‘ilishlarida

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari yuqori darajada rivojlanib bormoqda, deb hisoblash mumkin. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi BIMT bilan o‘zaro hamkorlik doirasi aniqlovchi kelishuvga ega.

O‘zbekiston Respublikasining BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YuNESKO) 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash yo‘lida ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, hamda irqi, jinsi, tili va diniga qaramasdan barcha xalqlar uchun BMTning Nizomida mustahkamlangan asosiy inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlanishiga hissa qo‘shishdir.

YuNESKOning Bosh qarorgohi Parij shahrida joylashgan. Tashkilotning Bosh rahbari – O‘dri Azule (Fransiya). 2017-yil oktabr oyida tashkilotning bosh anjumanining 39-sessiyasida ushbu lavozimga saylangan.

YuNESKO ilm-fan, madaniyat va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlari orqali faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston YuNESKO bilan 1993-yil 26-oktabrdan buyon hamkorlik qilib keladi. YuNESKOning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi 1996-yil 23-apreldan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston YuNESKO faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston YuNESKO Ijroiya kengashiga ikki marta saylangan (1997-2001 va 2009-2013 yy.).

O‘zbekiston Respublikasining takliflariga binoan quyidagi tadbirlar YuNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda nishonlangan:

- 1994-yil - Mirzo Ulug‘bek tavvaludi 600 yilligi;
- 1996-yil - Amir Temur tavvaludi 660 yilligi;
- 1997-yil - Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;
- 1998-yil - Imom Buxoriyning 1225 yilligi va Ahmad Farg‘oniyning 1200 yilligi;
- 1999-yil - “Alpomish” eposining 1000 yilligi;
- 2000-yil - Kamoliddin Behzodning 545 yilligi;
- 2001-yil - “Avesto” ning 2700 yilligi;
- 2002-yil - Tezmiz shahrining 2500 yilligi va Shahrisabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003-yil - Abduxoliq G‘ijduvoniyning 900 yilligi;
- 2005-yil - Qarshi shahrining 2700 yilligi va Mamun akademiyasining 1000 yilligi;
- 2007-yil - Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi;
- 2009-yil - Toshkent shahrining 2200 yilligi.

O‘zbekistonning YuNESKO bilan o‘zaro hamkorligi chet elda o‘zbek musiqa madaniyatini ommalashtirish imkoniyati bermiqda.

Jumladan, Samarqand shahrida YuNESKO shafeligida muntazam o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali bunga yorqin misol bo‘la oladi.

1995 yilda YuNESKO bilan hamkorlikda Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. Hozirgi kunda institutning 8 ta bo‘linma va 10 markazi, shuningdek, 34 ta YuNESKoga biriktirilgan maktablari O‘zbekistonda faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YuNISEF o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi Asosiy bitim Toshkent shahrida 1994-yil 19-dekabrda imzolangan. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yil 22-dekabrda ratifikatsiya qilindi.

YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi 1994-yil 1-mart kuni ochilgan. 1994-yildan 2000-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi bilan YuNISEF o‘rtasida Birinchisi Davlat dasturi; 2000–2004-yillar mobaynida Ikkinchi Davlat dasturi

amalgaga oshirildi. Unga ko'ra, 19 mln. AQSh dollari ajratilgan. 2009-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi va YuNISEF o'rtasida 2010–2015-yillarga mo'ljallangan Uchinchi Davlat dasturi imzolandi. Ushbu dastur doirasida YuNISEF mamlakatdagi loyihalarni moliyalashtirishni yiliga 5 million dollardan 7 million dollargacha oshirdi. YuNISEFning 2010–2015-yillar uchun mo'ljallangan umumiy yordami \$42,234 mln.ni tashkil etadi, shundan \$19,734 mln.i YuNISEF jamg'armalari, \$ 22,5 mln.i donorlar hisobiga amalga oshirilgan.

YuNISEFning O'zbekistondagi faoliyati Fondning Davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi va quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- aholi farovonligini oshirishga ko'maklashish;
- onalik va bolalikni himoya qilish;
- bolaning hayotini yaxshilashga yordam berish.

Bundan tashqari, YuNISEF bola tug'ilishini belgilashning, xavfsiz onalik, onadan bolaga o'tadigan OIV / OITS infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha xalqaro mezonlarni O'zbekistonda tatbiq etishni qo'llab-quvvatlash uchun harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, vakolatxona quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi:

- qizamiq, poliomielitni bartaraf etish, chaqaloqni emlash qamrovini oshirish, diareya va nafas olish infeksiyalari kabi bolalik kasalliklarini boshqaruvini takomillashtirish orqali kasallikka qarshi himoyani rag'batlantirish;

- yod tanqisligi bilan bog'liq salomatlik muammolarini tuzning umumiy yodlashuviga erishish orqali hal etish;

- 6 - 9 oylik bolalar uchun A vitamini qo'shimchalarini bolalar salomatligini yaxshilash va chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish strategiyasi sifatida ta'minlash;

- bola tug'ish yoshidagi ayollar, homilador ayollar va mamlakatning tanlab olingan eng zaif hududlaridagi bolalarda uchraydigan kamqonlikni kamaytirish uchun temir qo'shimchalari bilan ta'minlash;

- bolalik yoshidagi kasalliklarga, emlashning xavfsiz usullari, laktatsiyani boshqarish va vitamin yetishmasligini nazorat qilishni birlamchi tibbiy yordam tarkibiga kiradigan tibbiyot maktablarining o'quv dasturlariga tatbiq etishni ta'minlash.

2016-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va YuNISEFning Toshkentdagi vakolatxonasi o'rtasida 2016-2020 yillarga mo'ljallangan yangi Davlat dasturi imzolandi.

Mazkur Davlat dasturi BMTning Taraqqiyot uchun yordam ko'rsatish bo'yicha Asosiy dasturi (UNDAF)ni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Umumiy byudjeti 32,7 million dollarni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari

Xalqaro konvensiya va BMT rezolyutsiyalariga binoan, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti asosiy maqsadlari a‘zo davlatlarda narkotik moddalarni nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko‘maklashish, shuningdek jinoiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarni oldini olishdan iborat.

BMT Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi Markaziy Osiyo davlatlariga noqonuniy giyohvand moddalar savdosi va iste‘molini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek terrorizmga aloqador jinoyatlarga jazo berish va terrorizm haqida ogohlikka chaqirish sohasida ko‘maklashib kelmoqda.

Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, uning mintaqaviy ofislari Bishkek (Qirg‘iziston), Dushanbe (Tojikiston), Ashxobod (Turkmaniston), Ostona va Olma-Ota (Qozog‘iston), shuningdek Boku (Ozarbayjon) shaharlarida ham mavjuddir.

O‘zbekiston o‘zining 30 millionlik aholisi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanmasi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha masalalarni hal etishda O‘zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot bilan hamkorlikda quyidagi qo‘shma loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda:

1. “Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi (CARICC)ni tashkil etish” mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 15,4 mln. AQSh doll.). Loyiha doirasida CARICC ni tashkil etish bo‘yicha shartnomaning ishtirokchi-davlatlari milliy koordinatorlari Kengashining bir qancha yig‘ilishlari o‘tkazilib, unda yaqin kelajakdagi faoliyatning asosiy yo‘nalishlari belgilab olinmoqda va dolzarb masalalar ko‘rib chiqilmoqda.

2. “Treatment II – narkotik moddalarga qaramlikni oldini olish va uning sog‘liq uchun salbiy oqibatlari” mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1 mln. 490 ming AQSh doll.). Loyiha doirasida Respublikaning vazirlik va idoralari mutaxassislari psixotrop moddalarni iste‘mol qilish natijasida jabrlangan

insonlarni himoya qilishning samarali strategiyalarini qo‘llab-quvvatlash va targ‘ibot qilish sohasida xalqaro standartlarga va konvensiyalarga mos keladigan maxsus o‘quv kurslarida o‘z malakalarini oshirib kelmoqdalar.

3. “Oilaviy hayot ko‘nikmalarini shakllantirish dasturi vositasida yoshlar o‘rtasida psixoaktiv moddalarning noqonuniy iste‘mol qilinishi, OIV/OITS va jinoyatchilikni oldini olish” mintaqaviy loyihasi. O‘zbekiston ushbu loyihada 2017-yilga qadar ishtirok etadi. Hozirgi kunda ushbu loyiha doirasida Toshkent shahri va respublikaning uch viloyatida maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun “Oila va maktab birgalikda” dasturi amalga oshirilmoqda.

4. “Chegara punktlarini mustahkamlash orqali Afg‘onistonning shimoliy marshrutlari orqali o‘tuvchi noqonuniy opiatlarning aylanishiga qarshi kurashish” mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1,3 mln. AQSh doll.).

O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi va tranzit orqali MDH mamlakatlariga o‘tuvchi shaxslar va transport vositalarining asosiy oqimi o‘zbek-tojik chegarasidagi «Oybek-avtoyo‘l» o‘tkazuv punkti orqali amalga oshirilishi hisobga olingan holda, asosiy texnik hamkorlik oqimi ushbu nazorat-o‘tkazuv punktiga yo‘naltirilgan.

5. “BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkilotining konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo‘yicha global dasturi”. Konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo‘yicha global dastur (GPCT) 2004-yilda BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini birlashtirish orqali bu kabi jinoyatchilik faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida ishlab chiqilgan.

GPCTning o‘n yillik amalda bo‘lish davrida katta yutuqlarga erishildi. O‘zining amaliyotga tadbiiq etilishidan so‘ng GPCT port nazorati bo‘yicha 30 dan ortiq tezkor bo‘linmalarni tashkil qildi, bu esa, o‘z navbatida, narkotik va boshqa taqiqlangan mahsulotlarning, xususan, 100 tonna kokain, 3 mln tonna heroin, 60 tonna kannabis va taqiqlangan narkotik moddalar ishlab chiqishda qo‘llaniluvchi 1273 tonna miqdoridagi kimyoviy modda-prekursorlar, shuningdek, sigaretalar, avtomobillar, dori vositalari, elektron chiqindilar, xavfli materiallar va yovvoyi hayvonlar kabi taqiqlangan tovarlar va narkotik moddalarni aniqlash va musodara qilishning sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

6. “Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjondagi prekursorlar ustidan nazorat qilish” mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 6 mln. AQSh doll.). Ushbu loyiha doirasida treninglar, seminarlar, turli uchrashuvlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularda mamlakatimizning turli tashkilotlaridan 200 dan ortiq vakil ishtirok etdi.

Vazirlik va idoralar kompyuter va laborator uskunalari, transport va texnik vositalar, materiallar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlandi.

Shuningdek, loyiha huquq-tartibot organlarining Afg'onistonga kimyoviy prekursorlar noqonuniy olib o'tilishini oldini olish bo'yicha mintaqaviy va milliy operatsiyalarini moliyalashtiradi.

7. "Markaziy Osiyo va Afg'oniston Islom Respublikasi davlatlari huquqni muhofaza qilish organlari shaxsiy tarkibini narkotik moddalarga qarshi kurash sohasida malakasini oshirish", Rossiya-NATO Kengashi mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 2.140.000 AQSh doll.). Loyiha doirasida narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha bo'linmalar xodimlarini tayyorlashda Domodedovo xalqaro idoralararo markazida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi Oliy harbiy bojxona institutida, Bishkekda, Ashxobodda, Anqaradagi TADOK Akademiyasida huquq-tartibot organlarining hamda mas'ul davlat idoralarida treninglar o'tkazilmoqda.

2016-yil 20-oktabr kuni Toshkent shahrida BMT Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Mintaqaviy vakolatxonasi hamda O'zbekiston Respublikasidagi Yaponiya Elchixonasi o'rtasida XAS/Z60 "Idoralararo mobil guruhlar tashkil etish orqali O'zbekistonda afg'on narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash" loyihasi ijrosi uchun Yaponiya hukumati tomonidan 2.5 million AQSh dollari miqdorida beg'araz yordam (grant) ajratilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu mablag' narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq masalalar yechimiga, texnik vositalar ajratish va treninglar tashkil etish orqali respublika mutasaddi tashkilotlari salohiyatining oshirishga yo'naltirilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, 2016-yil Toshkent shahrida BMTning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo davlatlari uchun UNODCning 2015-2019-yillarga mo'ljallangan Dasturi Boshqaruv qo'mitasining birinchi yig'ilishi, "Jinoiy ishlarni tergov qilishda va sudda ko'rib chiqishda elektron dalillarni olish va ulardan foydalanish" mavzusida prekursorlar bo'yicha Mintaqaviy ishchi guruhining (RVGP) navbatdagi Mintaqalararo o'quv seminari va boshqa tadbirlari bo'lib o'tdi.

9- Mavzu: O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosif faoliyat konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo‘lning samarali davom ettirilishi mamlakatda keng ko‘lamli islohotlarni va demokratik o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishini ta‘minlashda eng muhim omil hisoblanadi.

Ochiq tashqi siyosatning faollashuvi natijasida xorijiy mamlakatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda salmoqli natijalarga erishildi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada kengaydi, xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik va xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muloqot o‘rnatildi, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar hal etilmoqda.

Shu bilan birga, Tashqi ishlar vazirligi tizimidagi ishlarning amaldagi holatini tahlil qilish, birinchi navbatda, davlatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish borasida qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator jiddiy muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

birinchidan, amaldagi normativ-huquqiy baza diplomatik xizmatning barcha masalalarini to‘liq tartibga solmaydi, to‘plangan huquqiy va amaliy tajribani to‘liq aks ettirmaydi, shuningdek, zamon talablariga mos kelmaydi;

ikkinchidan, tashqi siyosiy idoraning tashkiliy-shtat tuzilmasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy sohalardagi strategik vazifalarni hal etish uchun mavjud resurslarni samarali safarbar qilishga yo‘naltirilmagan;

uchinchidan, davlat organlarining Tashqi ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari bilan o‘zaro hamkorligining, shuningdek, xorijiy sheriklar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turistik hamkorlikni rivojlantirish masalalarida samarali va muvofiqlashtirilgan ishlarni olib borishning aniq belgilangan mexanizmlari mavjud emas;

to‘rtinchidan, tashqi siyosiy idoraning ishlarini axborot-tahliliy jihatdan ta‘minlash va rejalashtirish qisman amalga oshirilmoqda, tashqi siyosatning ustuvorligi bo‘yicha ishlab chiqilayotgan takliflar mamlakat tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish masalalarini lozim darajada hisobga olmayapti;

beshinchidan, mamlakatdagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar va respublikaning xalqaro tashabbuslari haqida jahon hamjamiyatini xabardor qilish ishlari sust tashkil etilgan bo‘lib, mamlakatning ijobiy imidjini yaratish va xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash vazifalari samarali bajarilishiga to‘sqinlik qilmoqda;

oltinchidan, konsullik muassasalari faoliyatida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining tezkorlik va sifat darajasi, O‘zbekistonning xorijdagi jismoniy va

yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlari samarali himoya qilinishini ta'minlash, og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga yordam ko'rsatish darajasi qoniqarsiz ahvolda qolmoqda;

yettinchidan, xorijdagi vatandoshlarimiz bilan tizimli muloqot yo'lga qo'yilmagan, respublikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar loyiha hamda dasturlarni amalga oshirishda ularning salohiyatidan foydalanilmayapti;

sakkizinchidan, kadrlar siyosatining samarasizligi, shuningdek, tashqi siyosiy idora xodimlarining moddiy rag'batlantirilishi va ijtimoiy himoyalani shuning past darajada ekanligi yuqori malakali diplomatik tarkibni shakllantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklamoqda, diplomatik xizmatning obro'sini tushirmoqda va malakali mutaxassislarning sohani tark etishiga sabab bo'lmoqda;

to'qqizinchidan, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmasligi ustuvor vazifalarni hal etishga to'sqinlik qilmoqda, tezkor tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabat bildirishni, shuningdek, "raqamli diplomatiya" vositalarini rivojlantirish imkonini bermayapti.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi vazifalariga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini isloh etishning eng muhim yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

birinchidan, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari faoliyati va tashkiliy-shtat tuzilmasining normativ-huquqiy asoslarini "iqtisodiy diplomatiya"ni rivojlantirishga urg'u bergan holda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

ikkinchidan, respublikaning yagona tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda Tashqi ishlar vazirligining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, shuningdek, tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu yo'nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilab qo'yish va ajratish;

uchinchidan, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari faoliyatiga mamlakatimiz mahsulotlari, ishlari (xizmatlari) eksportini kengaytirish va diversifikatsiya qilish, investitsiyalar, ilg'or texnologiyalar va turistlar oqimini mamlakatga jalb etishga yo'naltirilgan yangicha yondashuv va usullarni joriy etish;

to‘rtinchidan, eng avvalo, milliy va xorijiy ekspertlar jamoalari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ilmiy doiralar bilan muntazam hamda maqsadli axborot almashish ishlarini kuchaytirish orqali O‘zbekistonning ijobiy xalqaro nufuzini shakllantirishda “ommaviy diplomatiya” vositalarini faol qo‘llash;

beshinchidan, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish, xoriydagi vatandoshlarimiz bilan har tomonlama muloqotni qo‘llab-quvvatlash, ularni savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ijtimoiy loyihalar hamda dasturlarni amalga oshirishga faol jalb qilish;

oltinchidan, ichki idoraviy rejalashtirish va nazorat qilishning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish, hisobot berish tartibi va shakllarini soddalashtirish, Tashqi ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasining xoriydagi muassasalari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini shakllantirish;

yettinchidan, diplomatik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, rotatsiyasini ta‘minlash hamda istiqbolli zaxirasini shakllantirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish orqali Tashqi ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasining xoriydagi muassasalarida kadrlar siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqish;

sakkizinchidan, diplomatik xizmat organlari xodimlarining moddiy rag‘batlantirilishi va ijtimoiy himoya qilinishini yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

to‘qqizinchidan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, shuningdek, global axborot maydonida mamlakatimiz manfaatlarini ilgari surish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb qilish orqali Tashqi ishlar vazirligi tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tuzilmasida:

a) Tashqi iqtisodiy hamkorlik bosh boshqarmasi va uning tuzilmasiga kiruvchi:

Xorijiy investitsiyalar va moliyaviy-texnikaviy ko‘mak vositalarini jalb qilish boshqarmasi;

Eksport va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish boshqarmasi;

Hukumatlararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi;

Turizmni rivojlantirish sohasidagi xalqaro hamkorlik boshqarmasi;

b) Tashqi ishlar vazirligi Matbuot xizmati negizida Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi;

v) Konsullik boshqarmasi negizida Konsullik-huquq departamenti;

g) Xoriydagi vatandoshlar bilan aloqalar bo‘limi;

d) Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi va uning tarkibida Murojaatlarni qabul qilish sektori (call-center);

ye) Diplomatik servis xizmati negizida Diplomatik korpusga xizmat ko'rsatish byurosi;

j) "Jahon" axborot agentligi negizida "Dunyo" axborot agentligi va Media-markaz;

z) Tarjimonlar byurosi;

i) Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi negizida Tahlil va prognozlashtirish markazi;

k) Tashqi ishlar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo'limlari tashkil etilsin.

3. Xorijda stipendiantlarning malaka oshirishi, stajirovkasi va o'qishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga bo'ysunadigan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot markazi sifatida qayta tashkil etilsin.

4. Tashqi ishlar vazirligining xodimlarini moddiy rag'batlantirish va faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekistonning diplomatik va konsullik muassasalarini rivojlantirish Respublika jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasining diplomatik xizmati organlarini rivojlantirish jamg'armasi tuzilsin.

5. Belgilab qo'yilsinki, Tashqi ishlar vazirligi yagona tashqi iqtisodiy yo'lni amalga oshirish, mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati muvofiqlashtirilishini 1-ilovadagi sxemaga muvofiq amalga oshiradi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa davlat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga uning tashqi iqtisodiy sohasidagi asosiy vazifalari amalga oshirishida amaliy yordam ko'rsatilishini, shu jumladan, sifatli ishlangan ma'lumotnomalar, hujjatlar va materiallarni o'z vaqtida taqdim etgan holda ta'minlasin.

6. Belgilab qo'yilsinki:

diplomatik vakolatxona rahbari o'zi ishlab turgan davlatda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy yo'lni samarali davom ettirish, mamlakat manfaatlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surishni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasining oliy rasmiy vakili hisoblanadi;

oliy ma'lumotga ega bo'lgan, davlat va chet tillarini yaxshi biladigan, tegishli ishbilarmonlik, ma'naviy va kasbiy fazilatlariga ega bo'lgan, shuningdek, tarix,

madaniyat sohalarini, milliy an'analar va urf-odatlarini, O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini chuqur biladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi diplomatik vakolatxona rahbari bo'lishi mumkin;

o'zlari ishlab turgan mamlakatdagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari va davlat organlari rasmiy vakillari idoraviy mansubligi va hisobdorligidan qat'iy nazar, diplomatik vakolatxonaning rahbariga so'zsiz bo'ysunadi va zimmasidagi vazifalarni bajarishda o'z faoliyatini u bilan muvofiqlashtiradi.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi amaliyotiga quyidagilar kiritilsin:

a) respublikani rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini hisobga olib, xorijlik sheriklarning savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy va ilmiy-texnik imkoniyatlaridan, ular bilan hamkorlik darajasi va ko'lamidan, ularning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va o'rnidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini doimiy asosda ishlab chiqish.

Belgilansinki, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari vazirlik va idoralarning amaliy faoliyatida, shu jumladan, xorijiy sheriklar bilan aloqalarda mezon bo'lib xizmat qiladi;

b) tashqi iqtisodiy faoliyatga (mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini rivojlantirish, investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish, turistlar oqimini kengaytirish) va axborot-tushuntirish ishlariga alohida e'tibor qaratgan holda, xorijiy mamlakatlar bilan faol va tizimli ishlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari yillik "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va qabul qilish;

v) O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalariga yuboriladigan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutgan holda "tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari – Tashqi ishlar vazirligi – xorijdagi muassasa – Tashqi ishlar vazirligi, tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari" prinsipi asosida idoralararo kadrlar rotatsiyasi;

g) erishilgan natijalar va mavjud kamchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ma'lumot berish uchun har oyda tashqi ishlar vaziri tomonidan xorijiy muassasalar rahbarlarining o'zi ishlab turgan davlat va xalqaro tashkilot bilan hamkorlik qilish bo'yicha zimmasidagi vazifalarni va tasdiqlangan "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish jarayoni to'g'risidagi shaxsiy hisobotlarini eshitib borish.

8. Quyidagilar tasdiqlansin:

o'rta muddatli istiqbolda asosiy xorijiy sheriklar bilan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq.

Vazirlik va idoralar rahbarlari Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida va Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar va vazifalar o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlasin.

9. Belgilab qo'yilsinki, Tashqi ishlar vazirligining "Dunyo" axborot agentligi va Media-markazi, Tahlil va prognozlashtirish markazi, Tarjimonlar byurosi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi:

a) tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan respublikaning yagona tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish holatini muntazam ravishda tahlil qilsin va tahlil natijalarini har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga hamda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin;

b) Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda "Diplomatik xizmat to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlar loyihalarini belgilangan tartibda kiritsin;

v) Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

ishlab turilgan mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, tovarlar, ishlar (xizmatlar) qiymati indeksatsiyasini, shuningdek, valyuta kursining o'zgaruvchanligini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari xodimlarining ish haqlarini oshirish;

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalariga uzoq muddatli xizmat safariga yuborilgan xodimlarning lavozim maoshlari miqdorlarini besh yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqish amaliyotini joriy qilish bo'yicha takliflar kiritsin;

g) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2018 yil 1 oktabrgacha bo'lgan muddatda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy sheriklar o'rtasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rta va uzoq muddatli manfaatlariga asoslangan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini nazarda

tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy konsepsiyasi (yangi tahriri) loyihasini kiritsin;

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019 yil 1 yanvargacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan, joylarga chiqish orqali ularni tanqidiy o‘rganish yakunlari bo‘yicha takliflarni kiritsin;

ye) bir oy muddatda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini quyidagilarni nazarda tutgan holda kiritsin;

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta‘lim sifatini oshirish, shuningdek, mamlakatning zamonaviy tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda Universitet faoliyatining dolzarb vazifalari va yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish;

manfaatdor idoralarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda amaliyotda talab qilinadigan mutaxassislarning aniq maqsadni ko‘zlab tayyorlanishini ta‘minlash, shuningdek, ular orasidan diplomatik kadrlarning istiqbolli zaxirasini shakllantirish maqsadida bakalavriatda o‘qish muddatini va bakalavriatga qabul qilish kvotalarini kamaytirish;

“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” hamda “Xalqaro jurnalistika” mutaxassisliklari bo‘yicha bakalavrlar tayyorlashning yangi yo‘nalishlarini joriy qilish;

Universitetda xorijiy mamlakatlar delegatsiyalariga xizmat ko‘rsatish va rasmiy tadbirlar o‘tkazishni yuqori tashkiliy darajada ta‘minlaydigan professional tarjimon va gidlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish;

xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilish va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish istiqbollarini prognoz baholash bilan fundamental ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish orqali O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini tizimli tahlil qilishda Universitetning rolini kuchaytirish.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Tashqi ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini har chorakda Vazirlikning markaziy apparati va O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari rahbarlari va xodimlari, vazirlik va idoralar, soha tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari ishtirokida videokonferensaloqa rejimida tanqidiy ko‘rib chiqsin;

poytaxt hududida yer uchastkalari ajratilishini va O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchilari uchun uy-joylar va Tashqi ishlar

vazirligining diplomatik xodimlari uchun to'rtta ko'p kvartirali uy qurilishini hamda ularning 2019 yilning oxiriga qadar foydalanishga topshirilishini ta'minlasin;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari uchun xorijiy sheriklar bilan muzokara jarayonini, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar hamkorlik taqdimotini tashkil etish masalalari bo'yicha hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa masalalari bo'yicha, shu jumladan, joylarga borish orqali seminar va treninglar o'tkazilishini tashkil qilsin.

12. "Ipoteka-bank" ATIB, "Asaka-bank" ATB, "O'zsanoatqurilishbank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 noyabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2660-sonli va 2017 yil 23 oktabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3350-sonli qarorlarida nazarda tutilgan shartlar asosida elchilar va Tashqi ishlar vazirligi diplomatik xodimlari uy-joy hamda ko'p kvartirali uylardan kvartira sotib olishi uchun imtiyozli ipoteka kreditlari ajratish tavsiya etilsin.

13. Tashqi ishlar vazirligi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) bir haftalik muddatda Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining diplomatik xizmat organlarini rivojlantirish jamg'armasi nizomini tasdiqlashni nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritsin;

b) ikki oy muddatda:

qonun hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin;

o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur Farmonga muvofiqlashtirsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 25 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-769-sonli Farmoni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibi V.V.Maxmudov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M.Mavlonov va O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri A.X.Kamilov zimmasiga yuklansin.

GLOSARIY

AQIDAPARASTLIK - (aqida - arab. - ishonch, biror narsani ikkinchisiga bog'lash) muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga kat'iy ishonch va uni mutlaklashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni xamda ularni sharoit, xolat, vaziyatni xisobga olmagan xolda, ko'r-ko'rona qo'llash.

GEOSIYO SIY MUVOZANAT — ma'lum bir xududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barkarorlashtirish.

GLOBALLASHUV - jamiyatning barcha soxalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega, butun jaxon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv, xalqaro mexnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin xarakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatining qo'shilishi va yaqinlashuvi bilan bog'liq ob'ektiv jarayon.

DELIMITATSIYA— bu? (lot. – chegaralamoq, ajratmoq) davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofiq tavsiflash va xaritalashtirish asosida belgilash; belgilangan chegaralarni qayta ko'rib chiqish.

DINIY BAG'RIKENGLIK - turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qati nazar, ularning yonma-yon va uzaro tinch-totuv yashashi xamda xar bir diniy ta'limotga xurmat bilan qarash.

DINIY TASHKILOT - diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

DINIY EKSTREMIZM - jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot; diniy tashkilotlardagi o'ta mutaassib guruxlarning ashaddiy reaksiyon, dinni niqob qilib olgan, uning qonun-qoidalariga mafkuraviy tus berib, undan o'zlarining strategik geosiyosiy maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishga qaratilgan diniy-siyosiy xodisa.

JAMIYAT - insonlardan tashkil topgan ijtimoiy tuzum.

JAXON SIYOSATI - umumsayyoraviy moxiyatga ega bo'lgan, jaxon xamjamiyati takdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan siyosat.

INVESTITSIYA - iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa xar kandy boyliklar. Investitsiyalar - foyda olish xamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik ob'ektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari.

INVESTITSIYA SIYOSATI - investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni xal

qilish maqsadida iqtisodiy sub'ektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmui.

INVESTITSIYA VIY FAOLLIK - turli iqtisodiy sub'ektlar (davlat, korxonalar va tashkilotlar, jamg'armalar va x.k.)ning daromad olish maqsadida milliy yoki xorijiy iqtisodiyotlarga investitsiya resurslarini kiritishga intilishi.

INVESTITSIYA VIY XAMKORLIK - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir kurinishi bulib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mexnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabi natijalarni maqsad kilgan.

INVESTOR - xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash xaqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ekti. Investorlar - xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash xaqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish xuquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditor va xaridor rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishi mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan soxalarni aniqdaydi, shartnoma shartlarini ishlab chiqadi va investitsiya aktining boshqa sub'ektlari bilan — kontraktor, xukumat organlari, yakuniy maxsulot ishlab chiqaruvchilar va shu maxsulotning iste'molchilari bilan xiob- kitoblarni amalga oshiradi.

INTERNET XIZMATLARI - Internet tarmog'i abonentlariga amaliy protokollar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmui: veb xujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayllarni uzatish va qabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash va x.k.

KELISHUV BITIMI - o'zaro kelishishga asoslangan, da'vo talabi (talablari)ga nisbatan aniqlikka erishishga qaratilgan, nizoni xal qilish to'g'risidagi taraflarning yozma kelishuvidir.

KONFESSIYA - (lotin. - e'tirof, e'tiqod) muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va unga ergashuvchilar jamoasi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bulsada, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

KORRUPSIYA - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

KORRUPSIYAGA oid XUQUQBUZARLIK - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

KORRUPSIYA GA QARSHI KURASHISH - korrupsiyaga oid xolatlarni aniqlash, ularga barxam berish, shuningdek korrupsion jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish.

MAFKURA - fikr, g'oya va qarashlarning yagona va umumiy majmuasi.

MAFKURAVIY BUSHLIQ; kishilarda jamiyatdagi mavjud xolatni, ijtimoiy muxitni noto'g'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga buysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirilishiga zamin yaratilishi.

MAFKURAVII TARBIYA - inson, ijtimoiy gurux, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA - g'ayriinsoniy g'oya va mafkuralarning oldini olish, ularning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat, jamoat tashkilotlari tomonidan qo'riladigan chora-tadbirlar tizimi. Bu chora-tadbir g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir xudud, qatlam, guruxni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

MAFKURAVIY XAVFSIZLIK - shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan ximoyalanganlik darajasi.

MILLAT - (arab. - xalk) kishilarning yagona tilda suzlashishi, yaxlit xududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy xayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruxiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLATCHILIK - millatlarning tengligini inkor etib, uz millatini boshqa millatlardan yuqori qo'yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal kurish.

MILLATLARARO TOTUVLIK - milliy istiqolol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, u muayyan xudud, davlatda turli millat vakillarining xamjixat yashashi, xamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

MILLIY INTERNET SEGMENTI - jaxon global tarmog'idagi muayyan mintaqa axolisi foydalanadigan, ma'lumotlar uzatadigan va qabul qiladigan saytlar doirasi.

MILLIY XAVFSIZLIK — ma'lum bir davlatning ichki xavfsizligi.

MINTAQAVIY XAVFSIZLIK - ma'lum bir mintaqaga oid xavfsizlik. Masalan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, Yaqin Sharq xavfsizligi.

MUTAASSIBLIK - o'z fikr-muloxaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI (OAV) - ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan xamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va yoki elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli xamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari. OAV axborotni tarkatish vositalari bo'lib, ommaviy auditoriyaga yo'nalganligi, xammabopligi bilan ajralib turadi xamda matbuot, radio, televidenie, internetni uz ichiga oladi.

PETITSYa - davlat xokimiyati organlariga yoki maxalliy organlarga yuborilgan yozma shakldagi jamoaviy murojaat.

RADIKALIZM - (lotin. - tomir, ildiz, o'zak) maqsad-muddaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud axvolni tubdan o'zgartirishga intilish.

SAMMIT – bu? (ingl. – tepa, yuqori, cho'qqi; yuksak daraja) ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo'yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

SEPARATIZM - (lotin. - ajralib chiqishga, aloxida bo'lishga intilish) xokimiyatni Konstitutsiyaga zid yo'llar bilan qo'lga kiritishga intiluvchi kuchlarning siyosatga aralashishlari.

SIYOSIY BARQARORLIK - ma'lum bir davlat yoki mintaqada tinchlikni ta'minlashga qaratilgan izchil siyosat.

SIYOSIY JARAYoNLAR - davlat, mintaqa yoki jaxon miqyosidagi siyosiy faoliyat xarakati.

SIYOSIY SALOHIYaT - siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladigan qobiliyat, kuch-kudrat. Bu davlat arbobi yoki davlat qiyofasida namoyon bo'ladi.

TERROR - (lotin. - qo'rqitish, vaximaga solish) o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

TAShQI SIYoSATIMIZNING PRINSIPIAL POZITSIYaSI - hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obektlarini O'zbekiston hududida joylashishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqaridagi tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etmasligi, barcha ziddiyat va mojarolarni faqat siyosiy yo'l bilan hal qilishga sodiq qolish bilan izohlanadi. O'zbekiston hech qanday bloklarga a'zo bo'lmasdan turib muloqot uchun ochiq va barcha sheriklari bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

TAShQI SIYoSATIMIZNING BOSh USTUVOR YO'NALISHI -Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada

tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

TERRORIZM - siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning xayoti, sog'ligiga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob'ektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir xarakterli sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, xududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, axolini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.

UYUSHGAN JINOYATCHILIK - jamiyatning barcha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalariga kirishib ketgan jinoiy faoliyatga ixtisoslashgan maxsus va universal yo'nalishda o'z faoliyatini diversifikatsiyalashtirib, bir necha yo'nalish buyicha jinoyatlarni sodir etishga mo'ljallangan jinoyatchilik turi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSIY FAOLIYATINING BOSH MAQSADI – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

FANATIZM - Mutaassiblik.

XALQARO TERRORIZM - davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va xarakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U eng og'ir jinoyat bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning xosilasi xisoblanadi.

EKSPORT - tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

EKSPORT SALOXIYATI - milliy iqtisodiyotning jaxon bozorlarida raqobatdosh bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni jaxon narxlari bo'yicha etarli xajmlarda eksport qilish qobiliyati.

EKSTREMIZM - (lotin. - aql bovar qilmas darajada, xaddan oshish) o'z maqsadi yo'lida turli xaddan ortiq keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik, jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo'lgan keskin radikal qarashlar.

O‘ZBEKISTONNING XALQARO XAMJAMIYAT BILAN ALOQALARI

FANIDAN TEST

- 1. O‘zbekiston aholisining necha foizi turli millatlar tashkil etadi?**
 - a. 4.9 %
 - b. 3.8 %
 - s. 3.6 %
 - d. 7.7 %*
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qachon qabul qilindi?**
 - a. 2017-yil 19-may*
 - b. 2017-yil 20-mart
 - s. 2018-yil 15-mart
 - d. 2018-yil 10-yanvar
- 3. Nechanchi yilda YuNESKO tashkiloti tomonidan 21-fevralni „Xalqaro ona tili kuni“ deb e‘lon qilingan?**
 - a. 1999-yil*
 - b. 1998-yil
 - s. 2000-yil
 - d. 1992-yil
- 4. YuNESKO tashkiloti tomonidan 1995-yil dunyoning qaysi shahrida «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»si qabul qilindi?**
 - a. Toshkent
 - b. London
 - s. Moskva
 - d. Parij*
- 5. Birlashgan millatlar tashkiloti qaysi kunni „Xalqaro bag‘rikenglik kuni“ deb e‘lon qilgan?**
 - a. 10-dekabr
 - b. 20-mart
 - s. 15-dekabr
 - d. 16-noyabr*
- 6. O‘zbekistonda ta’lim nechta tilda olib boriladi?**
 - a. 8 ta
 - b. 10 ta
 - s. 7 ta*
 - d. 5 ta
- 7. O‘zbekistonda ta’lim qaysi tillarda olib boriladi?**
 - a. O‘zbek, nemis, rus, qozoq, koreys, tojik, qirg‘iz
 - b. O‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, turkman, tojik, uyg‘ur
 - s. O‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, turkman, tojik, qirg‘iz*
 - d. O‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, fransuz, tojik, qirg‘iz
- 8. Baynalmilal so‘zi qaysi tildan olingan?**

- a. Ruscha
- b. Inglizcha
- s. Arabcha*
- d. Inglizcha

9. Respublikamiz hududidaga millat va elatlar soni qanchani tashkil etadi

- a. 138 dan ortiq
- b. 130 dan ortiq*
- s. 120 ta
- d. 140 ga yaqin

10. Qachon o‘zbek palovi YuNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi?

- a) 2014-yili. b) 2015-yili.
- s) *2016-yili. d) 2017-yili.

11. O‘zbekiston bugungi kunda qaysi qo‘shni davlatlar o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘tab kelmoqda.

- *a) Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston
- b) Hindiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston
- s) Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Xitoy, Tojikiston va Afg‘oniston
- d) Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston

12. O‘zbekiston tashqi siyosatining ma’naviy yo‘nalishi nimalardan iborat

- *a) insonparvarlik, oshkoralik, qadr-qimmat o‘z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lish
- b) xalqaro hamkorlikni olib borishda teng huquqli subekt sifatida qatnashish, boshqa mamlakatlarning suverenitetini hurmat qilish
- s) nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, harbiy bloklarga qo‘shilmaslik
- d) davlatlar suveren tengligini tan olish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegara daxlsizligini o‘zi ta’minlash

13. O‘zbekiston bugungi kunga qadar nechta davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatgan?

- a) 123 ta *b) 133 ta s) 145 ta d) 150 ta

14. O‘zbekistonda nechta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda?

- *a) 11 ta b) 45 ta s) 23 ta d) 31 ta

15. Toshkentda nechta xorijiy mamlakatning elchixonasi mavjud.

- a) 34 ta b) 51 ta s) 45 ta d) 35 ta

16. Toshkentda nechta xorijiy mamlakatning faxriy konsullik markazlari mavjud.

- a)* 9 ta b) 8 ta s) 4 ta d) 10 ta

17. O‘zbekiston Prezidenti qachon mamlakat tarixida ilk bor O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq muloqot shaklidagi yig‘ilishni o‘tkazdi.

- *a) 2018-yil yanvarda
- b) 2017-yil yanvar

s) 2018 -yil avgustda

d) 2017 -yil martda

18. «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qachon qabul qilindi.

a)1993 yil yanvar b)*1994-yil mart

s) 1993-yil aprel d) 1994-yil dekabr

19. «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi qonun qachon qabul qilindi.

a)1995-yil * b)1996-yil

s)1994-yil d) 1997-yil

20. O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi» qachon qabul qilingan.

*a)2012-yil sentabrda

b)1993-yil aprelda

s) 1992-yil dekabrda

d)1993- yil mayda

21. Bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit qanday tizimida mujassamlashgan.

*a) tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi

b) milliy siyosiy faoliyat konsepsiyasi

s) diniy bag‘rikenglik konsepsiyasi

d) ichki siyosiy faoliyati konsepsiyasi

22. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”.Mazkur qoida qaysi hujjatda o‘z aksini topgan?

a) «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida

b) “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi qonunda

*s) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida

d) Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi»da

23. “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi»da«O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlarini shu mintaqaga bilan bog‘liq» deb qaysi mintaqaga nazarda tutilgan?

a)Orol dengizi havzasi

*b) Markaziy Osiyo

s) Afg‘oniston va unga tutash hududlar

d) O‘rta Osiyo

24. Qaysi konsepsiyda O‘zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qolishi ta’kidlandi.

- *a) tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi
- b) milliy siyosiy faoliyat konsepsiyasi
- s) diniy bag‘rikenglik konsepsiyasi
- d) ichki siyosiy faoliyati konsepsiyasi

25. “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” qanday qoidalar muhrlab qo‘yilgan.

1. “O‘zbekiston o‘zini qo‘shni davlatlardagi qurolli ziddiyatlarga tortilishining oldini olish maqsadida tegishli choralarni ko‘radi
2. o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob‘ektlari joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi
3. chetdan qurol sotib olish va qo‘shni davlatlar bilan harbiy muammo tug‘ilganda ishlatish
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi”.
5. «Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarur» deb hisoblaydi
6. dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o‘zaro raqobat inobatga olinmoqda

- *a) 1,2,4 b) 2,4,6 s) 1,3,5 d) 1,3,6

26. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat:

1. mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik
2. davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
3. nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik
4. inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash
5. ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi
6. ‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob‘ektlari joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi
7. davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish
8. tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik
9. davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi
10. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi”.

- *a) 1,2,3,4,5,7,8,9 b) 1,2,3,4,6,7,8,9 s) 2,3,4,5,6,7,8,10 d) 1,3,4,5,6,7,8,10

27. O‘zbekistonning a‘zo bo‘lgan har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqishi haqidagi me‘yor qaysi hujjatda o‘z aksini topgan?

- a) «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida
- b) “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi qonunda
- s) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida *d) Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi»da

28. Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatni toping?

- A) Afg‘oniston
- B) Eron
- C) Iroq
- D) * Turkmaniston

29. Quyidagi davlatlarning qay biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qatoriga kirmaydi?

- A) Qozog‘iston
- B) * Ukraina
- C) Qirg‘iziston
- D) Tojikiston

30. Qachondan boshlab O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi?

- A) 2010-yildan
- B) *2017-yildan
- C) 2014-yildan
- D) 2019-yildan

31. O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning Tojikistonga oliy darajadagi uchrashuvi qachon amalga oshirildi?

- A) *2018-yil mart oyida
- B) 2018-yil aprel oyida
- C) 2018-yil may oyida
- D) 2018-yil iyun oyida

32. 2017-yil qaysi shaharda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqqiyot yo‘lidagi hamkorlik?”

- A) Toshkentda
- B) Buxoroda
- C) Xorazmda
- D) * Samarqandda

33. 2017-yil o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqqiyot yo‘lidagi hamkorlik? Mavzusidagi anjuman qaysi tashkilot homiyligida o‘tkazildi?

- A) * BMT
- B) YuNESKO
- C) YuNESIF
- D) MDH

34. 2017-yil o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqqiyot yo‘lidagi hamkorlik? Mavzusidagi anjumanda necha nafar xorijiy ishtirokchilar qatnashdi?

- A) 450 nafar
- B) *500 nafar
- C) 550 nafar
- D) 600 nafar

35. Qachon O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida abadiy do‘stlik shartnomasi imzolangan?

- A) *1998-yil oktabrda
- B) 1995-yil martda
- C) 1996-yil sentabrda
- D) 1997-yil avgustda

36. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risida shartnoma qachon imzolangan edi?

- A) *2013-yilda B) 2012-yilda
C) 2011-yilda D) 2014-yilda

37.2017-yil iyun oyida qaysi tashkilotning Ostona sammiti o‘tkazildi va unda O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev qatnashdi?

- A) * Shanhay Hamkorlik Tashkiloti
B) BMT
C) MDH
D) Millatlar ligasi

38. Ma’lumki, O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Aytingchi bu shartnoma qachon, qaerda kimlar o‘rtasida imzolandi?

- A) * 1992-yil Toshkentda Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akaev va O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘rtasida
B) 1991-yil Toshkentda Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akaev va O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘rtasida
C) 1992-yil Beshkekda Qirg‘iziston Prezidenti Almasbek Atambaev va O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘rtasida
D) 1993-yil Toshkentda Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akaev va O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘rtasida

39. Shavkat Mirziyoev va Imomali Rahmonlar davlat rahbarlari sifatida ilk bor qachon uchrashishdi?

- A)* 2017-yil may oyida
B) 2017-yil yanvar oyida
C) 2017-yil iyun oyida
D) 2017-yil avgust oyida

40. O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma qachon imzolangan va mustahkamlanib kelinmoqda?

- A) 1992-yil B) *1991-yil
C) 1993-yil D) 1990-yil

41. Shavkat Mirziyoevning Prezident sifatida xorijiy mamlakatlarga ilk rasmiy tashrifi qachon, qaysi davlatga amalga oshirildi.?

- A) 2017-yil 16–17-may kunlari Tojikistonga
B)* 2017-yil 6–7-mart kunlari Turmanistonga
C) 2017-yil 1–2-yanvar kunlari AQShga
D) 2017-yil 19–20-Oktabr kunlari Hindistonga

42. O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani qachon imzolashdi?

- A) 2015-yil iyun oyida
B) 2013-yil aprel oyida
C) 2014-yil sentabr oyida

D)* 2017-yil mart oyida

43. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Davlatlararo munosabatlar to‘g‘risidagi shartnoma qachon imzolangan?

A) 1992-yil* B) 1998-yil C) 2004-yil D) 2005-yil

44. Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini qachon tan olgan?

A) 1991-yil 27-dekabrda* B) 1992-yil yanvarda C) 1992-yil martda
D) 2012-yil iyunda

45. Toshkentda birinchi bo‘lib qaerning elchixonasi ochildi?

A) Turkiya B) Xitoy C) Rossiya D) AQSh*

46. Qachon O‘zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi?

A) 1992-yil B) 1996-yil* C) 1998-yil D) 2002-yil

47. Qachon O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida munosabati bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi ?

A) 2017-yil may* B) 2017-yil iyun

C) 2017-yil dekabr D) 2018-yil aprel

48. O‘zbekiston Respublikasi BMTga qachon a‘zo bo‘ldi?

A) 1992 yil 4 mart B) 1992 yil 2 mart* C) 1993 yil 28 sentyabr
D) 1992 yil 24 oktabr

49. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining qaysi sessiyasida global, dolzarb muammolarni ko‘zlab ilk bora ma‘ruza qilgan edi?

A) 49-sessiyasida B) 50-sessiyasida C) 48-sessiyasida*

D) 58-sessiyasida

50. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi qaysi yildan ish boshlagan?

A) 1993 yil oktabr* B) 1995 yil sentyabr C) 1992 yil may

D) 1992 yil oktabrdan

51. O‘zbekistonning tashabbusi bilan BMT Havfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurashi bo‘yicha maxsus qo‘mitasi qachon ta‘sis etildi?

A) 2000 yil B) 2001 yil* C) 2002 yil D) 2003 yil

52. Dunyo halqlarining madaniyati, ta‘lim va fani borasida erishgan yutuqlarini halqaro miqiyosda targ‘ib etuvchi halqaro tashkilot qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) YuNISEF B) BMT C) YuNESKO* D) ShXT

53. O‘zbekiston YuNESKO halqaro tashkiloti a‘ziligiga qachon qabul qilindi?

A) 1993 yil 29 oktabr* B) 1993 yil 22 mart C) 1992 yil 24 oktabr D) 1994 yil 17 sentyabr

54. YuNESKO halqaro tashkilotining qarorgohi qaysi shaharda joylashgan?

A) Samarqand B) Parij* C) Vena D) Buxoro

55. YuNESKO halqaro tashkiloti loyihasi doirasida Amir Temur tavalludining 660 yilligi halqaro miqiyosda qachon nishonlandi?

A) 1996 yil oktabr* B) 1996 yil aprel C) 1995 yil iyul D) 1995 yil oktabr

56. "6+2" muloqot guruhi tuzish tashabbuskori bo'lib chiqqan davlat rahbarlaridan birini aniqlang?

A) N. Nazarboev B) I. Karimov* C) Sh. Mirziyoev D) V. Putin

57. "6+2" muloqot guruhi qachon tuzildi?

A) 1999 yil B) 2017 yil C) 1997 yil* D) 2016 yil

58. Quyidagilardan ShHTning oliy organlariga kiradigan tashkilotlarni toping.

1. «Vazirlar va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi»
2. «Mintaqaviy Antiterror tuzilmasi (MATT)»
3. «Davlat boshliqlari Kengashi»
4. «Hukumat boshliqlari Kengashi (Bosh vazirlar)»
5. «Tashqi ishlar vazirlari Kengashi»
6. «Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi»
7. Kotibiyat

A) 1, 3, 4, 5, 6 *B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5, 7

59 ... uning nomi «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – ShHT», deb o'zgartirildi.

*A) O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan

B) chegara hududlari bo'yicha harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog'liq shartnoma imzolanishi bilan

C) «Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi

kurash to'g'risida Shanxay konvensiyasi» imzolanishi bilan

D) Turkmaniston tashkilot azoligidan chiqishi bilan

60. Qachon MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi Kengashida MDHning Nizomi qabul qilindi?

*A) 1993-yil yanvar B) 1993-yil dekabr

C) 1994-yil oktabr D) 1994-yil yanvar

61. Nizom bo'yicha MDHning raisi lavozimi ...

A) a'zo davlatlarning ovoz berish yo'li bilan saylanadi

*B) navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o'tadi

C) BMT tomonidan tayinlanadi

D) Ittifoqdosh davlatlar tomonidan ma'lum muddatga saylanadi

62. Qachon bo'lib o'tgan MDHning sammitida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha MDHning «Xavfsizlik Kengashi» ni tuzishga qaror qilindi?

A) 2005-yil sentabr *B) 2004-yil sentabr

C) 2004-yil oktabr D) 2005-yil dekabr

63. ... - submintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, Yevroosiyo hududining 61% ni egallaydi.

*A) Shanxay Hamkorlik tashkiloti

B) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

C) Birlashgan Millatlar Tashkiloti

D) Yevropa Iqtisodiy Jamiyati

64. ShHTning shtab – kvartirasi qaysi shaharda joylashgan?

A) Tokioda B) Moskvada

C) Shanxayda *D) Pekinda

65. Qachon «Shanxay beshligi» vujudga kelgan edi?

*A) 1996-yil 26-aprel B) 1997-yil 26-avgust

C) 1995-yil 6-aprel D) 1996-yil 16-sentabr

66. Qachon O‘zbekiston Respublikasi ShHTning sammitida birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan?

A) 2001-yil B) 2002-yil

C) 2004-yil *D) 2000-yil

67. Qachon «ShHTni tuzish to‘g‘risida»gi deklaratsiya hamda «Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi» imzolangan?

*A) 2001-yil B) 2002-yil

C) 2004-yil D) 2000-yil

68. 2002-yilda ShHTga a‘zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tadi. Unda imzolangan uchta hujjatni aniqlang.

1. «Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi»

2. ShHTga a‘zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi

3. ShHT Xartiyasi

4. ShHTga a‘zo davlatlar o‘rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi Bitim

5. «ShHTga a‘zo davlatlarning 20 yilga mo‘ljallangan savdo – iqtisodiy hamkorlik dasturi»

A) 2, 3, 5 *B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 5

69. 2005-yil mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakati ...ga kuzatuvchi maqomi berilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

A) Hindiston, Mo‘g‘uliston va Pokiston

*B) Hindiston, Eron va Pokiston

C) Afg‘oniston, Eron va Pokiston

D) Hindiston, Eron va Mo‘g‘uliston

70. ShHTning oliy organi bo‘lgan «Mintaqaviy Antiterror tuzilmasi (MATT)» qachon tuzilgan?

A) 2001-yil B) 2005-yil

C) 2004-yil *D) 2002-yil

71. BMTga a‘zo davlatlardan nechtasida prezidentlik lavozimi tasis etilgan?

A) 183ta B) 143ta

C)*193ta D) 153ta

72. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining ilk bor kengaytirilgan ochiq, videokonfrensiyasi nechanchi yilda bo‘lib o‘tdi?

A) 1996yil 24 aprel B) *2018yil 10yanvar

C) 2017yil 10yanvar D) 2018yil 9yanvar

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Abdug‘affor Qirg‘izboev. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan halqaro hamkorligi. T. “Fan” 2004 yil.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. T. 2001 yil “Ves’ mir” nashriyotidan tarjima. BMT ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi.
3. H.Murodov, N.Muxammadiev, G‘.Jamolov. O‘zbekiston jaxon hamjamiyati sifatida. “G‘.G‘ulom nomidagi” nashryot. T. 2000 yil.
4. R.Xakimov O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti “G‘.G‘ulom nomidagi” nashriyot. T. 2001 yil.
5. Ya.G‘afforov, A.Xolliev. O‘zbekiston va jaxon hamjamiyati. T.”Universitet” nashriyot, 2003 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston 2019 yil.
7. I. A. Karimov. O‘zbekiston, milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 – jild. Toshkent:”O‘zbekiston”, 1996 yil.
8. I. A. Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7 – jild. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1999 yil.
9. I. A. Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.10 – jild. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2002 yil.
- 10.I. A. Karimov. Tinchlik va xavfsizlik o‘z kuch – qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12 – jild. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2004 yil.
- 11.Mirziyoev Sh.M Tanqidiy taxlil, qat`iytartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bulishi kerak // «Xalq so`zi». 15 yanvar 2017 yil.
- 12.Mirziyoev Sh.M. Demokratiya isloxlarni izchil davom ettirish, Xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib xayot darajasini yaratish - barqaror taraqqiyot kafolatidir. O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII sesiyasidagi ma`ruzasi. O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.
- 13.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash - yurt taraqqiyoti va Xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi. «Xalq so`zi», 2016 yil 8 dekabr.
- 14.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratiya O`zbekiston davlatini mard va oliyjanob Xalqimiz bilan kuramiz. SH.Mirziyoevning O`zbekiston Ruspublikasi Prezidenti lavozimiga kiri- shish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining kushma majlisidagi nutki. «Xalq so`zi», 2016 yil 15 dekabr.

15. Gafarli M. S, Kasaev A. Ch. Rivojlanishning o'zbek modeli: Tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi, Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001 yil.
16. Voxidova M.T. Tolerantlik - yoshlarni ijtimoiy-axdokiyl yuksaltirish omili. Fals. f. nomz. avtoref. -Toshkent, 2010.
17. Juraev SH. «Vijdon erkinligining xuku kiy kafolatlari» // Ukuv kullanma. - Toshkent, «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013
18. Xajieva M.S. Milliy ongda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy taxdili. Fal.f. dokt. avtoref. — Toshkent, 2011.
19. YUsupov Z.U. O`zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmilallik (1970-2000 yillar). Tarix fan. nomz. avtoref. — Toshkent, 2011.
20. Diniy bagrikenglik va mutaassiblik: (yuz savolga-yuz javob) / Mas'ul muxarrir O. YUsupov. Toshkent: «Toshkent islom universiteta» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
21. Lafasov M. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1995 yil.
22. Mustaqillik bu huquq. Istiqlolnoma. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997 yil.
23. Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1994 yil.
24. Taraqqiyot va hamkorlik yo‘llarida. O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1993 yil.
25. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil davlat. Toshkent: “Adolat”, 1995 yil.
26. O‘zbekistonning yangi tarixi (Mustaqil O‘zbekiston tarixi). 3 - jild, Toshkent: “Sharq”, 2000 yil.
27. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
28. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http: // www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
30. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)